

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

FRANCE

SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

zenodo

OpenAIRE



digital
object
identifier

OPEN  ACCESS





ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



**FRANCE international scientific-online conference:
"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN
EDUCATION SYSTEM"**

Part 33
5th FEBRUARY
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

PARIS 2025



SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection of scientific works of the International scientific online conference (5th, FEBRUARY 2025) – France, Paris: "CESS", 2025. Part 33–188p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM". Which took place in Paris on FEBRUARY 5th, 2025

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025
© Authors, 2025

TABLE OF CONTENTS

Daminova Gulfiya Salim qizi	8
Ravshanova Gulrux <i>O'QUVCHILARNI NOTANISH SO'Z VA IBORALAR BILAN TANISHTIRISH</i>	
Xasanova Zarnigor Faliddinovna	11
<i>BOLALAR O'YINLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA</i>	
Farmanova Rukhshona Hayatjon's daughter	16
<i>THE ROLE OF PRIVATE PROPERTY AND THE MIDDLE SOCIAL CLASS IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY</i>	
Patxiddinova Xalima Mehriddin qizi	19
<i>BIZ ZULFIYA IZDOSHLARIMIZ</i>	
Patxiddinova Xalima Mehriddin qizi	21
<i>SANITARIYA QOIDALARI, NORMALARI VA GIGIYENA NORMATIVLARIGA MOSLIKNING AHAMIYATI</i>	
Hasanova Barnoxon Voxidjon qizi	23
<i>MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARINING AHAMIYATI</i>	
Yo'ldosheva Madina Alisher qizi	26
<i>MILLIY QADRIYATLAR VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RN</i>	
Утепова Г.Б	29
Махсатбаев Н.Б. <i>НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ ДЛЯ СТРАН С ДОЛГОЖИТЕЛЯМИ</i>	
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	33
Suyunov Sherzod Sindarovich <i>DAVLAT XARIDLARI SOHASIDAGI SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI</i>	
Salayeva Mardona Sarvar qizi	42
<i>OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA ADABIY HAMDA TANQIDIY QARASHLAR TAHLILI</i>	
Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi	45
<i>OZOD SHARAFIDDINOVNING MAQOLALARIDA VATANGA MUHABBAT</i>	
Akramjanov Temur Ikromovich	48
Masharipov Dostonbek Muxtarjon o'g'li <i>PROFESSIONAL BURNOUT: SABABLARI, BELGILARI VA QARSHI KURASHISH</i>	
Shukurov Alisher Ahmadaliyevich	52
Shukurova Gulmira Murodjon qizi <i>INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIGA</i>	

ZAMONAVIY INTERAKTIV O'YINLARNI QO'LLASH	
Бешимова Дилафрўз Исломовна	59
СЕВИМЛИ ЎЗБЕК ШОИРАСИ ЗУЛФИЯГА "ЭҲТИРОМ"	
Бешимова Дилафрўз Исломовна	62
ЎЗБЕК ШОИРАСИ ЗУЛФИЯ ШЕЪРЛАРИДА ВАТАНПАРВАРЛИК ҲОЯСИ	
Бешимова Дилафрўз Исломовна	67
ЗУЛФИЯХОНИМ САДОҚАТ ВА ВАҒО ТИМСОЛИ	
Бешимова Дилафрўз Исломовна	71
ШОИРА ЗУЛФИЯНИНГ "СЎЗ"ГА МЕҲРИ	
Pulatov Baxodir Abduraupovich	74
O'ktamov Yodgorbek Ulug'bek o'g'li	
Raxmatullayev Azizbek Ulug'bek o'g'li	
YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JADID MUTAFAKKIRLARI QARASHLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI	
Qurbonov N.N.	78
DUNYODA SODIR BO'LGAN ZILZILALAR TARIXI	
Izbosarova Bannura	80
PRIVATE PROPERTY AND SOCIAL RELATIONS IN CIVIL SOCIETY	
Navro'z Suvonov	84
OZOD SHARAFIDDINOV MAQOLALARIDAKOMILLIK VA TURLI MAFKURAVIY G'OYALAR.	
Inoyatova Z.X.	87
Mansurova M.J	
EDUCATION OF GIFTED STUDENTS IN PRIMARY GRADES – AS A PEDAGOGICAL PROBLEM	
Do'simmatov Ko'klanboy Yuldashevich	91
HUQUQ VA ERKINLIK: SHAXSIY HUQUQLAR VA ULARNI HIMOYA QILISH	
Umarov Xamidilla Lutfullayevich	97
O'ZBEK TILIDAGI QO'SH UNLILAR	
Умаров Хамидилло Лютфуллаевич	99
АРТИКУЛЯЦИЯ ДИФТОНГОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ	
Nikitina Mariya Rusverovna	101
HARBIY JAMOADA PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	
Soyibova Dilobarxon Qobiljon qizi	106
IJTIMOIIY ISHDA OILALAR BILAN ISHLASH YO'LLARI	
Tursunmurotova Sarvinoz	108
TABIATNI ASRASH – HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZDIR!	

Zarnigora Alisherova Turg'unboyeva A. <i>G'ARB OLIMLARI TOMONIDAN XARAKTER AKSENTUATSIYASINING O'RGANILISHI VA PSIXOLOGIYADAGI AHAMIYATI</i>	111
Mutabarova Mohinora Muntozjon qizi Erkinova Gulnoza Xursanbek qizi Ro'ziboyeva Oyimxon Jahongir qizi <i>KELAJAK TIBBIYOTI: TEXNOLOGIYALAR INQILOBI VA INSON HAYOTI.</i>	115
Kholmurodova M.A Ne'matullayeva Mukhlisa Sherali kizi <i>AN ETYMOLOGICAL STUDY OF UZBEK WORDS AND PHRASES</i>	118
Meyliyeva Shoxista Rustamovna Yodgorova Gulnora Isroil qizi Ulug'murodov Murodilla Bektemirovich <i>DIDAKTIK O'YINLARNING OLIY TA'LIM TALABALARILARNING BILIMINI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI</i>	121
Karimov I.A. <i>TERMIZ SHAHRINING IQLIMIY VA BIOMETEOROLOGIK SHAROITLARI</i>	124
Розиқов Бехзод Баҳром ўғли. <i>ТИЖОРAT БАНКЛАРДА МОЛИЯВИЙ ХИЗМАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ</i>	131
Saidova Mahliyo Ahmatqulovna <i>USING DEVELOPMENTAL TEACHING TECHNOLOGIES AND VARIOUS METHODS IN TEACHING THE TOPIC "MEIOSIS" TO 10TH GRADERS</i>	138
G'oyibova Dilafruz Musoqulovna <i>TEENAGE PROBLEMS: CAUSES, EFFECTS, AND SOLUTIONS</i>	143
G'oyibova Dilafruz Musoqulovna <i>THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND DIDACTIC GAMES IN TEACHING THE TOPIC OF TRAVEL</i>	147
Abdusattorova Nazokat To'rayevna <i>MATEMATIKA FANINING RIVOJLANISHI VA SONLARNING PAYDO BO'LISHI</i>	150
Amirova Zubayda Shodmonovna <i>AXBOROT XAFVSIZLIGINING DOLZARB MUAMMO SIFATIDA</i>	155
Каюмов Шохаббос Очилдиева Дилфуза Шодиевна	161

<i>РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ АРГУМЕНТАЦИИ И ДИСКУССИИ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ</i>	
<i>Xo'jamberdiyeva Moxira Irkinovna</i>	165
<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ART-TERAPIYANING TA'SIRI</i>	
<i>Abdullajonova Husnidabonu</i>	169
<i>AMERIKA ADABIYOTI HAQIDA</i>	
<i>Sanam Ostonova Nematovna</i>	172
<i>Ismatova Dilshoda Shavkat qizi</i>	
<i>TRADITION AS A RESOURCE OF SOCIO-CULTURAL IDENTITY OF AN INDIVIDUAL IN MODERN SOCIETY</i>	
<i>Aziza Yunusova</i>	175
<i>Zulfiyabonu Boboyeva</i>	
<i>ANALYSIS OF JACK LONDON'S SHORT STORY "LOVE OF LIFE"</i>	
<i>Usmonova Zarina Habibovna,</i>	180
<i>Yodgorova Maftuna Ulugbekovna,</i>	
<i>THE EXPRESSION OF HAPPINESS IN PHRASEOLOGICAL UNITS IN JANE AUSTEN'S PRIDE AND PREJUDICE</i>	
<i>Saidov Zafarjon Shavkatovich</i>	184
<i>LANGUAGE ACQUISITION IS ESSENTIAL IN LANGUAGE LEARNING AND TEACHING</i>	



O'QUVCHILARNI NOTANISH SO'Z VA IBORALAR BILAN TANISHTIRISH

Daminova Gulfiya Salim qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Ravshanova Gulrux

Imiy rahbar: TAFU "Pedagogika kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tili va tafakkuri to'g'risida, ona tili darslarini ta'lim tizimida yangicha yondashuv asosida o'qitilishi, jumladan, ona tilini o'qitishda notanish so'z va iboralarning o'rni haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Kalit so'zlar: nutq, ibora, ona tili, ta'lim tizimi, o'qituvchi, o'quvchi, yondashuv.*

Mamlakat rivojlanishida ko'pincha yosh avlod asosiy o'rin tutadi. Yoshlarning ma'nan yetuk va bilimli bo'lish kabi xislatlarni shakllanishiga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil ta'lim - tarbiya tizimi hisoblanadi. Yosh avlodning ta'lim - tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, ta'lim tizimining ona tili darslarida o'quvchilar tilshunoslik bo'limlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Til millatning ma'naviyat ko'zgusi, ma'rifat chirog'i, bilim kaliti bo'lganligi uchun uni o'rganish, tahlil qilish va yosh avlodga til grammatikasi, semantikasi bo'yicha ta'lim berish tilshunoslik soha vakillari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson borliqdagi jarayonlarni idrok qilishi, anglashi va fikrlashida ona tilining o'rni beqiyosdir.

Shuning uchun til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda bo'lib, inson ongidagi o'y-xayollari va fikrlarini shu orqali bilish mumkin. Insoniyatga ibrat bo'la oladigan odamning nutqi, fikrlari, muomala madaniyati xuddi bahorda esadigan yoqimli shabadaga o'xshaydi. Aksincha, ongida salbiy fikrlar, yomon niyatlari bo'lgan, hasad, kibr, manmanlik cho'qqisiga chiqqan kishining nutqi qish qahratonidagi sovuq misoli yoqimsizdir. Ona tiliga bo'lgan muhabbat, hurmat boshlang'ich ta'lim jarayonlaridan boshlanadi.

Ona tili darslari jarayonida o'quvchilarning til malakalari takomillashib, fikrini to'g'ri, ongli va ifodali bayon etish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari o'sib boradi. Afsuski yuqori sinflarga o'tgan o'quvchilarning aksariyati o'zbek tiliga faqatgina so'zlashuv vositasi va ta'lim olish quroli sifatida qaraydi. Darsliklardagi grammatik bilimlarni ham imtihonlardan o'tish va test yechish uchungina o'rganadi. Zamonamiz yoshlariga darsliklar zerikarli tuyilishi mumkin. Shu maqsadda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsliklarning mazmuni, dizayni va matnida imlo xatolarsiz nashrga tayyorlash, amaldagi o'quv qo'llanmalardagi xato va kamchiliklarni tuzatish maqsadida "Darsliklarga taklif" kanali tashkil etildi, bu kanal ocilishi bilan til haqida uning rivojlanish bosqichlarini takomillashtirish yuzasidan sakkiz mingdan ortiq talab va takliflar bo'ldi. Respublika ta'lim markazi tomonidan o'rinli deb topilgan 1600 ga yaqin taklif qabul qilindi. 2025-yilgacha yangi darsliklar ishlab chiqish masalalari respublika miqyosida o'tkazilgan seminarda



muhokama qilindi. Bu esa til o'rganishdagi talab va takliflarni amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi

Har bir tilning faxrlanadigan asosiy jihatlaridan biri uning lug'at boyligidir. O'zbek tili ham lug'atga boy til bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati", "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tilining orfografik lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati", "Hozirgi o'zbek adabiy tili faol so'zlarining izohli lug'ati", "O'zbek ismlari lug'ati" kabi lingvistik va qomusiy lug'atlar yaratilgan. Ular ona tilimiz xazinasidir. Afsuski, hozirda ona tili darslari faqat qoida yodlab, mashq bajarish bilan chegaralanib qolgan. Lug'atlardan maktab darslari tugul, boshqa ta'lim bosqichlarida ham foydalanish miqdori juda kam. Faqat DTM testlarini yechish uchun imlo lug'atiga ba'zida ko'z tashlanadi, xolos. Ingliz, rus, arab tili o'rganishga brogan o'quvchidan ilk darslardan oq lug'at kitob xarid qilib, yodlash talab qilinadi, chunki lug'at bilan ishlash samarali natija beradi. O'quvchilarning savodxonligi yaxshi rivojlanishi uchun o'zbek tiliga doir lug'atlarni o'rganishni keng yo'lga qo'ysak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ona tili fanining vazifasi o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'z fikrini batafsil, chiroyli bayon qilishga o'rgatishdir. Fikr esa til orqali bayon etiladi. Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev til qurilishida uning ikki holatini - lison va nutq tushunchalarining farqlanishi haqida yozadi. "Lison, - deb yozadi olim, - kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. Nutq esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasidir"

Shunday ekan, har bir millat vakili o'z ona tilni va undan foydalanish taktikasini, albatta, bilishi kerak. Bu jarayonda tilning grammatikasini o'rganish bilan birga, tilimizning nutqiy faoliyatdagi mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, bayon etilayotgan fikrini, ham og'zaki, ham yozma shaklda to'g'ri, tushunarli tarzda tinglovchiga yetkazish muhimdir. Bunda ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor berish kerak. Lug'at ustida ishlash jarayonida so'zning imlosi, ma'nosi, talaffuzi e'tiborga olinib, shular ustida ishlashga ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning nutqda o'zgaralar nutqini anglashlarini ta'minlash maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llanadigan har bir so'zning, ta'lim jarayonlarida, ishlatiladigan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilarini ustida alohida ishlash kerakligiga aniqlik kiritishi lozim. Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlarning quyidagi ma'nolari bilan tanishtiriladi:

1. O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish.
2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.
3. O'quvchilar tilida kam qo'llaniladigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash.
4. Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash.
5. Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish.

O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Ular ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. So'z ma'nosini o'zlashtirish bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llaniladi. Ularning o'rnida oddiy so'zlarni qo'llashadi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqida qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi zarur.

Bunday soʻzlarning bolalar hayoti bilan bogʻliq boʻlganlarini ajratib olib "Bilib qoʻygan yaxshi" rubrikasi ostida ishlansa oʻquvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi. Oʻquvchilarga grammatik atamalarining toʻgʻri talaffuzi, imlosi oʻrgatilgandan keyin misollar asosida uni mazmuni ochiladi. Qoidani oʻqitish va mashqlar bajarish orqali atama maʼnosini toʻlaqonli anglashlariga erishiladi. Oʻquvchilar nutqini oʻstirish va lugʻat boyligini takomillashtirish uchun tilning leksika boʻlimi soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi, koʻp maʼnoli soʻzlar, kam ishlatiladigan soʻzlar, tasviriy ifoda va iboralarni oʻrganish jarayonida sinonimlarni qoʻllash, tilning sinonimik imkoniyatlaridan foydalanish maqbul usul hisoblanadi. Oʻquvchilar yozma savodxonlikni oshirishning muhim jihati matnlar xilma-xilligini taʼminlashdir. Ona tili darsliklaridagi matnlar va mashqlar asosan, badiiy asarlardan olinadi, lekin oʻzbek tilining lugʻat boyligi faqat bu bilan oʻlchanmaydi. Jamiyatning har bir sohasiga tegishli matn bu – oʻzbek tili oʻrganadigan obyekt hisoblanadi.

Ona tili darslarida oʻquvchilarning lugʻat bilan ishlash malakasini shakllantirsak, yuqori natijalarga erishamiz. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaxshi oʻzlashtirgan mutaxassis ona tilini chuqur bilmasligi mumkin, aksincha oʻzbek tilining yetuk bilimdoni IT sohasini tushunmasligini guvohi boʻlamiz. Bu ikki shaxsning bilimi birlashsagina, oʻzbek tili ham zamonaviy texnologiyada oʻz oʻrnini egallab, xalqaro tillar safiga kiradi. Bu uchun har bir yosh oʻquvchi oʻzbek tiliga doir lugʻatlar bilan mustaqil ishlash koʻnikmasiga ega boʻlishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: Oʻzbekiston, 2016.
2. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. "Universitet" nashriyoti. - T., 2006,
4. Gʻafforova T. va b. "Ona tili", T., "Oʻqituvchi", 2001 yilgi nashr.



BOLALAR O'YINLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA

Xasanova Zarnigor Faliddinovna

Toshkent shahar 308-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda bolalar o'yinlarining lingvokulturologik xususiyatlarini xorijiy davlatlar misolida ko'rib chiqilgan Izlanishlar natijalarining nazariy ahamiyati lingvokulturologiyada ikki millat estetik qadriyatlarining tilda ifodalanishi muammolarini yechishda, lingvokulturologiya, uni o'rganishda o'yinlarning ahamiyatini tadqiq etish va unga doir ilmiy, amaliy masalalarni o'rganishda xizmat qiladi

Kalit so'zlar : lingvokulturologiya , o'yinlar ,bolalar , an'anaviy , tarbiyaviy , epchillik , xalq ,faollik

Har bir mamlakat o'zining rivojlanishi va madaniyatining shakllanish va bilan birga unda bolalar o'yinlarining lingvokulturologik xususiyatlari ham o'ziga xos ravishda shakllanib kelgan.

Bolalar o'yinlarining lingvokulturologik xususiyatlarini xorijiy davlatlar misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, fikrimizcha quyidagi mamlakatlarda yashovchi xalqlarning uyinlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Buyuk Britaniya. Britaniyalik bolalar tomonidan o'ynaladigan ko'plab an'anaviy o'yinlar bugungi kunda maktab va uylarda ham o'ynalmoqda. Britaniya an'anaviy o'yin maydonchasi o'yinlari bolalarning bir-biri bilan muloqot qilishiga va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ba'zi bir olimlarning fikriga ko'ra, televizorni o'z ichiga olgan zamonaviy o'yinlarda topib bo'lmaydigan tasavvur tuyg'usini rivojlantiradi. Bolalarni an'anaviy o'yinlar o'ynashga ko'chaga chiqarish ularni uydin chiqarib yuboradi va ularni jismoniy faollik bilan shug'ullanishiga undab sog'lom jismoniy odatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Xitoy Xalq Respublikasi. Xitoy an'anaviy o'yinlari juda ham xilma-xil bo'lib, barcha yoshdagilar uchun mos keladi. Ko'pgina o'yinlar qadimgi davrlarda paydo bo'lib ko'p asrlar davomida Chin mamlakatida keng tarqalgan. Aytish joizki ko'pgina qadimgi Xitoy o'yinlari zamonaviy sportning ajdodlari hisoblanadi. O'yin qoidalari juda oddiy bo'lganligi uchun ular uzoq tushuntirishni talab qilmaydi, bu esa o'yinni boshlashni ancha osonlashtirdi¹. Eng muhimi, maxsus jihozlar talab qilinmagan, o'yinlar faqat ko'chada topiladigan narsalardan foydalanilgan yoki ishlab chiqarishda maxsus mahorat talab etmagan. Shuning uchun o'yinlarda kam ta'minlangan oilalar farzandlari ham ishtirok etishlari mumkin edi.

Xitoylik bolalarda qadimda an'anaviy loydan yasalgan o'yinchoq "nigugu" bor edi. Unga puflasangiz, juda oddiy "goo-goo" degan tovushni chiqarardi. Shu sababli bu o'yin "nigugu" (xitoy tilida "ni" – loy).nomini oldi².

¹ Луянь Г. Формы и эстетика традиционных народных глиняных игрушек «Нигугу» / Луянь Го.

² Чжао Цзэнфан Игра как важнейший компонент китайской детской субкультуры // <https://clck.yandex.ru>

Xitoyda bolalar o'yinlarining yana bir xususiyati shundaki, bolalar jismoniy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda qat'iy qoidalar, o'yin jarayonida pozitsiyani o'zgartirish va o'zini boshqasining o'rniga qo'yishni o'z ichiga olgan maxsus interaktiv xarakterga ega guruh o'yinlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, bunday o'yin futbolning o'tmishdoshi bo'lib, u bilan umumiy xususiyatlarga ega – "suju" o'yini. O'yin davomida nafaqat raqib jamoaga gol urish, balki to'p, qo'l, oyoq yoki bosh mahoratini namoyish yetish uchun ham vaqt kerak bo'ladi. Xitoyning ochiq havoda bolalar o'yinlari turli xil kombinatsiyalarda bajariladigan har xil harakatlar, o'yinchilarning mushak faolligining yuqori intensivligi, shuningdek, paydo bo'layotgan muammolarni hal qilishda o'yin ishtirokchilaridan tashabbuskorlik va topqirlikni talab qiladigan doimiy o'zgaruvchan o'yin sharoitlari bilan ajralib turadi³.

Xitoylik olim Guo Luyanning so'zlariga ko'ra, bunday o'yinchoq bolalarning ko'ziga quvonch keltiradigan oddiy shakllar, boy ranglar bilan ajralib turadi va Xitoyning markaziy mintaqalarining oddiy va murakkab bo'lmagan halq urf-odatlarini aks ettiradi. Qadimgi va zamonaviy Xitoyning barcha o'yinlari, og'zaki o'yinlardan tashqari, jismoniy salomatlik, chidamlilik va chaqqonlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

Qozoqiston Respublikasi. Qozoq xalqining milliy o'yinlarining asosiy ko'pchiligi tabiiy ashyolar bilan o'ynashga asoslangan. Kasbi mol chorvachilikka asoslangani uchun qozoq xalqining milliy o'yinlari shunga moslashgan. Milliy o'yinlar bola-bog'chalarda, maktab tanaffuslarida, darsdan bo'sh vaqtlarda o'ynaladi. Bularning o'zi bolalarning olgan bilimlarini mustaxkamlab, tez fikrlashini, zukkkoligini oshiradi. O'yin vaqtida bir qancha savollar beriladi, topishmoqlar aytilib, tez aytishlar aytiladi, qo'shiq, kuy, raqs ijro etiladi. Shunday qilib o'yinlar madaniyatli ravishda o'ynaladi. O'yin bolalar xayotida katta o'rin egallaydi.

Qozoq maktablarida milliy o'yinlardan harakat o'yinlari o'ynaladi. Xarakat o'yinlari o'quvchilarning epchilligini, o'zini-o'zi boshqaruvchanligini rivojlantiradi, xarakatlanuvchanligini oshiradi. Qozoq xalqining milliy o'yinlari yakka insonlarnigina tarbiyalash quroli emas, u barcha jamiyatni o'z ortidan ergashtirib millat vakilini tarbiyalashga xizmat qiladi⁴. Qozoq xalqining olim va tadqiqotchilari A. Qunanbaev, Sh. Ualixanov, I. Altinsarinlar xalq o'yinlarining bolalarga bilim berishdagi tarbiyaviy mazmunini yuqori baholab, avvalgi avlodning odati bilan urfini xurmatlab, odamlarning ongi bilan ish-harakatini bilib o'rganishda yoshlarning estetikalik, odamgarchilik his-tuyg'ularining o'sishiga uning bajaradigan xizmatini yuqori deb baholasa, M. Jumabaev o'yinlarni xalq madaniyatining boshlang'ich qaynar bulog'i, o'ylash xususiyatining o'sishini, tilning, jismoniy tarbiyaning asosiy elementi deb xulosa qiladi⁵.

Maktablarda va maktabdan tashqari tarbiyaviy tendensiyaning yaxshilash orqali pedagogik shartlarning biri sivilizatsiyaning bugungi darajasiga asoslangan ijtimoiy

³石民勇《游戏概论》·北京·中国传媒大学出版社·2009年,5页=Ши, Миньён. Введение в игры / Миньён, Ши. – Пекин: Издательство Китайского Университета Медиа, 2009 – С. 5

⁴ Абдугаффаров Ш. Миллий ўйинлар орқали боланинг шахсий хусусиятларини ривожлантириш йўллари / Шахризад Абдугаффаров, Нурсултан Жумабекулы Сарсенбеков. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2017. – № 16.1 (150.1). – С. 1-2. – URL: <https://moluch.ru/archive/150/42671/> (дата обращения: 08.01.2024).

⁵ Сагындықов «Қазақтың ұлттық ойындары» // file:///C:/Users/User/Downloads/moluch_150.1_2.pdf.

pedagogik talablarga muvofiq yoshlarga bilim va tarbiya berish, inson farzandiga avvalgi avlodning yetishgan yutuqlariga ko'z yumub qarashga emas, balki shu davr insonlarining yutuqlarini misol tariqasida keltirib yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatlaridan foydalanishdir⁶.

Olib borilgan tadqiqotlarda qozoq milliy o'yin elementlarini dars davomida foydalanish o'quvchilarning darsni o'zlashtirish qobiliyatini oshirib, dars mazmunini o'quvchi ongiga yaqinroq jamlaydi. O'quvchilarning tabiiy xolat xarakatida milliy o'yinlarni foydalanish tarbiyaviy ishlarga ularning qiziquvchanligini oshiradi. I. Pavlovning refleks teoriyasiga asoslanadigan bo'lsak, barcha o'quv va tarbiya tandensiyalari aloqa tizimining tuzulishiga asoslanadi. Uning zarur sharti «Markaziy miya devorining faoliyatiga» aloqador bo'ladi. Unday bo'lsa, milliy o'yin foydalanilgan dars yoki tarbiyaviy ish boshqalaridan o'zgacha bo'ladi.

Bolaning o'yin davomida o'zini-o'zi rivojlantirishi, xayotni bilishga bo'lgan qiziquvchanligi, chiniqishi, uning aqliy, jismoniy xarakatidagi faolligini oshirib, oldiga qo'ygan maqsatlariga yetishga bo'lgan irodasini kuchaytiradi, olg'a intilishini, sadoqatini uyg'otadi. Shuning natijasida o'quvchining mustaqqil faoliyati paydo bo'ladi. Shuning natijasida o'quvchining mustaqqil izlanishi, bilimga ishtiyoqining o'sishi seziladi. Xususan, bilim olishdagi o'quvchining faoliyati va bilimni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'quvchining izlanishi, o'zligicha o'qishini shakllantiradi⁷.

Qozoq xalqining milliy o'yinlarining ko'pchiligi o'z vaqtida yozib qoldirilmaganligi sababli, bugungacha unut bo'lgan. Sabit Muqanovning "O'mir mektebi" nomli xotira ijodida avvallari "Orda" nomli oshiq o'yini bo'lganligi haqida bir necha marta atab ko'rsatgan. Faqat nomigina saqlanib qolgan taniqli milliy o'yinlarning biri – "Abayдың алты алаші" nomli o'yin. Shu vaqtgacha ko'pchilikning nazaridan qolgan milliy o'yinlar ko'p. Shularning ichida "Сағы қылан", "Сағы ала қаз", "Ақ аю", "Ағызбақ", "Жылман", "Топай" milliy o'yinlari⁸. Bola rivojlanishida milliy o'yinlarning o'z ta'siri bor. Bola milliy o'yinlar orqali o'zining qadr-qimmatini tushunadi. Bolalar milliy o'yinlar orqali o'zining jismoniy sog'ligini mustaxkamlab, atrofdagi buyumlar va xodisalarining voqealik e'tirof etilishini tushunib, mehnat ko'nikmalariga o'rganib boradi. Saralab olingan milliy o'yinlar hozirgi kunda bolalarning tarbiyaviy ishlarida xar tamonlama roli katta. Milliy o'yinlarning muhim shartlaridan biri bu o'yinda ong va mehnatning birligidir. Shunday qilib, milliy o'yinlar bolalarni epchillikka, chaqqonlikka, chidamlilikka, odamgarchilikka va yana boshqa ijobiy xususiyatlarga chorlaydi⁹.

Rossiya Federatsiyasi. Rus olimlarining ta'kidlashicha, "Har bir xalqning madaniyatiga ular tomonidan yaratilgan o'yinlar kiradi. Asrlar davomida bu o'yinlar bolalar va kattalarning kundalik hayotiga hamroh bo'lib, hayotiy fazilatlarni rivojlantiradi: chidamlilik, epchillik, tezlik, halollik, adolat va qadr-qimmatni singdiradi. Rus xalq

⁶ Қоянбаев, Ж. Б. Педагогика [Мәтін] : университеттер студенттеріне арн.оку құралы / Ж. Б. Қоянбаев, Р. М. Қоянбаев. - Алматы : [б. и.], 2004 ж. – 384 б.

⁷ Омарова, Р.С., Кенеш Ә.С., Дүйсенов Ұ.А. 12 жылдық білім берудің бастаушы буындағы оқу–тәрбие үрдісі.

⁸ Абдугаффаров Ш. Миллий ўйинлар орқали боланинг шахсий хусусиятларини ривожлантириш йўллари // «Молодой учёный» . № 16.1 (150.1). Май 2017 г. Б. 2.

⁹ Қазақстан мектебі, ежемесячний журнал, Алматы // <https://www.3klik.kz/info/kazakstan-mekteb/>.

o'yinlari ko'p ming yillik tarixga yega: ular qadim zamonlardan beri saqlanib kelinmoqda, avloddan-avlodga o'tib, eng yaxshi milliy an'analarni o'zida mujassam etgan"¹⁰.

Rus adabiyotlarida keltirishicha, "Umumiy ta'lim va kasb-hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari" maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ishlarni takomillashtirish, go'zallik tuyg'usini tarbiyalash, yuqori estetik didni, go'zallikni tushunish va qadrlash qobiliyatini shakllantirish vazifasini qo'ydi.

Rus olimi M.F. Litvinova "Ochiq havoda qiziqarli o'yinlar o'ynash rus xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlaridan biridir. Ya'ni "pryatok (bekinmachoq), lovishok (tuzoq), salochek (quvlashmachoq)!" Ular qachon paydo bo'lgan? Bu o'yinlarni kim ixtiro qilgan? Bu savolga faqat bitta javob bor – ular ertak va qo'shiqlar kabi xalq tomonidan yaratilgan"¹¹.

Rus xalq o'yinlari ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, ular qadim zamonlardan avloddan-avlodga o'tib, eng yaxshi milliy an'analarni o'zida saqlab qolgan va hozirgacha yetib kelgan,. Kechqurun qishloq ko'chasida yoki qishloq tashqarisida to'plangan o'g'il-qizlar raqsga tushishib, qo'shiqlar kuylab, tinimsiz yugurishdi. Oyoqlarida poyabzal kiyib o'ynashdi va epchillik bilan bellashdilar. Qishda o'yin-kulgi boshqacha xarakterga ega edi: tog'lardan chang'i uchish, qor to'pi yasab bir biriga uloqtirishdi. Qo'shiqlar va raqslar bilan qishloqlar bo'ylab otda sayr qilishdi. Barcha xalq o'yinlari uchun rus xalqining o'yin-kulgi va jasoratga bo'lgan muhabbati o'zgacha xarakterlidir"¹².

Ayniqsa, rus shahar va qishloqlarida "Sar za gorodom gulyaet" (Podshoh shahar tashqarisida yuribdi) (Bola "sar" (Qirol) eshikdan chiqadi. Qolganlari farmon qanday bo'lishidan qat'iy nazar rozi bo'lishadi: Moskvadan 8 marta o'pish (quchoqlash) uchun farmon keldi! Yoki hozir biz uchun raqsga tushing! Yoki 12 marta cho'ktiring! Va hokazo. Bolalar raqsga tushishadi va kuylashadi:

Qirol shahar tashqarisida yuradi – 2 marta, Malika Malika! – 2 marta. U kelinni tanlaydi – 2 marta, Malika Malika! – 2 marta.

Bu yerda turing, ta'zim qiling, – 2 marta, Malika Malika! – 2 marta. "Qirol" "Malika"ni tanlaydi va farmonni bajaradi"¹³.

"XOROVOD" (Dumaloq raqs) – slavyan xalqlari orasida keng tarqalgan tanish raqs o'yini. Dumaloq raqsda ko'pincha maxsus so'zlardan xususan, (ilon), devor (spiral), to'rt tomon (kvadrat) va halqa (doira) kabilardan foydalanib qo'shiq qilib ijro etishadi"¹⁴.

Aytish mumkinki, ushbu rus xalqining milliy o'yinlari bolalar uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning tabiiy asosidir. Xalq o'yinlarida bolalar chinakam ona tilida ijro etilgan ajoyib kuylarni uchratishlari mumkin. Ular bolani go'zallikka yaqinlashtiradi va ularning ongida mehr-muhabbat uyg'otadi. O'yinlarda chuqur axloqiy ma'no bor.

Bu borada rus tadqiqotchisi Ye.V. Yefimovning "O'yin – bu bolaning asosiy faoliyati, u orqali u atrofdagi dunyo haqida bilib oladi. O'yinlarda bola mehribon, mehnasevar bo'lishni, tabiatni, o'z ona yurtini sevishtni o'rganadi.

¹⁰ Сабирова Елена Викторовна. Картотека русских народных игр // <https://nsportal.ru/detskii-sad/vospitatelnaya-rabota/2022/11/28/kartoteka-russkih-narodnyh-igr>.

¹¹ Литвинова М. Ф. Русские народные подвижные игры: Пособие для воспитателя дет. сада / Под ред. Л.В. Русской. – М.: Просвещение, 1986. – 79 с. ил.

¹² <https://azbyka.ru/deti/>.

¹³ <https://muzruc.jimdofree.com/методический-материал/картотеки/картотека-русских-народных-игр/>

¹⁴ https://aleks-lib.vld.muzkult.ru/media/2019/10/29/1265876960/Zabavy_russkoj_stariny.pdf

O'yinlarda bola faoliyatiga bo'lgan chanqog'ini qondiradi, muvaffaqiyatsizliklarni yengish, ularni boshdan kechirish, o'zi va adolat uchun turish uchun aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'yin jismoniy tarbiya maktabidir. Bolalarda epchillik, aniqlik, tezlik va kuch rivojlanadi, doimiy jismoniy faollik paydo bo'ladi, bolalar o'z tanalarini mashq qiladilar"¹⁵.

¹⁵ Ефимова Е.В. Народные игры и их роль в приобщении детей дошкольного возраста к истокам русской народной культуры // <https://clck.yandex.ru/redirect/n...>



THE ROLE OF PRIVATE PROPERTY AND THE MIDDLE SOCIAL CLASS IN
THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY

Farmanova Rukhshona Hayatjon's daughter

Navoi State University "National idea, foundations of spirituality And legal education" direction 2 -
course student

Abstract: *In this article, the economic basis of civil society is a multi-level market economy based on private property. Therefore, it is analyzed the need to accelerate the process of formation of the middle class of owners in any country that strives to establish a civil society.*

Key words: *civil society, legal state, material wealth, middle class, classical traditions, entrepreneurship.*

Today, the study of civil society is of great interest not only to researchers, but also to practitioners in the state and non-state spheres. The attention paid by the state to the civil society increased the interest in it. It is known from the history of civil society that the role of the economic factor in its creation was extremely high. The roots of civil society in the literal sense can be seen on the basis of conflicting relations between the state and the class of owners.

From this point of view, in order to fully understand the civil society, a comprehensive understanding of its economic foundations is required. It is known that production relations based on various forms of ownership form the economic basis of the legal state. In a legal state, property belongs directly to producers and consumers of material wealth, and the individual producer is the owner of the product of his labor. The equality of production relations, the priority of law in all spheres, the continuous increase of the welfare of the society show the legality of the state.

The development of civil society requires the formation of values common to the entire society. In this case, the members of the society rely on the values specific to the community and a sense of mutual trust is formed between them, as a result of which a single moral foundation is created in the society. In this regard, the First President I. Karimov emphasizes that the strategic tasks of liberalizing society in all aspects are the result of a consistent long-term policy in Uzbekistan, a principled task of uniting all political and social forces for the establishment of a democratic state, civil society, and the formation of a market economy. However, if we look at the societies where market relations are developing, we can witness the continuous increase of various professional associations, from various groups, that is, from various ethnic groups. It goes without saying that each group has its own interests and goals. When the goals and interests of these groups collide in the conditions of civil society, this process does not lead to the disintegration of the society, but rather to its integrity.

It is known that scientists do not deny that private property and the middle class are of great importance for economic development and civil society. In other words, it is stated in many sources that there cannot be a full-fledged civil society without this layer. It is in

the conditions of Uzbekistan that a comparative analysis of the process of formation of such a layer and the development of civil society is required.

It is known that the formation of the middle class continues in our country. The number of middle class owners is increasing. At the same time, as a result of the measures implemented by the state, civil society is also being developed. From the point of view of the ideas developed in the classical doctrines of the emergence of civil society, there are several aspects that require attention. So, in the middle ages, when the middle class was formed and developed according to classical traditions, how does the civil society, which was created as a result of the conflict between the state and the middle class, develop in today's conditions? These and similar questions can be answered during the study of the economic foundations of civil society. It is known that private owners form the basis of a democratic society based on free market relations. Although private interest is unique to individuals and represents individual interests, common values are manifested in the events that occur in the relations of these private interests with each other and with the state. As the basis of the society is formed by representatives of the middle and small strata, the source of income and the main means of family life for the representatives of this section is economic activity based on private ownership. This is the intellectual property of private enterprises in the fields of industry, trade, agriculture, service, etc., rental land, real estate, income-bearing securities, interest-bearing currency, writers, poets, composers, inventors, scientific researchers, etc. consists of activities carried out on the basis of If this section is deprived of its main activity, it will lose not only income, but also a vital resource. Therefore, property owners take all necessary organizational and legal activities to protect their property. From this point of view, private property is shown as one of the main reasons for the emergence of civil society. It is on the basis of private property that social relations accelerate, and as a result, society becomes a powerful self-organizing system.

It is known that private property serves the overall economic development of the country by stimulating the entrepreneurial activity of individuals. To prove this, the Uzbek scientist M. Sharifkhojaev points out the following factors:

First, private property encourages prudent property management. In other words, owners are required to maintain their property and increase it, to work regularly to earn income, and to always be in search. Otherwise, the property may depreciate and eventually the owners may face a crisis. If attention to the property is high and it is regularly developed, the opportunity to increase the income will increase.

If the property belongs to the state or is jointly owned by a large group, the possibility of its full preservation diminishes. An example of this is the lack of management of state property during the former system. This can be seen in the deplorable condition of state-owned housing in developed countries.

Second, private property encourages people to increase their material capacity and use it effectively. The need to develop private property encourages people to improve their skills and work efficiently. It is for this reason that universities specializing in economics, especially business management, are the highest educational institutions in developed countries, and studying in them requires a huge amount of financial resources. There are



always jobs available for professionals who graduate from such institutions, and salaries increase steadily as experience increases.

Third, private owners act to use their resources for the benefit of others. After all, property that effectively serves others brings income. The fact that the property is useful to others increases its value and the status of the owner of the property. From this point of view, if the behavior performed by the owner is approved by the consumers, the value of the property will increase, on the contrary, if such behavior is not approved, the value of the property will decrease. As it can be seen, the state of the property also serves as a unique criterion in the civil society. In fact, although any owner works to increase his income, in the context of civil society, an entrepreneur first of all shows that he does not have this original intention, but that quality service to society is primary. In a civil society in the literal sense, the intention to earn a profit is of secondary importance. In a civil society in the literal sense, the intention to earn a profit is of secondary importance. It is important here that both the owners, the state and the society realize that entrepreneurship is important and necessary for the civil society.

Fourth, private property allows for rational use of resources for the future and their preservation. Owners try to balance the interests of the present and the future, not only for the present, but also for future changes and growth of income.

So, the economic foundations of civil society mean economic relations based on private ownership, which have an important place in social relations in society. In history, it was private property and the layer of owners that contributed to the development of civil society. To this day, this layer of owners remains an important factor accelerating not only the economy, but also social relations.

USED LITERATURE:

1. Problemy teorii gosudarstva i prava / Pod ed. V.S. Nersesyantsa. - M., 2009.
2. Sharifho'jaev M. Formation of open civil society in Uzbekistan. "Sharq", 2003. Pages 51-52.



Patxiddinova Xalima Mehriddin qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti 201-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola buyuk o'zbek shoirasi Zulfiya hayoti va ijodiy merosiga bag'ishlangan bo'lib, uning asarlari orqali yosh avlodni tarbiyalashda erishilgan yutuqlar yoritiladi. Zulfiya ijodiga bo'lgan e'tibor va uning o'zbek adabiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Yosh ijodkorlar uning ijodidan ilhomlanib, zamonaviy o'zbek adabiyotiga hissasi borligi ham yoritilgan. Maqolada Zulfiya izdoshlarining adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Zulfiya Isroilova, o'zbek adabiyoti, milliy g'urur, hamjihatlik, she'riyat, adolat timsoli, adabiy meros.

KIRISH

O'zbek she'riyati osmonida porlagan yulduzlardan biri bo'lgan Zulfiya o'zining nozik tuyg'ular va samimiy satrlarga boy asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning she'rlari faqat o'z davrida emas, balki bugungi kunda ham yoshlarga ilhom va ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari va yosh ijodkorlar uchun tashkil etilgan tanlovlar uning ijodiy merosini qadrlash va yosh avlodni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi amaliy ishlar qatoriga kiradi. Biz, Zulfiya izdoshlarimiz, buyuk shoira merosini davom ettirib, yangi asarlar yaratish orqali adabiy va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qilamiz.

Zulfiya Isroilova — o'zbek adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri. U 1915-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va yoshligidan she'riyatga bo'lgan qiziqishi bilan ajralib turgan. Uning ijodiy yo'li xalq hayotiga, sevgi, sadoqat va inson qalbining nozik his-tuyg'ulariga bag'ishlangan asarlar yaratish bilan boshlandi. Zulfiya o'z she'rlarida insoniyatni yaxshilikka chorlaydi, tabiatni sevishtga va uni asrashga undaydi. Shoiraning "Yurak", "Quyoshli qiz" va boshqa she'riy to'plamlari o'zbek she'riyatida o'ziga xos mavqega ega. U o'z asarlarida oddiy insonlarning dardini, orzu-umidlarini va hayotdagi murakkabliklarini chuqur his etib, badiiy usulda ifodalagan. Ayniqsa, Zulfiya ijodida ayol obrazlari va ularning jamiyatdagi o'rni haqida ko'plab mulohazalar uchraydi. U ayollarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yuksak baholagan holda, ularga o'z she'rlarida hurmat bajo keltiradi.

Zulfiya izdoshlarining ijodi milliy adabiyotimizning rivojlanishi va boyishiga beqiyos hissa qo'shmoqda. Yosh ijodkorlar, uning asarlaridan ilhom olib, bugungi kunning dolzarb mavzulariga e'tibor qaratmoqda.

Zulfiya ijodining markazida sevgi va tabiat turadi. U sevgi haqida yozgan she'rlarida insoniy tuyg'ularning samimiyligini, sadoqat va fidoyilikni tasvirlaydi. Shoiraning tabiat haqidagi she'rlari esa inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ulug'laydi. Zulfiya nafaqat go'zallikni tasvirlagan, balki uni asrab-avaylash zarurligini ham o'z asarlarida ta'kidlagan.



Zulfiya izdoshlari orasida adabiyotga yangi yo'nalishlar olib kirayotgan yosh shoir va shoirlar bor. Ular o'z asarlarida hayotning turli qirralarini yoritib, yangi davr ruhiyatini aks ettirishga intilmoqda. Bu jarayonda Zulfiya ijodining o'ziga xos namunaviy maktab ekanligi seziladi. Masalan, uning she'rlaridagi sevgi, tabiatga mehr va insoniyatga nisbatan hurmat tuyg'ulari yosh ijodkorlarning yangi asarlarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti yosh ijodkorlarni rag'batlantirish va ularning iste'dodini yuksaltirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu mukofotga sazovor bo'lgan yoshlar nafaqat ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritmoqda, balki Zulfiya izidan borib, uning merosini davom ettirishga intilmoqda.

Shuningdek, maktablar va universitetlarda Zulfiya ijodi doirasida turli tadbirlar o'tkazilib, yoshlar orasida uning asarlari o'rganilmoqda. Bu jarayon yosh avlodni ma'naviy va badiiy jihatdan boyitishga xizmat qilmoqda. Zulfiya merosi yoshlar uchun nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy maktab sifatida ham namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Zulfiya nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o'rin egallagan. Uning she'rlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan va xalqaro miqyosda e'tirof etilgan. Shoiraning insoniyatga bo'lgan muhabbati va adolatga intilishi jahon she'riyatining umumbashariy qadriyatlari bilan uyg'unlashib ketadi.

Xulosa

Zulfiya ijodi va uning izdoshlarining faoliyati o'zbek adabiyotining boy merosini saqlash va rivojlantirish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Uning she'rlari bugungi kun yoshlari uchun ilhom manbai bo'lib, ularga ijod qilishga, zamonaviy mavzularni yoritishga va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga yordam beradi. Biz, Zulfiya izdoshlarimiz, uning izidan borib, milliy adabiyotimizni boyitishda davom etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI:

1. Zulfiya (1965). Yurak. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Karimova, D. (2023). Zulfiya va yosh ijodkorlar. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
3. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (2023). Zulfiya nomidagi mukofot sovrindorlari haqida. Toshkent.
4. Abdug'afurova, N. (2022). O'zbek she'riyatida ayollar ovozi. Samarqand: Ilm ziyo.
5. Rahimova, M. (2021). Zulfiya ijodi va uning o'rganilishi. Buxoro: Adabiyotshunoslik instituti.
6. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi (2023). Zulfiya nomidagi tanlovlar haqida hisobot.



SANITARIYA QOIDALARI, NORMALARI VA GIGIYENA
NORMATIVLARIGA MOSLIKNING AHAMIYATI

Patxiddinova Xalima Mehriddin qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti 201-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarining ahamiyati, ularning inson salomatligini saqlash va epidemiyalarning oldini olishdagi o'rne ko'rib chiqiladi. Ushbu qoidalar tibbiyot muassasalari, jamoat joylari va ishlab chiqarish korxonalarida sog'lom muhitni ta'minlash uchun belgilangan. Maqolada bu me'yorlarga amal qilishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sanitariya qoidalari, gigiyena normativlari, salomatlik, ekologiya, tibbiyot muassasalari, sog'lom muhit, epidemiya.

KIRISH

Inson salomatligini saqlashda sanitariya qoidalari va gigiyena normativlariga amal qilish muhim rol o'ynaydi. Ushbu qoidalar odamlarning yashash joylari, ishlash sharoitlari va jamoat joylarida sog'lom muhitni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ayniqsa, jahon miqyosida yangi infeksiyalar va pandemiyalar xavfi ortib borayotgan bir paytda sanitariya va gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish zaruriy ahamiyat kasb etmoqda.

Sanitariya qoidalari bugungi kunda inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanitariya qoidalari turli muhitlarda sog'lom sharoitlarni ta'minlash uchun belgilangan me'yorlar majmuasidir. Bunga bino va inshootlarning tozaligini saqlash, ventilyatsiya tizimlarini o'rnatish, chiqindilarni to'g'ri boshqarish va suv resurslarini sanitariya talablari asosida ishlatish kiradi. Bu qoidalar ayniqsa tibbiyot muassasalari, maktablar, oziq-ovqat korxonalari va jamoat transportida muhim hisoblanadi.

Gigiyena normativlariga ham alohida to'xtalib o'tish zarur. Gigiyena normativlari shaxsiy va jamoat gigiyenasiga doir talablarni o'z ichiga oladi. Masalan, xodimlarning ishlash joyida shaxsiy gigiyenaga rioya qilishi yoki jamoat joylarida dezinfektsiya vositalaridan foydalanish kabi talablar. Gigiyena normativlariga amal qilish epidemiyalarni oldini olishda, ayniqsa yuqumli kasalliklar tarqalishini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Tibbiyot muassasalarida sanitariya va gigiyenaga alohida e'tibor qaratish kerak. Chunki tibbiyot muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyena normativlariga qat'iy rioya qilinishi shifoxona infeksiyalarini oldini olishda asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Bu me'yorlar jarrohlik xonalari, laboratoriyalar va statsionar bo'limlarda sog'lom muhitni ta'minlashga qaratilgan.

Ekologik va iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilish nafaqat sog'liqni saqlash tizimini yaxshilaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, kasalliklarning oldini olish orqali sog'liqni saqlash xarajatlari kamayadi.

Ekologik jihatdan esa chiqindilarni to'g'ri boshqarish orqali atrof-muhitga zarar yetkazishning oldi olinadi.

Xulosa

Sanitariya qoidalari va gigiyena normativlariga amal qilish sog'lom jamiyatni shakllantirishning asosiy shartidir. Bu qoidalar sog'liqni saqlash, ekologiya va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Kelajakda ushbu me'yorlarga rioya qilish madaniyatini kengaytirish orqali epidemiyalarni kamaytirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-gigiyena instituti (2023). Sanitariya qoidalari va normalari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Nurmatov, S. (2021). Gigiyena va epidemiologiya asoslari. Samarqand: Ma'naviyat nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2023). Sanitariya me'yorlari to'g'risidagi qonun hujjatlari. Toshkent: Adolat nashriyoti.
4. Karimov, N. (2022). Tibbiyot muassasalarida gigiyena va sanitariya. Buxoro: Ilm va taraqqiyot.
5. Matkarimov, O. (2023). Gigiyena normativlariga rioya qilishning iqtisodiy samarasi. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi Epidemiologiya markazi (2023). Jamoat joylarida sanitariya qoidalariga rioya qilish bo'yicha qo'llanma.



Hasanova Barnoxon Voxidjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Mediamenejment yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada XX asrning buyuk namoyondasi, jadidchilik harakatining qatnashchisi, "Turkiston jadidlarining otasi" unvoniga sazovor bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning vatani va xalqining ma'rifatli bo'lishi uchun yozgan asarlari, ularning mazmuni, ahamiyati, bugungi kundagi o'rni aks ettirilgan. Bizning ilmiy bo'lishimiz uchun qayg'urgan Mahmudxo'ja Behbudiyni hayoti va faoliyatini o'rganish har bir insonning burchidir.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiyni, "Risolai asbobi savod", "Kitobat ulatfol", "Tarixi islom", "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy", "Padarkush".

Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, publitsist, noshir Mahmudxo'ja Behbudiyni ilm-fan, xalqning ma'rifatli bo'lishi uchun, demokratik va farovon davlat barpo etish uchun umri davomida kurash olib bordi. Albatta, kurash deganda faqat qurol yordamida jang qilish emas, balki jaholatga qarshi ma'rifat orqali kurashish ham tushuniladi. Mahmudxo'ja Behbudiyni ham mustamlaka zulmida bo'lgan xalq va vatanini ma'rifatli qilish, ularni ilm olishlari uchun nafaqat yangi usul maktablari, balki asarlar, maqolalar, dramalar nashr ettirib, gazeta va jurnallarga asos soldi. Shunday asarlar qatoriga "Tarixi islom" (1909), "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Kitobat ulatfol" ("Bolalar xati", 1908), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Amaliyoti islom" (1908) "Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") kabilarni ko'rishimiz mumkin. Yoshlarning ilmiy bo'lishi uchun jadid maktablarga katta e'tibor bergan Mahmudxo'ja dastlab savod chiqarish uchun asar yozdi. "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi") nomida nashr ettirilgan bu asar tojik tilida bo'lgan. Nashr ettirishdan oldin Behbudiyni buni Shakuriy maktabida bir yil sinovdan o'tkazadi. Bir necha o'zgartirishlardan so'ng nashr ettiriladi. Asarning muqaddima qismida Behbudiyni bu asar orqali o'g'li Ma'sudxo'jani ham savodini chiqargani, shuningdek, Shakuriy ham o'quvchilarning savodlarini chiqarishda ushbu asardan foydalanligi va bu asar orqali savod chiqarish osonligini qayd etib o'tadi. Bu asar hozirgi kunda ham savod chiqarish usullarini o'rganish mumkin. Asar 1920-yillarga qadar Buxoro va Samarqandda asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyni yoshlar uchun muhim kitoblaridan biri "Kitobat ulatfol" asari bo'lib, ushbu asar o'zbek tiliga "Bolalar kitobi", "Bolalar uchun kitob", "Bolalar uchun yozuv kitobi" kabi bir necha ko'rinishlarda tarjima qilinadi. Ammo, Zaynobidin Abdurashidovning qayd etishicha, "kitobat" so'zi lug'atlarda "maktub", "xat", "bitik" degan ma'nolarni anglatadi. Shu jihatdan ham asarning nomini "Bolalar maktublari" deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Bu mazmunan ham to'g'ri keladi, chunki asarda bolalar uchun norasmiy, rasmiy, so'zlashuvga oid maktublar yozish o'rgatilgan va bolalar yozgan



maktublardan namunalar berilgan. Ushbu asar hozirgi kunda ham juda katta ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarning yozish ko'nikmasini oshirish, davlat organlariga murojaat etishda rasmiy usullardan foydalanish, rasmiy, norasmiy va boshqa xat turlarini yozishda nimalarga e'tibor berish kerakligini bilishiga yordam beradi. Shuningdek, insho, maqola kabilarni yozishda ham yoshlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy darajasi xoh oliy ma'lumotli, xoh o'rta maxsus bo'lsin har bir inson rasmiy va norasmiy shaklda yozma murojaat qilishni bilishi kerak. Asarda xat va maqolalar yozishda qaysi qoidalarga amal qilish kerakligi 18 modda bilan bayon etilgan. Barcha jaded namoyondalari tarix va geografiya sohalari rivojlantirishga ham katta e'tibor bergan. Xususan, islom dinining shaxs kamoloti va jamiyat rivojida o'rnini anglagan jadidlar tarix sohasida dastlab islom tarixiga oid kitoblar yozishga harakat

qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy 1909-yili, Abdulla Avloniy 1910-yili va Abdurauf Fitrat 1915-yili islom tarixiga oid asarlar nashr ettirdi. Bu asarlar yoshlarning ma'naviy rivojlanishida, vatanga sadoqat va muhabbat bilan tarbiyalashda, ilm egallashga bo'lgan zavqni oshirishda, vatanni mustamlaka zulmidan ozod qilib, mustaqil davlat tuzishga undashda ahamiyati kattadir. Bundan tashqari, geografiya

sohasi ham yoshlar uchun muhim ekanligini hisobga olib, jadidchilar bu sohada ham ko'plab asarlarni meros qoldirgan. Behbudiyning bu sohadagi asarlari ham ko'p bo'lib, hozir "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya") asariga to'xtalib o'tamiz. Asar Samarqanddagi G.I. Demurov bosmaxonasida 1906-yili nashr ettirilgan. Ushbu asarda "geografiya" so'zining ma'nosi, fanning kelib chiqish tarixi, masshtab, shu bilan birga, geografiyaning siyosiy geografiya, aholi geografiyasi, iqtisodiy geografiya kabi sohalari haqida, globus, geografik xaritalarning yaratilishi haqida ham ma'lumotlar berilgan. Behbudiy asarda geografiya sohasida turkistonlik olimlarning erishgan yutuqlarini qayd etib, "Turkistonlik donishmandlar" degan bob ajratadi. Ammo, yevropalik olimlarning ham ushbu sohadagi yutuqlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Mahmudxo'ja faqatgina shu asari bilangina cheklanib qolmadi, balki ushbu sohada "Risoi jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") aralarini ham yozadi. Biz ushbu asarlar orqali o'sha davrdagi geograf Olim Hoji Yunusovning faoliyati haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiyning eng mashhur asarlaridan biri "Padarkush" dramasi. Asar o'zbek adabiyotida yangi davrni boshlab berdi desak adashmagan bo'lamiz. O'zbek adabiyotida ushbu asar ilk dramadir. Asar 1911-yilda yozilgan bo'lishiga qaramay, 1913-yili "Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining 100 yillik yubileyi sanasiga ba'g'ishlanadi" degan vaj bilan Tbilisi senzurasidan o'tkazildi va nashr ettirildi. Ammo bir yildan keyin 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda sahna yuzini ko'radi, 27-fevralda Toshkentda Abdulla Avloniy asos solgan "Turon" teatr gruppasi tomonidan namoyish etiladi. 1914-yil 27-fevral o'zbek milliy teatriga asos solingan kun sifatida tarixga kiradi. Behbudiy "Milliy fojea" deb atagan ushbu asar 3 parda va 4 sahnadan iborat. Asarda johil, nodon, o'qimagan farzandning yomon yo'llarga kirib, o'z otasining qotiliga aylanganligi haqida hikoya qiladi. Ushbu asar orqali ilmsiz farzandlarning holati, ta'lim-tarbiyasiz mamlakatni rivojlantirib bo'lmazligi, shuning uchun ham otaonalar farzandlarni ilmiy qilish, ularni ilmga bo'lgan muhabbatini

oshirish kerakligini xulosa qilamiz. Dramada jaholatga qarshi kurashish, jinoyat va jazo, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlari o'sha davrdagi mustamlakachilik davrida va hozirgi kunda ham yoshlarning tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarlar yoshlarimizni ma'rifatli bo'lish, ota-naga, vatanga va ilmga bo'lgan muhabbatli bo'lish, ularni mustaqillikni ardoqlash, har doim taraqqiyot sari intilish, jaholat, qoloqlik kabi illatlardan qochishga undaydi. Mustaqillik yillarida ushbu asarlar juda ko'p nusxalarda nashr ettirildi. Shuningdek, Behbudiyning ilmiy faoliyati va hayoti chuqur o'rganilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiyni. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
2. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
4. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. – Toshkent: Universitet, 1999.



Yo'ldosheva Madina Alisher qizi

Guliston davlat pedagogika insitituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola milliy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanishi, rivojlanishi va avloddan avlodga o'tkazilishi masalalarini o'rganadi. Maqolada milliy qadriyatlarning hozirgi kundagi ahvoli, globalizatsiya jarayonlar va texnologik rivojlanishning, ularning saqlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish, ta'lim tizimida ularga berilgan ahamiyat va davlat siyosatidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Maqola ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalarida milliy qadriyatlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi va ularni zamonaviy jamiyatga moslashtirish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, globalizatsiya, zamonaviylik, madaniyat, ta'lim tizimi, ijtimoiy me'yorlar, davlat siyosati, an'analar, yosh avlod, madaniy meros.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы сохранения, развития и передачи национальных ценностей в современных условиях. В статье анализируется современное состояние национальных ценностей, влияние процессов глобализации и технологического развития на их сохранение. В статье также обсуждается передача национальных ценностей молодому поколению, значение, придаваемое им в системе образования, и их роль в государственной политике. В статье обозначены важные направления развития национальных ценностей в социальной, культурной и образовательной сферах и подчеркивается необходимость их адаптации к современному обществу.

Ключевые слова: Национальные ценности, глобализация, современность, культура, система образования, социальные нормы, государственная политика, традиции, молодое поколение, культурное наследие.

Annotation. This article examines the issues of preserving, developing, and transmitting national values in modern conditions. The article analyzes the current state of national values and the impact of globalization processes and technological development on their preservation. It also discusses the transmission of national values to the younger generation, their significance in the education system, and their role in state policy. The article highlights key directions for developing national values in social, cultural, and educational spheres and emphasizes the need to adapt them to contemporary society.

Keywords: National values, globalization, modernity, culture, education system, social norms, state policy, traditions, younger generation, cultural heritage.

Hozirgi kunda milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor va uni asrab avaylash har bir mamlakat uchum dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, o'z o'tmishini anglamay kelajak bunyod qilish naqadar mushkil ish ekanligi bilan izohlanadi. Haqiqatdan ham milliylik bir millatning butun o'tmishini, turmush tarzini, umuman olganda bir millatning tub negizini, mohiyatini o'zida jamlaydi. Milliy qadriyatlar har bir

xalqning madaniy va ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, ularning saqlanishi va rivojlanishi nafaqat xalqning tarixiy yodgorliklari, balki uning bugungi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining asosiy elementlaridan biridir. Milliy qadriyatlar jamiyatda axloqiy, estetik va ijtimoiy me'yorlarni shakllantiradi va bu me'yorlar xalqlarni birlashtirib, ularning birdamligini ta'minlaydi. Biroq, globalizatsiya va zamonaviy texnologik o'zgarishlar milliy qadriyatlarning hozirgi kundagi ahvoli, ularning o'zgarishlarga qanday javob berishi va zamonaviy jamiyatdagi roli dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Maqolada milliy qadriyatlarning hozirgi kundagi saviyasi, globalizatsiya jarayonlarining ularga ta'siri, ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni qanday o'rganish va yosh avlodga yetkazish, shuningdek, davlat siyosatidagi milliy qadriyatlarning o'rnini tahlil qilinadi.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari, internet va axborot texnologiyalarining keng tarqalishi milliy qadriyatlarni yangi shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratadi. Biroq, bu jarayon milliy qadriyatlarning kamayishiga yoki o'ziga xosligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda milliy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishi uchun muhim omil ularning global va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Shunday qilib, milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy yodgorliklari, balki zamonaviy hayotga moslashtirilgan, yangi shakllarga ega bo'lgan madaniy va ijtimoiy normadir.

Milliy qadriyatlarning hozirgi kundagi saviyasi, ularning o'zgaruvchan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashish darajasi, jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni aks ettiradi. Boshqa tomondan, globalizatsiyaning ta'siri bilan milliy qadriyatlar yanada kengroq jahon miqyosida tanilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida xalqning madaniy indentifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Milliy qadriyatlarning avlodlardan avlodga o'tkazilishi ta'lim tizimi va madaniyatning rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Yosh avlodga milliy qadriyatlarni singdirish, ularga milliy madaniyatni, tilni, adabiyot va san'atni o'rgatish, zamonaviy pedagogika va ta'lim metodlaridan foydalanish zaruriyati mavjud. O'zbekiston kabi mamlakatlarda, milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun madaniy markazlar va ta'lim muassasalarining roli juda muhimdir.

Milliy qadriyatlarni o'rganish, ular haqida bilimlarni oshirish va yosh avlodlarga yetkazish uchun maxsus kurslar, seminarlar va madaniy tadbirlar tashkil etilishi zarur. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, milliy qadriyatlarni zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar ijtimoiy hayotda o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbekistonda mehnat qadri, oilaviy munosabatlar, hurmat va ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar hali ham kuchli o'ringa ega. Biroq, bu qadriyatlarning zamonaviy sharoitda qanday yangilanib borishi va ijtimoiy normalar bilan ko'proq fikrlar mavjud. Zamonaviy hayotda oilaviy qadriyatlar, yoshlar o'rtasidagi munosabatlar, gender tenglik masalalari kabi o'zgarishlarni hisobga olish zarur.

Milliy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rnini ularning ijtimoiy me'yorlar bilan qanday uyg'unlashishi, madaniy va axloqiy tamoyillar asosida qanday ijtimoiy institutlar qurilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, jamiyatda milliy qadriyatlar asosida mustahkam ijtimoiy tuzilma yaratish zarur.



Milliy qadriyatlarning rivoji va saqlanishi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro festivallar, milliy san'at asarlarini targ'ib qilish, madaniyat markazlari tashkil etish kabi tashabbuslar milliy qadriyatlarni jamiyatga keng tanitish va ularni saqlashga xizmat qiladi.

Davlatning ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni o'rganish, ularga beriladigan ahamiyatni oshirish, madaniyatni targ'ib qilish orqali bu qadriyatlarni zamonaviy jamiyatga moslashtirish mumkin.

Milliy qadriyatlar har bir xalqqa xos bo'lgan madaniy, ijtimoiy va axloqiy me'yorlar bo'lib ularning saqlanishi jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga asos bo'ladi. Globalizatsiya, texnologik rivojlanish va ijtimoiy o'zgarishlar milliy qadriyatlarning shaklini o'zgartirishi mumkin, lekin bu jarayonni to'g'ri boshqarish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy hayotga moslashtirish zaruriyati mavjud. Milliy qadriyatlarni avlodlararo o'tkazish, ularga ta'limda e'tibor qaratish va davlat siyosatida himoya qilish orqali milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy meros, balki jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omil sifatida davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Hamidov,M.(2020).Milliy qadriyatlar va globalizatsiya: O'zbekistondagi tajriba.Toshkent: Fan nashriyoti.
- 2.Tursunov,A.(2018).O'zbekistonning milliy madaniyati va zamonaviylik.Toshkent:O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
- 3.Jurayev,D.(2019).O'zbek xalqining qadriyatlarning yosh avlodga ta'siri.Toshkent: Sharq nashriyoti.
- 4.Smith,J.(2017).The Impact of Globalization on National Culture:A Comparative Study.Journal of Global Studies,15(4)223-240.
- 5.Klein,H.(2020).Cultural Hertage in the Age of Technology:Challenges and Opportunities.The Hertage Review,32(6),98-112.
- 6.Evans,R.(2023).The Role of National Traditions in Shaping Global Societies.The Guardian,July 15,2023.



НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ ДЛЯ СТРАН С ДОЛГОЖИТЕЛЯМИ

SCIENTIFIC DESCRIPTION OF COUNTRIES WITH LONG-LIVING POPULATIONS

Утепова Г.Б
Махсетбаев Н.Б.

*Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза.
Узбекистан*

Аннотация: Эта статья ориентирована на сравнительную оценку с научной точки зрения возможностей и причин долгожительства народов, проживающих в разных странах.

Ключевые слова: Демографическая политика, возраст долгожителей, показатели рождаемости и смертности, здравоохранение, пандемии, инфекционные заболевания и санитария-гигиена.

Abstract: This article is aimed at a comparative assessment from a scientific perspective of the possibilities and causes of longevity among people living in different countries.

Key words: Demographic policy, longevity age, birth and death rates, healthcare, pandemics, infectious diseases, and sanitation-hygiene.

На сегодняшний день ООН (Организация Объединенных Наций) и организации, работающие по "Народоведению," предоставляют новую информацию о народах, живущих в странах с наибольшей продолжительностью жизни. Согласно данным, в 2024 году мужчины, живущие долго на земле, составят 71,3 года, а женщины - 74,6 года. Следовательно, этот показатель в среднем составляет 72,9 года. Также, по расчетам Всемирной организации здравоохранения, в 2024 году средний возраст наибольшего ожидания жизни составил 89,5 лет, а средний возраст наименьшего ожидания жизни - 53,6 лет. Данные существенно различаются в разрезе регионов и стран. Например; В Западной Африке продолжительность жизни составляет 58 лет, а в Западной Европе 83 года. В период с 2000 по 2016 год этот показатель увеличился на 5,5 года, а в некоторых регионах Африки - на 10 лет в свою очередь, это происходит в результате вакцинации детей в возрасте от 5 до 9 лет против различных заболеваний. В целом продолжительность жизни увеличивается. Согласно информации, опубликованной на сайте "World Population Review," продолжительность жизни в основном влияет на 3 фактора:

- ❖ генетические особенности;
- ❖ половые особенности;
- ❖ особенности образа жизни.

Согласно данным ООН и информации с сайта dzen.ru, в 2024 году Монако было признано регионом с самым высоким уровнем долгожительства. Средняя



продолжительность жизни в этой стране составляет 87,5 лет: для женщин — 90 лет, для мужчин — 85,1 года. Монако, расположенное на побережье Лигурийского моря, является небольшим государством, соседствующим с Францией. Его население насчитывает более 36 000 человек, а площадь территории составляет 2,02 км². Страна известна своим знаменитым казино в Монте-Карло и Гран-при Монако Формулы-1. Эксперты связывают долгожительство в Монако с несколькими факторами: во-первых, с влиянием дельты Средиземного моря, которая обеспечивает доступ к морепродуктам, фруктам и овощам; во-вторых, с высоким уровнем финансирования системы здравоохранения; в-третьих, с тем, что большинство граждан, обладая значительным доходом, могут позволить себе дополнительные медицинские услуги и поддержание здорового образа жизни.

Второе место в рейтинге занимает Гонконг, средняя продолжительность жизни для мужчин составляет 83,0 года, а для женщин - 88,6 года. В Гонконге имеется очень высокий уровень качественного образования, полное обеспечение населения работой, качественные медицинские услуги, особенно для матерей и детей, а также самые низкие показатели младенческой смертности в мире. В стране оказывается большая материальная помощь слоям населения, нуждающимся в здравоохранении и социальной помощи.

В Японии причины долгой жизни (для мужчин 82 года, для женщин почти 88 лет) занимают основное место в продовольственном рационе местного населения многочисленные фруктовые и бахчевые культуры, мясные и рыбные продукты, а также многочисленные зерновые продукты. Кроме того, правительство Японии более 50 лет выделяло большие средства на здравоохранение. Это, в свою очередь, стало толчком к созданию надежных программ для здоровья детей и открытию новой системы медицинского страхования. Японские пожилые граждане формировали у себя быстрый и активный образ жизни.

Еще одной страной с лучшим показателем рейтинга является Лихтенштейн. Княжеством считается человек, занимающий территорию в 160 км². Средняя плотность населения составляет 39000 человек на 1 км². В этом государстве средняя продолжительность жизни населения составляет 84.9 лет, тогда для мужчин - 83 года, а для женщин - 85 лет. Государство обеспечит высокие доходы и хороший уровень жизни населения, а гражданам будут оказывать бесплатные медицинские услуги.

В Швейцарии преобладают женщины старше 86 лет и мужчины старше 82 лет. Продолжительность долголетия в стране увеличилась в два раза по сравнению с первой половиной XX века. Такие положительные показатели, быстрый и комфортный образ жизни, потребление молока и молочных продуктов, а также качественных кондитерских изделий хорошо налажены. Швейцария, по сравнению с другими странами Европейского Союза, расходует на здравоохранение высокий процент валового внутреннего продукта, и в этом регионе большое внимание уделяется профилактике.



К 2023 году в Сингапуре продолжительность жизни достигла 82,1 года у мужчин и 86,0 года у женщин. Сингапур имеет очень низкие показатели смертности младенцев, дорожно-транспортных происшествий (автоаварий) и загрязнения воздуха. Также в Сингапуре низкий уровень смертности от сердечно-сосудистых заболеваний и хронических респираторных заболеваний. Основной причиной низких показателей заболеваемости и смертности является потребление чистой питьевой воды, высокое внимание к качественному питанию и гигиене.

В Италии мужчины живут в среднем 82 года, женщины - 86 лет. В последние годы эти показатели все более снижаются, поскольку более 8% населения ведет низкий образ жизни. В экономически развитой северной части страны продолжительность жизни населения на 3 года выше.

Средняя продолжительность жизни мужчин в Южной Корее составляет 81 год, а женщин — 87 лет. В 1960 году средняя продолжительность жизни в стране была всего 52 года. Улучшение системы здравоохранения и социального обеспечения, а также обеспечение населения качественными продуктами питания способствуют увеличению этой цифры. Согласно недавним исследованиям, проведенным Великобританией и Всемирной организацией здравоохранения, Южная Корея в ближайшие годы может стать страной с самой высокой продолжительностью жизни в мире. К 2030 году женщины в Южной Корее будут первыми, кто доживёт до 90 лет. Южнокорейцы уделяют большое внимание своему здоровью, и ежегодно государственные и частные компании предоставляют своим сотрудникам выходные для прохождения комплексного медицинского осмотра. Эти дни они воспринимают как праздник, так как ценят своё здоровье.

Если в Австралии, Швеции, Норвегии, Франции, Новой Зеландии и Канаде средний возраст населения составляет 83 года, то в Исландии, Нидерландах, Финляндии, Австрии, Великобритании и на Кипре средний возраст долголетия превышает 82 года. В таких странах, как Дания, Греция, Германия, Мальдивы и Бермудские острова, средний возраст жизни составляет 80 лет. Ему исполнилось 80 лет в Китайской Народной Республике, Турции и США. В Объединенных Арабских Эмиратах средний возраст жизни составляет 79 лет. Грузия - 77 лет, Армения и Аргентина - 76 лет, Россия и Узбекистан - 75 лет, Литва, Сербия, Азербайджан и Беларусь - 74 года, Украина - 73 года, Казахстан, Кыргызстан и Туркменистан - 72 и Таджикистан - 69 лет.

Следовательно, во всех упомянутых выше странах продолжительность жизни женщин значительно выше среднего показателя.

Хотя страны с наименьшей продолжительностью жизни находятся на африканском континенте, Чад, Нигерия и Лесото имеют более длительную продолжительность жизни по сравнению с другими странами, где средний возраст жизни составляет от 53,6 до 54,9 лет. В большинстве стран Африки до сих пор сохранились голод, болезни, а также болезни, забытые в других регионах мира, в большинстве стран континента средний возраст жизни остается до сих пор низким из-



за низкого иммунитета к болезням среди населения. Корь, холера и другие заболевания очень широко распространены среди населения. С 2000 года в этих странах широко ведутся работы по лечению ВИЧ и малярии. Пандемия COVID-19 оказала негативное влияние на многочисленные народы, проживающие на континенте.

В соответствии с программами мировых организаций здравоохранения в Республике Узбекистан большое внимание уделяется здоровью населения. В частности, регулярно проводится профилактика младенческой и младенческой смертности, вакцинация против различных инфекционных заболеваний. Об этом в соответствии с постановлениями Главного управления Государственного санитарно-эпидемиологического надзора Республики Узбекистан от 25.07.2017 г. № 0239-07/3 и Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28.03.2020 г. № 187 в республике ведется постоянный контроль за охраной здоровья детей и охраной их здоровья государством¹⁶. Основной целью этих мероприятий является ведущая демографическая политика в масштабах страны, проводимая на пути к здоровой и долгой жизни, счастливой жизни граждан Республики Узбекистан.

На основе проведения нашим правительством разумной демографической политики, согласно расчетам Управления статистики Узбекистана в 2024 году, было определено, что средний возраст жизни населения в нашей стране составляет 75 лет. Данный показатель растет параллельно со средним возрастом жизни населения развитых стран. С каждым годом проводится значительная работа по улучшению жизни и повышению здоровья нашего народа. В частности, народ является основным богатством и опорой каждого государства.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-martdagi "Aholi salomatligini muhofaza qilish yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tog'risida"gi 187-son qarori

² www.visasam.ru Николай Шувалов Продолжительность жизни в мире по странам в 2023-2024 году

³ www.dzen.ru Рейтинг продолжительности жизни по странам на 2024 год

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-martdagi "Aholi salomatligini muhofaza qilish yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tog'risida"gi 187-son qarori



DAVLAT XARIDLARI SOHASIDAGI SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH
TARTIBI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, "Iqtisodiy fanlar" kafedrası katta
o'qituvchisi

Suyunov Sherzod Sindarovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat xaridlarini tartibga solish va davlat xaridlari bo'yicha shikoyatlarni berish hamda ko'rib chiqish masalalari yoritilgan. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya tuzish tartibi, uning vakolatlari va vazifalari tahlil qilingan. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, elektron tizimi, shikoyatlar, davlat buyurtmachisi, arizachi, insofsiz ijrochilarning yagona reyestri, xarid komissiyasi, ishchi organi.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы регулирования государственных закупок, а также подачи и рассмотрения жалоб по вопросам государственных закупок. Проанализирован порядок создания комиссии по рассмотрению жалоб в сфере государственных закупок, ее полномочия и задачи. Изучены решения, принятые комиссией по рассмотрению жалоб в сфере государственных закупок в пределах ее полномочий.

Ключевые слова: государственные закупки, электронная система, жалобы, государственный заказчик, заявитель, единый реестр недобросовестных исполнителей, закупочная комиссия, рабочий орган.

Abstract: This article covers the issues of regulation of public procurement and filing and consideration of complaints regarding public procurement. The procedure for creating a commission for considering complaints in the field of public procurement, its powers and tasks have been analyzed. The decisions made by the commission on the review of complaints in the field of public procurement within its powers have been studied.

Key words: public procurement, electronic system, complaints, state customer, applicant, single register of dishonest executors, procurement commission, working body.

KIRISH

AQSH yoki Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi bozor iqtisodiyoti asoslari allaqachon shakllangan iqtisodiy rivojlangan ko'plab mamlakatlarda davlat xaridlari tizimi davlat boshqaruvining, ayniqsa, budjet mablag'larini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida davlat xaridlari sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, shuningdek davlat



xaridlarining shaffofligini ta'minlovchi va ularga doir ma'lumotlardan erkin foydalanish imkonini beruvchi elektron davlat xaridlari tizimi amaliyotga joriy etildi.

Shu bilan birga, davlat xaridlari jarayonini yanada soddalashtirish va ularni to'liq raqamlashtirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratini hamda raqobat muhitini yanada kuchaytirish orqali tadbirkorlik subyektlarining ishtiroki kengaymoqda.

Davlatimiz Rahbari tomonidan 2024-yilning 16-yanvarida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda Hisob palatasiga Davlat byudjeti mablag'lari ustidan nazorat tizimi qat'i tanqid qilindi hamda uni takomillashtirish yuzasidan bir qator vazifalar yuklatildi.¹⁷ Ushbu farmonga ko'ra davlat xaridlari nazoratini tartibga solish bo'yicha bir qator tadbirlar va amalga oshirish mexanizmi dastur tarzida tartibga solindi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xaridlarini sifatli va uzluksiz o'tkazishga to'sqinlik qiladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish bilan bog'liq davlat xaridlari sohasidagi huquqni qo'llash amaliyoti tahlilini doimiy ravishda o'tkazib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Rivojlangan g'arb mamlakatlarida davlat xaridlarini tashkil etishda qo'llaniladigan boshqaruv texnologiyasi shakli ko'pincha procurement (xaridlar) deb ataladi. O'zbek tilidagi "xarid" termini (inglizchada, procurement) «sotib olish» ma'nosi bilan bir ma'noda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services). Tadbirkorlik lug'atida quyidagi ta'rif berilgan: "xarid - bu davlat xaridlarini tashkil etish, obyektlarni ijaraga berish, tanlov savdolarida davlat buyurtmalarini taqsimlash, tartiblarni ratsionalizatsiya qilish va qulaylashtirish uchun imtiyozlar berish jarayonida qo'llaniladigan amaliy usullar va yo'llar, shuningdek ularni ishtirokchilar uchun, adolatni saqlash, korrupsiyaning oldini olish vositalari majmuidir"¹⁸.

Xalqaro miqyosdagi ta'riflarga e'tibor qaratsak, Jahonda davlat xaridlarinig shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim hujjati 1994-yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida (UNCITRAL - United Nations Commission on International Trade Law) qabul qilingan Namunaviy "Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida" Qonuni hamda 2011-yil 09-dekabr kunidagi 82-yalpi majlisida BMT Bosh Assambleyasining 66/95 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasining "Ommaviy xaridlar to'g'risida"gi namunaviy qonuni mavjud xaridlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda davlatimizga katta yordam beradi va uyg'un xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga olib keladi.

¹⁷. 2024-yil 10-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-100 sonli farmoni.

¹⁸. Вестник РУДН, серия Экономика, 2013, № 5. 118-127 с.



Unda quyidagi ta'rif berilgan – "Xaridlar" yoki "ommaviy xaridlar" sotib oluvchi tashkilot tomonidan tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olishni anglatadi"¹⁹.

Ko'plab iqtisodchi olimlar asarlarida Davlat xaridining mohiyatini, tamoyillari, shakllari va uslubiy yechimlarini tadqiq qilganlar. Davlat xaridlari bo'yicha nazariy, uslubiy, amaliy yo'nalishlari xorijlik olimlar S.Arrowsmith, S.Treumer, J.Fej, L.Jiang, K.V.Thai, P.Wang, P.Bolton, Yu.Il'ina, N. Dimitri, G. Piga, Dj. Spanolo, V.A.Fedorovich, Dj. Edler, M. Falagario, G. Uolker, S. Brammer, Dj. Reymond, T.V.Frayberg tadqiqotlarida, postsovet va MDX olimlari O.V.Ponomaryova, V.N.Kiselyova, V.I.Abramov, V.I.Kuznetsov, I.I.Smotritskaya, V.V.Melnikov, L.V. Andreyeva, Galanov V. A., Grishina O. A., Shibaev S. R., V.Ye.Belov, L.M.Davletshina, L.G.Karanatova., N.A.Prodanova, E.I.Zatsarinnaya, A.B.Barixin, A.V.Moskalyova, O.Sizonenko ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarining jabhalari M.G.Muminov, A.Vahobov, N.Jumayev, N.Haydarov, G.Qosimova, M.Olloyorov, D.Xolmuradov, T.Atamuradov, U.Burxanov, U.O'roqov, G.Raximova, R.A.Nabiyev va R.K.Ariqbayev kabilarning ilmiy asarlarida chuqur o'rganilgan.

2018-yilda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va 2021-yilda Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi bilan ochiqlik, shaffoflik va raqobatga asoslangan Davlat xaridlari tizimi ancha mukammallashtirildi hamda asosiy tushuncha sifatida "Davlat xaridlari – davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayonidir"²⁰ deb belgilangan.

Tahlil va natijalar

Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari (O'RQ-684-son, 16-moddaga asosan) quyidagilardan iborat:

- davlatning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish;
- davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini va boshqa davlat dasturlarini bajarish;
- davlatning ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo'yicha funksiyalarini bajarish;
- davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun davlat xaridlari subyektlariga qulay muhitni shakllantirishdan, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga qarshi kurashishdan iborat.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni vakolatli organ tomonidan adolatli, tezkor va samarali ko'rib chiqish maqsadida (O'RQ-684-son, 78-moddaga asosan) doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan komissiya tuziladi, uning tarkibi tegishli davlat organlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari va jamoatchilik vakillaridan iborat bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

¹⁹. BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 1994-yil 27-sessiyasida (UNCITRAL - United Nations Commission on International Trade Law) qabul qilingan Namunaviy "Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida" Qonuni.

²⁰. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni.



Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni doimiy ravishda ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga kelib tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktorining 2018-yil 1-maydagi "Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 180-son buyrug'iga

Vakolatli organ Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning ishchi organi bo'lib, uning faoliyatini tashkil etadi²¹

Har bir ishtirokchi, shuningdek nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar davlat buyurtmachisining, xarid komissiyasining, uning a'zolarining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, agar bunday harakatlar (harakatsizlik) ishtirokchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan bo'lsa, sud tartibida yoki ushbu bobda belgilangan tartibda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga shikoyat qilish huquqiga ega.

Davlat xaridlari natijasida tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish doirasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklarni tartibga solish masalalari Komissiya tomonidan ko'rib chiqilmaydi va qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya (O'RQ-684-son, 79-moddaga asosan) shikoyatni qabul qilib olganda shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida shikoyat haqida davlat buyurtmachisini xabardor qiladi hamda xarid qilish tartib-taomilini o'n ish kunigacha bo'lgan umumiy muddatga to'xtatib turadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya shikoyatni davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida ko'rib chiqadi, bundan ishtirokchi shikoyatni uning ishtirokisiz ko'rib chiqishga rozilik bildirgan yoki uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan hollar mustasno.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya shikoyat olinganidan keyin yetti ish kuni ichida u bo'yicha qaror chiqarishi va bu haqdagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirishi shart.

Ishtirokchining shikoyati asosli deb topilgan taqdirda, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya quyidagi choralarni ko'rishi mumkin:

- davlat buyurtmachisining qonunga xilof harakatlariga, qarorlariga yoki u tomonidan qonunga xilof tartib-taomillar bajarilishiga doir taqiq belgilash;
- davlat buyurtmachisining qonunga xilof qarorlarini, shu jumladan davlat xaridlari sohasidagi hujjatlarning shartlarini buzadigan qarorlarini qisman yoki to'liq bekor qilish;
- xarid qilish tartib-taomillarini tugatish haqida qaror chiqarish;
- ijrochini Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritish.

Komissiya raisi o'z vakolatlari doirasida:

- Komissiya faoliyatini va uning ish tartibiga rioya etilishini tashkil etadi;

²¹.O'roqov U.Yu., Shadmanov E.Sh., Bababekova D.Sh. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – T.: JXU, 2022. – 208 b.



- shikoyatlarni ko'rib chiqish kunini belgilaydi va Komissiya majlisini o'tkazadi;
- Komissiya a'zolari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;
- Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan nazoratni tashkil etadi;
- Komissiyaning faoliyati to'g'risida davriy hisobotlar tayyorlaydi va uni maxsus axborot portalida e'lon qiladi.

Komissiya raisi komissiyaga yuklatilgan vazifalarni bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

Komissiya raisining o'rinbosari va Komissiya a'zolari o'z vakolatlari doirasida:

- Komissiya ishida ishtirok etadi;
- qaror qabul qilishdagi ovoz berishda ishtirok etadi;
- Komissiya raisining topshirig'i bo'yicha Komissiya ko'rib chiqishi uchun kiritilgan masalalar yuzasidan tegishli xulosalar taqdim etadi;

- davlat boshqaruvi va xo'jalik organlaridan, davlat buyurtmachilaridan, ishtirokchilardan, ijrochilardan, Operatorlardan va boshqa tashkilotlardan o'z faoliyati uchun zarur bo'ladigan har qanday axborot, material va tushuntirishlarni so'rab oladi;

- davlat xaridlari masalalari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Komissiya zarur holatlarda mutaxassislarni mustaqil ekspert sifatida ovoz berish huquqisiz jalb qilish huquqiga ega.

Komissiya majlislari, agar ularning ishida Komissiya a'zolarining umumiy sonining uchdan ikki a'zosi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Komissiya kun tartibiga kiritilgan masalani ko'rib chiqish jarayonida Komissiya raisi, uning o'rinbosari yoki Komissiya a'zosi o'zlarida manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik yuzaga kelgan holatda, Komissiya raisi, uning o'rinbosari yoki Komissiya a'zosi yig'ilish boshlanishidan oldin bu haqda ma'lum qilishga majbur.

Bu holatda manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorligi yuzaga kelgan Komissiya raisi, uning o'rinbosari yoki Komissiya a'zosi ko'rsatilgan masalani ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etmaydi.

Komissiya majlislari, majlis bayonnomalarida rasmiylashtiriladi.

Komissiyaning ishchi organi:

- Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallarni o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

- maxsus axborot portalida Komissiya a'zolari uchun shaxsiy kabinetlar ochadi;
- Komissiya hujjatlarini but saqlanishini ta'minlaydi;
- shikoyatni Komissiya a'zolarining shaxsiy kabinetlariga yuboradi;
- navbatdagi majlisga barcha zarur hujjatlarni yig'ilishini, umumlashtirilishini va Komissiya raisiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

- Komissiyaning qarori asosida ijrochilarni Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritadi;

- Komissiya majlisi bayonnomasini yuritadi.



Komissiyaga arizachidan shikoyat tushgandan va uni ko'rib chiqish sanasi tayinlangandan so'ng, Komissiyaning ishchi organi belgilangan tartibda majlisni o'tkazish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Shikoyatlarni berish tartibi. Arizachi shikoyatni Komissiyaga yozma shaklda yoki o'zining shaxsiy kabinet orqali elektron shaklda yuboradi. Shikoyatga unda ko'rsatilgan holatlarni tasdiqlovchi dalillar ilova qilinadi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi. Komissiya shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etadigan shaxslarni maxsus axborot portali orqali yig'ilish vaqti va joyi to'g'risida xabardor qiladi. Komissiya shikoyatni buyurtmachi va ishtirokchining ishtirokida ko'rib chiqadi, bundan ishtirokchi shikoyatni uning ishtirokisiz ko'rib chiqishga rozilik bildirgan yoki uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan hollar mustasno.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha majlisda ishtirok etish uchun, taraflar belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirib, o'zlarining vakillarini yuborishlari mumkin.

Komissiyaning majlislari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan o'tkazilishi mumkin.

Komissiya shikoyatni qabul qilib olganda shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida shikoyat haqida buyurtmachini xabardor qiladi hamda xarid qilish tartib-taomilini o'n ish kunigacha bo'lgan umumiy muddatga to'xtatib turadi.

Arizachining shikoyatida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- a) nomi, joylashgan yeri (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi, turgan joyi (jismoniy shaxs uchun), pochta manzili, elektron pochta manzili, telefon raqami;
- b) shikoyat qilinayotgan harakatlar (harakatsizlik) va shikoyatning boshqa asoslari;
- v) shikoyat berishga vakolatli shaxsning imzosi va sana.

Shikoyatga uning asosligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Bunda, shikoyatda unga ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati bo'lishi kerak, shuningdek taraflarga shikoyatning nusxalari yuborilganligi tasdig'i bo'lishi kerak.

Komissiya shikoyatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish jarayonida maxsus axborot portalida yuritiladigan ishtirokchilarning reytingidan foydalanishi mumkin.

Komissiya shikoyat olinganidan keyin yetti ish kuni ichida u bo'yicha qaror chiqarishi va bu haqdagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirishi kerak.

Shikoyat bo'yicha qaror Komissiya a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Komissiyaning har bir a'zosi qabul qilingan qaror bo'yicha o'zining alohida fikrini yozma bayon etishga haqli.

Komissiya yangi ochilgan holatlar asosida avval qabul qilingan qarorlarini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Komissiya majlislari qarorlarining asl nusxalari va ularga ilova qilingan materiallar Komissiyaning ishchi organida saqlanadi.

Komissiyaning ishchi organi qaror nusxalarini qaror qabul qilingan kundan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida taraflarga yuboradi.



Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat xaridlarining barcha subyektlari tomonidan ijro etilishi shart majburiydir. Komissiya majlisi bayoni va qarori elektron shaklda rasmiylashtiriladi, Komissiya raisi va a'zolari tomonidan elektron raqamli imzo orqali imzolanadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya o'z faoliyatini Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Ijrochi Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, taraflar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek affillanganlik mavjud bo'lgan taqdirda, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga mazkur komissiya a'zosining manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya bunday a'zosining mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar qaror qabul qilinganidan keyin Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek affillanganligi mavjudligi to'g'risida ma'lum bo'lib qolsa, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning bunday a'zosi ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi²²

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda davlat xaridlarini shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlash zarurati yanada oshmoqda. Davlat xaridlari bo'yicha shikoyatlarning kelib chiqish omillarini kamaytirish, shikoyatlar tushishini davlat darajasida tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat xaridlari bo'yicha shikoyatlar kelib tushishini oldini olish muhim, chunki bu jarayon shaffoflikni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va savdolar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Quyida bunda ko'maklashuvchi bir nechta takliflar keltirilgan:

1. Shikoyatlarning ko'payishi: Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlar ko'plab holatlarda korrupsiya, noaniqlik, shaffoflikning yetishmasligi va natijada jarayonning ishonchliligi pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa davlat byudjetining samarali ishlatilmasligi, sifatli xizmat yoki mahsulot olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi.

²² O'RQ-1005-sonli Qonuni 79¹-modda.



2. Normativ-huquqiy asoslar: O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari sohasida shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ayrim huquqiy mexanizmlar mavjud. Biroq, ularning samaradorligi ba'zan shubhali bo'lishi mumkin, chunki ba'zi holatlarda jarayonning ochiqligi va samimiyligi yetishmaydi.

3. Jamoatchilik ishtiroki: Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonida jamoatchilik va mustaqil ekspertlar ishtirokining yetishmasligi ba'zan jarayonlarning samarasizligi va noaniqlikka olib keladi. Bu esa shikoyatlarning to'g'ri va tezkor hal qilinishiga to'sqinlik qiladi.

4. Shikoyatlarni ko'rib chiqishning mustahkam huquqiy asoslarini yaratish: Davlat xaridlari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqishda ishonchlilik va shaffoflikni ta'minlash uchun qonun hujjatlarida o'zgartirishlar kiritish zarur. Shikoyatlar bo'yicha qarorlar chiqarilishining eng yuqori darajada mustahkam huquqiy asosga ega bo'lishi, bunda shikoyatlarni ko'rib chiqishning aniq tartibi, muddatlari va javobgarlikni belgilash muhimdir.

5. Shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiyalar tashkil etish: Shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonini mustaqil ekspertlar va jamoatchilik vakillaridan iborat komissiyalar amalga oshirishi kerak. Bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga yordam beradi va qarorlar yuzasidan ishonchni oshiradi.

6. Onlayn platformalar yaratish va raqamlashtirish: Shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonini raqamlashtirish va onlayn platformalar orqali amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu nafaqat shikoyatlarni tezkor ko'rib chiqishga yordam beradi, balki jamoatchilik va shikoyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun ham shaffoflikni ta'minlaydi.

7. Shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha muntazam monitoring va tahlil: Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni va tizimdagi zaif joylarni aniqlash uchun muntazam monitoring va tahlil o'tkazish zarur. Shuningdek, jarayonning samaradorligini oshirish maqsadida amaliy natijalar asosida yangi tartiblar ishlab chiqish lozim.

8. Tajriba almashish va xalqaro tajribani o'rganish: Davlat xaridlari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqishda xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi tajribalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayonning sifatini oshiradi va xalqaro miqyosda hurmatga sazovor bo'lish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10-iyuldagi "Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-sonli Farmoni.

2. Налбандян А.А. Сравнительный анализ опыта развитых стран в организации системы государственных закупок. Вестник РУДН, серия Экономика, 2013, № 5. 118-127 с.

3. BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 1994-yil 27-sessiyasida (UNCITRAL - United Nations Commission on International Trade Law) qabul qilingan Namunaviy "Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida" Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktorining 2018-yil 1-maydagi "Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 180-son buyrug'iga (O'R AV tomonidan 2018-yil 14-mayda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3013).

6. O'roqov U.Yu., Shadmanov E.Sh., Bababekova D.Sh. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – T.: JXU, 2022. – 208 b.

7. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi O'RQ-1005-sonli Qonuni.



OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA ADABIY HAMDA TANQIDIY
QARASHLAR TAHLILI

Salayeva Mardona Sarvar qizi

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Jurnalistika yo'nalishi 1-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ozod Sharofiddinovning ijodi, faoliyati va hayot yo'li chuqur yoritiladi. Ozod Sharafiddinov maqolalaridagi adabiy qarashlariga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Ijod, uslub, maqolalar, adabiy tanqid va tarjima.

„Dunyo ilmsiz farovon bo'lmaydi, ilmni es izlash va o'rganish orqali qo'lga kiritish mumkin“.

Ilm insoniyat tarixida eng ulug' boyliklardan biri hisoblanadi. U jamiyatning rivojlanishi, insonning kamol topishi va yashash mazmunini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm bu o'zaro tajriba, kuzatish, o'rganish va tahlil qilish orqali olingan bilimlar yig'indisidir. U nafaqat tabiat va jamiyatni balki insonning o'zini anglashga imkon berishi, shubhasizdir. Mana shunday betakror va beqiyos ilm sohibi, zamonasining eng yetuk hamda zabardast ijodkorlaridan biri Ozod Sharofiddinovdir. O'zbek adabiyotida xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda beqiyos hissa qo'shgan ijodkorimiz, O'zbekistonning atoqli adibi, tarjimon 1929-yilning 10-noyabr sanasida Toshkent viloyati, Qibray tumanida ilk bor dunyo yuzini ko'rgan. Sharofiddinovning ijodi hamda hayoti O'zbekiston madaniyati va adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Ozod Sharofiddinov 1948-yilda Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirgan va 1953-yilda uni muvaffaqiyatli tamomlagan. U o'zining ilmiy izlanishlari bilan o'zbek adabiyoti va tarjimachilik sohasida chuqur iz qoldirdi. U 1950-yillardan boshlab, asosan tarjimonlik va adabiy tanqid bilan shug'ullangan.

Ozod Sharafiddinov adabiyot, adabiy tanqid maydoniga mamlakatda mustabid tuzum adabiy siyosati qisman yumshagan, erkinlik shabadalari esa boshlagan bir paytda kirib kelgan. O'sha kezlari shoir navqiron iste'dodlarning ixtirochisi va himoyachisi sifatida tanilgan. Uning "Lirika haqida mulohazalar", "Zamon – qalb – poeziya", "Nihollar" maqolalari she'riyat va adabiy jarayonning yangicha talqin etishning yorqin namunalari edi. Ayniqsa, munaqqidning "Ijodni anglash baxti" asari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu asar Ozod Sharafiddinovning mustaqillik yillarida yaratgan maqola, esse va adabiy suxbatlaridan tashkil topgan bo'lib, ularning yangilanayotgan zamonaviy milliy adabiy tafakkurining – XX asr o'zbek adabiyotining tarixini yangicha qayta idrok etish, qolaversa, badiiy ijodning, ijodkor shaxsini sho'ro davrining qarashlaridan farqli o'laroq anglashning yorqin namunalaridir.

Ozod Sharofiddinov jahonga mashhur yozuvchilarning asarlarini asosan, jahon adabiyotining klassik asarlarini va zamonaviy adabiyot namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ham katta hissa qo'shgan. U Lev Tolstoy, Fedor Dostoyevskiy, Ernest Xeminguey, Mark Tven kabi buyuk adiblarning asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazdi. Sharofiddinovning tarjimalari yuksak mahorati, badiiy boyligi va aniq ifoda vositalari bilan



ajralib turadi. Tarjima faoliyati davomida u o'zbek tilining boy imkoniyatlarini namoyish etib, xorijiy asarlarni milliy madaniyat va adabiyotning bir qismi sifatida qabul qilishga yordam berdi. Bunga misol sifatida Lev Tolstoyning "Anna Karenina" romanini olishimiz mumkin. U shunday mahorat bilan ona tilimizga o'girilganki, natijada, o'zbek adabiyotida katta e'tibor qozongan. Ozod Sharafiddinovning tarjimasi, Tolstoyning asarining mazmunini, psixologik chuqurligini va ijtimoiy masalalarini to'liq yoritishga intilgan. Shoir nafaqat tarjimon, balki o'zbek adabiy tanqidchilik maktabining yetuk vakillaridan biri sifatida ham mashhurdir.

Adabiy tanqidchilik sifatida ham shoirning roli beqiyosdir. Sharafiddinov o'zbek adabiy tanqidining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. U o'z asarlarida zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalari, milliy o'zlik va ma'naviyat masalalariga e'tibor qaratgan. Uning tanqidiy maqolalari va asarlari adabiyotshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ozod Sharafiddinov talantli ijodkor edi, "She'r ko'p, ammo shoirchi?" maqolasi tahliliga ko'z yugurtiradigan bo'lsak, unda ijodkor o'z ijodida ma'no va mazmunni to'la ochib bera olmasa shoirlik maqomiga yetisha olmasligini, haqiqiy shoir nimani yozayotgan bo'lsa o'sha narsani qalban his qilishini, qahramonlar o'rniga o'zini qo'yib, o'z ichki fikrlarini qahramoni tiliga ko'chirishi orqali she'rlari mazmunli va salmoqli chiqishi haqida so'z yuritadi.

"Mening nazarimda, tanqidchi asarining nuqsonini topishdan ko'ra ko'proq undagi mavjud – yashiringan go'zallikni topib ko'rsata bilishi lozim. Agar ta'rif kerak bo'lsa, tanqid – bu badiiy adabiyotdagi, she'riyatdagi, nasrdagi yashirin go'zallikni kashf qilish san'ati, derdim."- degan fikrlarni ham tanqid borasida bildiradi.

Ozod Sharafiddinov o'z davrida nafaqat yozuvchi va tarjimon, balki jamoat arbobi sifatida ham tanilgan. U o'z faoliyati davomida o'zbek madaniyatini xalqaro maydonda targ'ib qilishga katta hissa qo'shgan va tanqidchilar, umuman, olim – ziyolilar orasida birinchi bo'lib unvon bilan taqdirlangan. Ozod Sharafiddinov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan ham taqdirlangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan "Jahon adabiyoti" jurnalining tashkil etilishi va jurnalga shoirning bosh muharrir etib tayinlanishi bu alloma faoliyatida yangi sahifa ochdi.

Adib 2020-yil 23-avgustda vafot etdi, lekin uning asarlari va tarjimalari hali ham o'zbek adabiyoti va madaniyatining ajralmas qismi sifatida yashamoqda.

U o'z hayoti davomida o'zbek adabiyoti va tarjimachilik san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan va uning ijodi bugungi kunda ham yosh avlodlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Ozod Sharafiddinov – milliy va jahon madaniyatini birlashtirgan, milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishda bebaho xizmat qilgan shaxsdir. Uning ijodi va hayot yo'li o'zbek adabiyoti tarixida mangu saqlanib qoladi.

Ozod Sharafiddinov ijodi va hayot yo'li boshqalarnikidan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'z sohasida ko'rinarli mehnat qilgan adiblardandir.

O'z ijod namunalari bilan doimo adabiyotimiz gulshanining yashnashiga hissa qo'shgan va fidoyiligi bilan bir talay ulkan cho'qqilarni zabt eta olgan.

Olimning ilhom va munozara bilan yozgan asarlari adabiyotimizning takrorlanmas merosi bo'lib qolaveradi.



1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ozod-sharafiddinov-ijodining-xarakteri-uslub-i-va-hayotidagi-muhim-o-zgarish>
2. Rasulov A. Iste'dod va e'tiqod. Toshkent, „Sharq“ NMK, 2000.
3. To'plam. Matonat va muhabbat. Toshkent, „Universitet“, 1999.
4. Ijodni anglash baxti. – T: “Sharq”, 2004. – 640 b.
5. <https://akademiklar.uz> – Ozod Sharofiddinov | Adabiyotshunos, adabiy tanqidchi.



Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari universiteti Jurnalistika yo'nalishi 1-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinovning "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" asari tahlil qilinadi. Asarda Vatanga bo'lgan muhabbat milliy o'zlik va fidoiylilik g'oyasi falsafiy va hissiy jihatlar bilan ko'tarilgan. Muallifning hayotga xalqqa va milliy qadriyatlarga munosabati jamiyatning har bir asosini chuqur o'ylashga chorlaydi. Ushbu maqolada ifodalangan g'oyalar bugungi yosh avlodni Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga muhim ro'l o'ynashi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Vatan muhabbati, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, vatanparvarlik, milliy o'zlik.

O'zbek adabiy-tanqidiy fikrlar maktabining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Ozod Sharafiddinov xalqimiz madaniyati va milliy o'zligini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Ozod Sharafiddinovning "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasi O'zbek xalqining Vatanga bo'lgan mehrini chuqur falsafiy nuqtai nazardan ochib beradi. Ozod Sharafiddinovning bu maqolasi faqat adabiy asar emas, balki ma'naviy xazina bo'lib, milliy qadriyatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan. Ozod Sharafiddinovning har bir so'zi Vatan uchun xizmat qilishning nafaqat burch, balki insoniylikning oliy namunasidir. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda bunday asarlarning o'rni beqiyosdir.

"O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqola nomidan ma'lum bo'lganidek inson qalbidagi Vatan sevgisining eng chuqur hissiyotlarini ifoda etadi. Ozod Sharafiddinov Vatanni tabiatining ulug'vor qiyofasi, inson qalbining shirin tuyg'ulari va xalq hayotidagi muhim hodisalar orqali tasvirlaydi.

Vatan sevgisi - bu nafaqat his tuyg'u balki amaliy faoliyat, fidokorlik va insoniy burchdir. Maqolada e'tiborni tortadigan jumlar ko'p. "Vatan o'z farzandlaridan har oyda, har haftada, har soat, har daqiqada jon fido qilishini talab qilmaydi. Vatan yo'lida sodir bo'ladigan bunday fidokorlik, eng yuksak fidokorlik bo'lib, u favqulodda hollarda ro'y beradi. Lekin Vatan sevgisi odamdan bir qarashda mahobatli ko'rinmaydigan, insonning oddiy faoliyatidan kam farq qiladigan aslida esa juda mashaqqatli mehnatdan iborat bo'lgan kundalik jasoratni talab qiladi. Bu haqiqatdir Vatan bizdan har kun yoki har soniyada jonimizni fido qilishimizni so'ramaydi. Vatan bu bizning go'zal bo'stonimiz sog'inch va mehr qorishgan buyuk ajdodlar kamolida bayon etilgan yurtimiz doimo biz farzandlari uchun jonsarak ona kabi mehribon. Shuning uchun ham vatanimizni qadrlashimiz, asrashimiz kerak". Ozod Sharafiddinov maqolada Vatanga bo'lgan muhabbatni inson hayoti davomida saqlanishi va bu muhabbat insonni ulug'lashni ta'kidlaydi. Yoshlarni o'zini tanlashga Vatanga xizmat qilishda faol bo'lishga chorlaydi. Ayniqsa "Men o'lsam ham, lekin Vatandan ayrilmayman" degan fikr o'zining samimiyligi bilan ajralib turadi. Milliy qadriyatlarni qadrlash va ularni saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ularning fikricha har bir insonning hayoti Vatanga xizmat qilish bilan bog'liq bo'lishi lozim. Vatanni



sevmagan inson o'zining kimligini ham anglab yetmaydi. Shu sababli milliy qadriyatlarni yoshlar qalbiga singdirish nafaqat ta'lim tarbiyaning balki jamiyatning ham asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Muhtaram ikkinchi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'qtuvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqida Aristotelning fikrlarini keltiradi: "Buyuk yunon olimi Aristotelning Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi". Yurtimiz kelajagi biz yosh avlodning qo'lida yuqorida keltirilgan fikrlar yosh avlod tarbiyasining Vatan kelajagidan ahamiyatini ta'kidlaydi. Milliy o'zligimizni saqlash Vatanga muhabbatimizning muhim ko'rinishidir. Ozod Sharafiddinov fidoiylilikni ham alohida ta'riflaydi. Fidoiylilik nafaqat jang maydonida balki tinchlik davrida ham namoyon bo'lishi kerak. Masalan xalq taqdiri uchun kurashgan jadidlar o'z hayotlarini ta'lim va madaniyat rivoji uchun bag'ishlagan. Bugungi kunda fidoiylilikning zamonaviy ko'rinishlarini yoshlar faoliyatida ko'rish mumkin. Ilmiy yutuqlar, texnologik rivojlanish, ekologik muammolarni hal qilish va jamiyatda ijtimoiy ma'suliyatni his qilish, fidoiylilikni amaliy namunalari hisoblanadi. Maqolada keltirilgan g'oyalar bugungi kun jamiyati uchun dolzarbdir. Yoshlarni Vatanga muhabbat va milliy g'urur ruhida tarbiyalash ularni hayotiy maqsadlarini belgilashda yordam beradi. Ayniqsa, Vatan ravnaqi uchun ma'suliyat hissi va halollik bugungi avlod uchun muhim qadriyat bo'lib qolmoqda. Ozod Sharafiddinovning fikrlariga ko'ra, har bir inson jamiyat uchun kerakligini his qilishi va o'z qobiliyatini Vatan manfaati yo'lida qo'llashi lozim. Ushbu g'oya har bir yoshni mehnatga, ilm olishga va halol hayot kechirishga undaydi. "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasi boshqa Vatanga bag'ishlangan asarlar bilan uzviy bog'liqdir. Abdulla Oripovning "O'zbekiston", Muhammad Yusufning "Vatanim" asari bilan ma'naviy uyg'unlik ko'rish mumkin. Bu asarlar o'zbek xalqining qalbidagi Vatanga muhabbatning boy va ta'sirchan ifodasidir. "Yurtim senga she'r bitdim bu kun, qiyosingni topmadim aslo..."

Ozod Sharafiddinovning yozganlari esa bunday hissiyotlarini chuqur falsafiy jihatdan yoritadi. Kitobxon esa bunday maqola, asarlarni mutolaa qilib, Vatan uchun qilayotgan ishlarni haqida o'ylarga cho'madi.

"O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasi inson qalbidagi Vatanga muhabbatni insoni ulug'lashni ifodalovchi falsafiy asardir. Maqolada orqali Ozod Sharafiddinov milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish g'oyalari ilgari suriladi. Ushbu fikrlar zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Yoshlarni ma'naviy yetuklikka undash va ularga ma'suliyat hissini singdirish bugungi kunda har bir Vatanparvarning burchidir.

Ozod Sharafiddinov – taniqli o'zbek adabiyotshunosi, tanqidchi va publitsist. Uning maqolalarida vatanga bo'lgan muhabbat va milliy g'urur asosiy mavzulardan biri sifatida yoritiladi. Ozod Sharafiddinov o'z asarlarida vatanparvarlikni insonning ma'naviy yuksalishi bilan bog'laydi. U milliy til, madaniyat va tarixning qadriyat sifatida saqlanishi muhimligini ta'kidlaydi. Uning maqolalarida quyidagi jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Vatanparvarlik va adabiyot – Sharafiddinov milliy adabiyotni xalq ma'naviyatining asosi deb bilib, ijodkorning asosiy burchi vatanni ulug'lash ekanini ta'kidlaydi.

2. Milliy ong va istiqlool g'oyalari – U o'z maqolalarida milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qiladi, xalq tarixini unutmazlik kerakligini eslatadi.

3. Til va madaniyat himoyasi – Sharafiddinov ona tilining saqlanishi va rivojlanishini millatning kelajagi bilan bog'laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kh-davron.uz>. Kh-Davron.uz "Abdulla Oripov: "Men nechun sevaman O'zbekiston?"
2. <https://prezident.uz>. prezident.us. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni o'qtuvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi"
3. Tafakkur.net <https://taffakkur.net>. Vatanim|Muhammad Yusuf .
4. <https://kh-davron.uz>.Kh-davron.uz. Ozod Sharafiddinov. Uch maqola Sardaftar sahifalari, maqolalari, xotiralar.



PROFESSIONAL BURNOUT: SABABLARI, BELGILARI VA QARSHI
KURASHISH

Masharipov Dostonbek Muxtarjon o'g'li

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

Akramjanov Temur Ikromovich

Osh davlat universiteti psixologi

Anatatsiya: Ushbu maqolada professional burnout (ishga charchoq)ning sabablari, belgilari va unga qarshi kurashish usullari ko'rib chiqilgan. Burnout, ayniqsa psixologlar, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlar sohalarida ishlovchi mutaxassislar orasida keng tarqalgan bo'lib, bu holat ishdagi stress, yuqori yuklamalar, motivatsiyaning pasayishi va qo'llab-quvvatlovchi tizimlarning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Maqolada burnoutning aniq belgilaridan biri sifatida emotsional charchoq, depersonalizatsiya va ish samaradorligining pasayishi keltirilgan. Shuningdek, undan samarali kurashish usullari, masalan, stressni boshqarish, sog'lom ish muhitini yaratish, dam olish va qo'llab-quvvatlovchi tizimlar yaratish kabi tavsiyalar berilgan. Maqola mutaxassislar va ishchilarning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash, ishdagi samaradorlikni oshirish va burnoutning oldini olishga qaratilgan amaliy maslahatlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Professional burnout, Ishdagi charchoq, Stress, Motivatsiya, Emotsional charchoq, Depersonalizatsiya, Ish samaradorligi, Jismoniy va ruhiy salomatlik, Qo'llab-quvvatlash tizimi, Ish va shaxsiy hayot muvozanati, Stressni boshqarish, Ish muhitini yaxshilash, Dam olish va tiklanish, Sog'lom turmush tarsi, Ruhiy va jismoniy toliqish

KIRISH

Bugungi kunda ko'plab mutaxassislar, ayniqsa psixologlar, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa jamiyatda xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotganlar, professional burnout (ishga charchoq) bilan yuzlashmoqda. Bu holat faqat ishni yomon bajarayotgan odamlar uchun emas, balki o'zini ishga to'liq bag'ishlayotgan va yuqori stress ostida ishlayotganlar uchun ham xosdir. Burnout, nafaqat ishdagi samaradorlikni pasaytiradi, balki shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlash har bir inson uchun o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va boshqa yordam sohalarida ishlovchi mutaxassislar, uzoq vaqt davomida o'z ishlariga sadoqatli bo'lishga intilishadi, lekin bularning barchasi ularni ruhiy va jismoniy charchoqqa olib kelishi mumkin. Professional burnout (ishdagi charchoq) bu holatni anglatadi va bu faqat jismoniy energiyaaning to'liq tugashi bilan bog'liq emas, balki emotsional va ruhiy tomondan ham toliqish, ichki kuchni sarflashni anglatadi.

Burnoutning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ishdagi yuqori yuklamalar, qo'shimcha mas'uliyatlar, ilg'or natijalarga erishish uchun bo'lgan doimiy bosim, uyali telefonlar va boshqa elektron qurilmalarning ortiqcha ishlatilishi — bularning barchasi stress va ishga bo'lgan qiziqishni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, professional

muhitda qo'llab-quvvatlovchi tizimlar va resurslarning yetishmasligi, kasbiy qoniqarsizlik, o'z mehnatingizning qadrsizlanishi ham burnoutni keltirib chiqaradi.

Burnoutning aniq belgilaridan biri, uzoq muddat davomida ishlashga qiziqishning pasayishi, muntazam ravishda charchash va energiya yetishmasligi, shuningdek, odamning ishga bo'lgan ehtirosining yo'qolishidir. Bunday holatda, kishilar o'z ishlarini takroriy va rutinni bo'lishdan ko'ra, ular uchun yoqimsiz vazifalarga aylanadi.

Maqolada professional burnoutning sabablari va uning belgilari bilan birga, undan qanday qilib samarali tarzda kurashish mumkinligi haqida ham so'z yuritamiz. Bizning asosiy maqsadimiz, burnoutning oldini olish va uning salbiy ta'siridan saqlanish uchun qanday usullarni qo'llash mumkinligini ko'rib chiqishdir. Bu, nafaqat mutaxassislarining salomatligini yaxshilash, balki ularning ishga bo'lgan qiziqishini va samaradorligini tiklashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy Qism:

1. Professional Burnoutning Sabablari: Professional burnoutning sabablari bir necha omillarga bog'liqdir. Ishdagi yuqori yuklamalar, muddatlarni bajara olishning bosimi, qo'shimcha mas'uliyatlar va ilg'or natijalarga erishish uchun doimiy harakatlar — bularning barchasi odamlarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, ish joyidagi qo'llab-quvvatlash tizimlarining yetishmasligi, yomon ish sharoitlari yoki mehnatga bo'lgan qadrsizlik burnoutning rivojlanishiga olib keladi.

1. Ishning yuqori talablar: Ba'zida ish talablarining ko'pligi va muddatlarning siqilishida odamlar o'zlarini charchash holatida topishadi. Bu, ayniqsa, uzoq vaqt davomida yuqori stress bilan ishlashga olib kelishi mumkin.

2. Motivatsiyaning yo'qligi: Ishdagi yutuqlarning e'tirof etilmasligi va maqsadlarning aniq belgilab qo'yilmasligi ham burnoutning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Odamlar o'z ishlarining ahamiyatini yo'qotganda, ularning motivatsiyasi pasayadi.

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishning yetishmasligi: Odamlar o'z hamkasblaridan yoki rahbarlaridan etarli qo'llab-quvvatlash olmaydigan bo'lsa, bu ularni stressga olib kelishi mumkin.

4. Shaxsiy muammolar: Shaxsiy hayotdagi stress va oilaviy masalalar ham ishga ta'sir qiladi va burnoutni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Professional Burnoutning Belgilari: Burnoutning belgilarini erta aniqlash juda muhimdir. Boshida, bu holat faqat ko'proq charchash yoki energiyaning yetishmasligi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Keyinchalik esa, ishga bo'lgan qiziqish kamayib, bu to'g'ridan-to'g'ri ishdan qoniqmaslikka olib keladi. Psixologik alomatlar, masalan, xavotir, depressiya yoki hissiy bo'shliq, jismoniy belgilar esa bosh og'rig'i, uyqusizlik yoki asabiylashish bilan birga bo'lishi mumkin. Burnoutni o'z vaqtida aniqlash va unga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega.

1. Emotsional charchoq: Odamlar o'zlarini ruhiy va emotsional ravishda charchagan his qilishadi. Bu holat, ular o'z ishlarini bajarishga qiziqish yoki energiya topa olmaydigan holatga olib keladi.

2. Depersonalizatsiya: Ishga nisbatan salbiy qarashlar va barchani befarq ko'rish holati, shu jumladan hamkasblar va mijozlarga nisbatan.



3. Ishdagi samaradorlikning pasayishi: Burnout holatidagi odamlar o'z ishlarini bajarishda ilgari erishgan samaradorlikni yo'qotadilar. Ular tez-tez xatoliklar qilishi va ishni oxiriga etkazish uchun ko'proq vaqt sarflashlari mumkin.

4. Jismoniy alomatlar: Burnout jismoniy belgilarga ham olib kelishi mumkin, masalan, bosh og'rig'i, uyqusizlik, oshqozon muammolari yoki umumiy charchoq.

3. Professional Burnoutga Qarshi Kurashish: Burnoutning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishning asosiy vositalaridan biri — bu sog'lom ish muhitini yaratishdir. Buning uchun, ish joyidagi ijobiy atmosfera, ochiq muloqot va qo'llab-quvvatlovchi tizimlar tashkil etish zarur. Hamkasblar o'rtasidagi hamkorlik va rahbarlarning o'z xodimlariga e'tibor berishi burnoutni kamaytirishi mumkin. Stressni boshqarish, dam olish va jismoniy faoliyatni rag'batlantirish ham burnoutga qarshi kurashish uchun zarur choralar hisoblanadi. Dam olish, meditatsiya, sport bilan shug'ullanish yoki tabiatda vaqt o'tkazish — bularning barchasi ruhiy va jismoniy toliqishni kamaytirishga yordam beradi.

Agar burnout alomatlari paydo bo'lsa, ularni jiddiy qabul qilish zarur. Vaqtida yordam olish, masalan, psixologik yoki tibbiy yordamga murojaat qilish, bu holatning oldini olish va uning rivojlanishining oldini olish uchun muhim qadamdir. Professional burnoutni nazorat qilish va unga qarshi kurashish nafaqat ish joyida, balki shaxsiy hayotda ham salomatlikni saqlashda katta ahamiyatga ega.

1. Ish va shaxsiy hayotni muvozanatlash: Ish va shaxsiy hayotni ajratish, ortiqcha ishni kamaytirish va o'z vaqtini to'g'ri taqsimlash burnoutning oldini olishga yordam beradi.

2. Stressni boshqarish: Meditatsiya, jismoniy mashqlar va stressni boshqarish texnikalari orqali odamlar o'zlarini yaxshi his qilishlari va ruhiy holatlarini tiklashlari mumkin.

3. Qo'llab-quvvatlash tizimi yaratish: Do'stlar, oila yoki ish joyidagi hamkasblardan qo'llab-quvvatlash olish, ruhiy va emotsional holatni yaxshilashga yordam beradi.

4. Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash: Yaxshi ovqatlanish, jismoniy faollik va etarli uyqu organizmni tiklashda yordam beradi va stressni kamaytiradi.

5. Ruxsat berish va dam olish: Dam olish va tayyorlanish vaqtlarini belgilash, sog'liqni yaxshilash va samaradorlikni oshirish uchun zarur.

Xulosa

Professional burnout — bu faqat ishdagi omadsizlik yoki yomon natijalar bilan cheklanmaydi. U, shuningdek, shaxsiy va ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan, butunlay tizimli bir jarayondir. Bu holat, ko'pincha uzoq vaqt davomida doimiy stress, ishdagi yuqori talablar, hamkasblar bilan bo'lgan noaniqliklar, qo'llab-quvvatlovchi tizimlarning etishmasligi yoki individual imkoniyatlarning pastligi natijasida yuzaga keladi. Burnout faqat individual darajada emas, balki butun jamoaning samaradorligiga va tashkilotning muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Burnoutni oldini olish va unga qarshi kurashishda eng muhim omil — bu sog'lom va qulay ish muhitini yaratishdir. Bu nafaqat jismoniy, balki emotsional salomatlikni ham ta'minlashga yordam beradi. Hamkasblar o'rtasida ijobiy aloqalar va o'zaro qo'llab-quvvatlash, rahbarlarning o'z xodimlariga ko'rsatgan e'tibori va g'amxo'rliqi, ish joyidagi



stressni kamaytirish va yanada qulay sharoitlar yaratish burnoutning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ish joyida ochiq muloqot va tushunishni ta'minlash, ish yukini vaqti-vaqti bilan tekshirib borish, shaxsiy ehtiyojlarga hurmat bilan yondashish — bularning barchasi burnoutni kamaytirish uchun samarali choralardir.

Burnoutga qarshi kurashish uchun stressni boshqarish juda muhimdir. Bu nafaqat ish joyidagi stressni yengish, balki shaxsiy vaqtni, dam olishni va ko'proq uyquni ta'minlashni anglatadi. Dam olish, jismoniy mashqlar, meditatsiya yoki boshqa stressni kamaytirish usullari kishining ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilaydi, bu esa burnoutga qarshi kurashishda yordam beradi.

Agar burnout alomatlari paydo bo'lsa, buni jiddiy qabul qilish zarur. O'zini to'liq charchagan yoki ishdan qoniqmagan his qilgan odam, bu holatni o'z-o'zidan o'tkazib yubormasligi kerak. Vaqtida yordam olish, psixologik yoki professional yordam so'rash burnoutning oldini olishda va u bilan kurashishda eng muhim qadamdir. Yaxshi qo'llab-quvvatlash tizimi va sog'lom ish muhitini yaratish, burnoutni oldini olishning va unga qarshi samarali kurashishning kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Maslach, C., & Leiter, M. P. (2016). Understanding Burnout: New Models and Interventions. In: Handbook of Stress and Health. Wiley.
2. Schaufeli, W. B., & Bakker, A. B. (2004). Job demands, job resources, and their relationship with burnout and engagement: A multi-sample study. Journal of Organizational Behavior, 25(3), 293-315.
3. Maslach, C., & Jackson, S. E. (1981). The measurement of experienced burnout. Journal of Occupational Behavior, 2(2), 99-113.
4. Cherniss, C. (1980). Professional burnout in human service organizations. Praeger Publishers.
5. Kabat-Zinn, J. (1990). Full Catastrophe Living: Using the Wisdom of Your Body and Mind to Face Stress, Pain, and Illness. Delta.
6. Freudenberger, H. J. (1974). Staff burnout. Journal of Social Issues, 30(1), 159-165.
7. Bakker, A. B., & Demerouti, E. (2007). The Job Demands-Resources model: State of the art. Journal of Managerial Psychology, 22(3), 309-328.
8. Pines, A. M., & Maslach, C. (2000). Characteristics of burnout in the social services. Journal of Social Service Research, 26(1), 1-17.
9. Taris, T. W. (2006). Burnout and work engagement: A thorough investigation of the independency of both constructs. Journal of Occupational Health Psychology, 11(4), 380-391.
10. Jackson, S. E., & Schuler, R. S. (1985). A meta-analysis and conceptual critique of research on role ambiguity and role conflict in work settings. Organizational Behavior and Human Decision Processes, 36(1), 16-78



INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIGA ZAMONAVIY
INTERAKTIV O'YINLARNI QO'LLASH

Shukurov Alisher Ahmadaliyevich

Sirdaryo viloyati Shirin shahri Shirin Energetika Texnikumida informatika fani o'qituvchisi

Shukurova Gulmira Murodjon qizi

*Sirdaryo viloyati Shirin shahri Shirin Energetika Texnikumida matematika va informatika fani
o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada Informatika va axborot texnologiyalari faniga zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llashda Wordwall.net, LearningApps.org platformalaridan foydalanish o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish maqsadida interaktiv o'yinga asoslangan metodlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Wordwall.net va LearningApps.org platformalari o'qituvchilarga informatika va axborot texnologiyalari fanidagi murakkab tushunchalarni o'quvchilarga qiziqarli va oson shaklda yetkazish uchun mos keladi.

Wordwall.net platformasi vizual va interaktiv mashqlar yaratish imkonini beradi, bunda o'quvchilarni motivatsiya qilish va darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu platforma turli xil o'yin va mashqlarni, jumladan, viktorinalar, so'rovnomalar va pazzllar kabi o'quvchilarga o'rganish jarayonida faol ishtirok etish imkonini taqdim etadi.

Ushbu platformalardan foydalanish informatika va axborot texnologiyalari darslarida o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning motivatsiyasini yuksaltiradi va bilim darajasini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so'z va iboralar: interaktiv o'yinlar, Wordwall.net, LearningApps.org, Axborot texnologiyalari, Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Viktorina va testlar, Pedagogik samaradorlik

KIRISH

Informatika va axborot texnologiyalari faniga zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llash mavzusi zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv o'yinlarning ahamiyatini va samaradorligini ko'rsatadi. Informatika va axborot texnologiyalari darslarida o'quvchilarni motivatsiya qilish, ularning bilim olish jarayonini jonlantirish va mustahkamlash uchun interaktiv o'yinlardan foydalanish o'ta samarali natijalarga olib keladi.

Zamonaviy interaktiv o'yinlarning ahamiyati. Informatika va axborot texnologiyalari fanida o'quvchilarga murakkab mavzularni o'rgatish, masalan, dasturlash, tarmoqlar, ma'lumotlar bazalari, algoritmlar va boshqa mavzularni qiziqarli va o'zlashtirishni osonlashtirish uchun interaktiv o'yinga asoslangan yondashuvlar qo'llaniladi. Bu o'yinlar o'quvchilarni darsga jalb qilish, bilimlarini sinash va rivojlantirishda samarali vosita bo'ladi.

Interaktiv o'yinlar orqali o'rgatishning foydalari:

- Motivatsiya oshadi. O'quvchilarga interaktiv o'yinda qatnashish, ball to'plash, yutuqlarga erishish kabi elementlar qo'shish orqali ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.



- Faol ishtirok. O'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat passiv ravishda ma'lumotni qabul qilishadi, balki amaliy faoliyatda ishtirok etib, bilimlarni mustahkamlashadi.

- Ko'p o'yinlarda guruhlar bilan ishlash va hamkorlik qilish talab etiladi, bu esa o'quvchilarni bir-biriga yordam berishga, fikr almashishga undaydi.

- Muammolarni hal qilish ko'nikmalari. Dasturlash va algoritmlarni o'rganishda interaktiv o'yinlar orqali muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Interaktiv o'yinlarning turlari:

- Online platformalar. Masalan, "Kahoot!", "Quizlet", "Socrative" kabi o'yin platformalari yordamida o'quvchilarni viktorinalar, testlar va boshqa interaktiv topshiriqlar orqali sinovdan o'tkazish mumkin.

- Simulyatsiyalar. Informatika fanida tarmoq simulyatsiyasi, ma'lumotlar bazasi yaratish, dastur tuzish va boshqa texnikalarni o'rgatishda turli simulyatorlardan foydalanish samarali.

- Programmalash o'yinlari. "Scratch", "CodeCombat" kabi dasturlash o'yinlari orqali o'quvchilarga dasturlash tillarini o'rgatish mumkin.

- Puzzle o'yinlar. Mantiqiy o'yinlar va puzzlelar orqali algoritmik fikrlashni rivojlantirish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ilmiy yangiliklar va metodlar.

Informatika va axborot texnologiyalari fanida interaktiv o'yinlarni qo'llashning ilmiy yangiligi shundaki, bu metod o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O'yinlar o'quvchilarga murakkab tushunchalarni osonlashtirib, o'rgatishga yordam beradi. Bunda o'yinlar nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi.

Informatika va axborot texnologiyalari faniga zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llashda LearningApps.org platformasidan foydalanish samarali va qulay usul hisoblanadi. Ushbu platforma o'quvchilarga informatika fanidagi murakkab mavzularni o'rganishda interaktiv va qiziqarli usullarni taqdim etadi. LearningApps.org platformasi o'quvchilarning bilimni mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'rganish jarayonini jonlantirish uchun moslashuvchan vositalar taqdim etadi.

LearningApps.org - bu o'quvchilarga turli interaktiv o'yinga asoslangan mashqlar yaratish, o'rganish va baholash imkoniyatini beruvchi onlayn platformadir. Platforma yordamida o'qituvchilar va o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida o'yinlar va mashqlarni yaratish, o'zgartirish va baholash imkoniyatiga ega.

LearningApps.org platformasidan foydalanishning afzalliklari:

Moslashuvchan va interaktiv mashqlar yaratish. Platforma o'quvchilarga turli xil o'yinlar, viktorinalar, testlar, so'z boyligini o'rganish mashqlari, pazzllar va boshqa turli interaktiv topshiriqlar yaratishga imkon beradi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanida o'quvchilarga murakkab tushunchalarni o'rgatishda qiziqarli va interaktiv materiallar yaratish mumkin.



O'quvchilarga real vaqtda baholash. Platforma orqali o'quvchilarning javoblari real vaqtda baholanadi, bu esa o'qituvchiga o'quvchilarning o'rganish jarayonini tezda kuzatib borish imkonini beradi.

Multimedia elementlari bilan ishlash.

Platformada audio, video, tasvirlar, grafikalar va boshqa multimedia materiallari bilan ishlash imkoniyatlari mavjud. Bu o'quvchilarning informatika va axborot texnologiyalari mavzularini o'rganish jarayonini vizual va ko'ngilochar qiladi.

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish.

Interaktiv o'yinlar va mashqlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni bilim olishga ko'proq jalb qiladi.

O'yinlar orqali o'quvchilar yanada faol ishtirok etadilar va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otiladi.

O'qituvchilar turli turdagi mashqlarni yaratishlari mumkin, masalan, to'g'ri/yo'q, tanlovli testlar, shakllar, so'z boyligi mashqlari va boshqalar.

Informatika va axborot texnologiyalari fanida o'quvchilarga dasturlash, algoritmlar, tizimlar, ma'lumotlar bazalari, va boshqa murakkab mavzularni o'rganishda qiziqarli interaktiv mashqlar yaratish mumkin.

LearningApps.org platformasidan foydalanish uchun misollar.

Dasturlash asoslarini o'rgatish.

O'qituvchi "drag-and-drop" usulida dasturlash kodlarini va funksiyalarni to'g'ri tartibda joylashtirishga asoslangan mashqlar yaratishi mumkin. Bu usul o'quvchilarga kodni tushunishni va dasturlashni o'rganishni osonlashtiradi.

Algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmasi.

O'quvchilarga algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmasini o'rgatishda interaktiv viktorinalar yoki algoritm yaratish mashqlari yaratish mumkin. Masalan, biror algoritmni to'g'ri tartibda qo'llash yoki turli algoritmlar orasidagi farqni tushunishga yordam beradigan mashqlar.

Tarmoq va internet xavfsizligi:

Platformada tarmoq xavfsizligi, internet xavfsizligi va boshqa informatika faniga oid mavzularda testlar yoki pazzl o'yinlarini yaratish orqali o'quvchilarga bu mavzularni o'rgatish mumkin.

Matematik masalalar va formulalar.

Informatikada matematika muhim rol o'ynaydi, shuning uchun o'quvchilarga matematik masalalarni yechishda interaktiv mashqlar yaratish mumkin. Misol uchun, formulalarni to'g'ri joylashtirish yoki masalalarni yechishda matematik amallarni tanlash.

Informatika va axborot texnologiyalari faniga zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llashda Wordwall.net platformasidan foydalanish samarali va qulay vosita hisoblanadi. Wordwall.net - bu interaktiv o'yinlar va mashqlar yaratish uchun mo'ljallangan onlayn platforma bo'lib, o'quvchilarga turli xil o'yinlarni yaratish, ularga interaktiv tarzda ishtirok etish va o'rganish jarayonini qiziqarli qilish imkoniyatini beradi.

Wordwall.net - bu o'quvchilar va o'qituvchilar uchun interaktiv mashqlar yaratish, o'rganish va baholashni osonlashtiradigan vosita. Platforma yordamida turli xil o'yinlar va mashqlar yaratish mumkin, masalan, so'zlarni joylashtirish, viktorinalar, tanlovlar, pazzl

o'yinlari va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari fanida murakkab tushunchalarni o'rganishda, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda va bilimlarini mustahkamlashda bu platforma juda samarali bo'ladi. Platformada o'qituvchilar 18 turdagi interaktiv mashqlar va o'yinlarni yaratishlari mumkin, masalan, so'z boyligi, to'g'ri/yo'q, viktorina, match (moslashtirish) va boshqalar. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar bilimlarini qiziqarli tarzda mustahkamlashadi. Wordwall.net platformasidagi mashqlar va o'yinlar mobil qurilmalarda ham ishlaydi. O'quvchilar darsdan tashqari, o'z telefonlari yoki planshetlarida ham mashqlarni bajarishlari mumkin.

Interaktiv o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'yinlarni o'ynash orqali o'quvchilar bilimlarini qiziqarli va amaliy tarzda tekshirishadi. Bu, ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari darslarida samarali bo'ladi.

Wordwall.net platformasida mashqlarni vizual elementlar (tasvirlar, ranglar, animatsiyalar) bilan boyitish mumkin, bu o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirishni osonlashtiradi va darsni yanada qiziqarli qiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi real vaqtda baholanadi, bu o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlarini tezda tahlil qilish va kerakli o'zgartirishlarni kiritish imkoniyatini beradi.

Wordwall.net platformasiga kirib, o'qituvchilar ro'yxatdan o'tishlari va hisob yaratishlari kerak. Bepul hisobda bir nechta o'yin va mashqlar yaratish mumkin. Wordwall.net platformasiga kirib, o'qituvchilar ro'yxatdan o'tishlari va hisob yaratishlari kerak. Bepul hisobda bir nechta o'yin va mashqlar yaratish mumkin. Mashqni yaratish jarayonida o'qituvchi savollarni va javoblarni kiritadi, tasvirlar, audio yoki video qo'shish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Yaratilgan mashqlarni o'quvchilar bilan ulashish uchun ularga havola yoki QR-kod yuborishingiz mumkin. O'quvchilar ushbu havolani ochib, interaktiv mashqlarda ishtirok etishadi. O'quvchilar mashqlarni tugatgandan so'ng, o'qituvchi real vaqtda ularning natijalarini ko'rib chiqishi mumkin. Bu imkoniyat o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlarini baholashda yordam beradi.

Natijalar

Informatika va axborot texnologiyalari faniga zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llashda Wordwall.net, LearningApps.org platformasidan foyalanish natijasida o'quvchilar dars jarayonlarida ko'nikmalarni mustahkamlash, yuqori motivatsiya, hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lishadi.

- Interaktiv o'yinlar orqali o'quvchilarning informatika fanidagi nazariy va amaliy ko'nikmalari mustahkamlanadi.

- O'quvchilarni darsga jalb qilish va ularning o'zlashtirish jarayonini yaxshilash imkoniyatlari oshadi.

- Guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadi va fikr almashadi.

Muhokama

Informatika va axborot texnologiyalari faniga zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llashda Wordwall.net va LearningApps.org platformalarining har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega, shuning uchun ularning qaysi biri foydaliroq ekanligi, asosan, ta'lim jarayonining maqsadlari, o'quvchilarning ehtiyojlari va o'qituvchining



ishlatish usuliga bog'liq bo'ladi. Quyida har ikkala platformaning afzalliklari, kamchiliklari va farqlari keltirilgan.

1. Wordwall.net platformasi:

Afzalliklari:

- Wordwall.net 18 turdagi interaktiv mashqlar va o'yinlar yaratishga imkon beradi, masalan, viktorina, match (moslashtirish), fill-in-the-blanks (bo'sh joylarni to'ldirish), so'rovnomalar va boshqalar. Bu platforma ko'p turdagi mashqlarni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa o'quvchilarni turli yo'llar bilan o'rganishga undaydi.

- Wordwall.net mashqlari ko'proq vizual va ko'ngilochar bo'lib, rang-barang interfeys va tasvirlardan foydalanishga imkon beradi. Bu o'quvchilarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi.

- Mashqlar o'quvchilar uchun qiziqarli va motivatsiya beruvchi bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'z natijalarini ko'rib, raqobatlashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

- Wordwall mashqlari mobil qurilmalarda ham ishlaydi, bu o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtlarida ham mashqlarni bajarayotgan holda o'rganish imkonini beradi.

Kamchiliklari:

- Bepul versiyada cheklovlar. Wordwall.net platformasining bepul versiyasi cheklangan funktsiyalarni taqdim etadi, ya'ni faqat ma'lum sonli mashqlar yaratish mumkin. Ko'proq mashq yaratish uchun premium hisob kerak bo'ladi.

- Cheklangan integratsiya. Wordwall mashqlarini boshqa tizimlarga integratsiya qilishda ba'zi cheklovlar mavjud, masalan, o'quvchilar uchun natijalarni eksport qilish yoki to'liq hisobotlarni olishda.

2. LearningApps.org platformasi.

Afzalliklari:

- LearningApps.org turli xil mashqlar va o'yinlarni yaratish uchun ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu platforma turli uslubdagi mashqlarni qo'llab-quvvatlaydi, masalan, so'zlarni tanlash, to'g'ri/yo'q variantlar, bo'sh joylarni to'ldirish, pazzllar, testlar va boshqalar.

- LearningApps.org o'quvchilar va o'qituvchilar uchun oddiy va qulay interfeysni taqdim etadi, bu esa o'yinlar va mashqlarni tez va oson yaratishga yordam beradi.

- Bepul hisobda ham ko'p funktsiyalarni ishlatish mumkin, bu esa platformani o'qituvchilar uchun qo'llashda qulay qiladi. Agar premium hisob kerak bo'lsa, unda imkoniyatlar yanada kengayadi.

- LearningApps.org global platforma bo'lib, ko'plab tillarda mavjud va boshqa ta'lim tizimlari yoki onlayn platformalar bilan integratsiyalashish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kamchiliklari:

- Vizuallikning pastligi. Wordwall.net bilan solishtirganda, LearningApps.org mashqlari ko'proq oddiy va kamroq vizual jihatdan boyitilgan. Bu ba'zan o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida jalb qilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

- Cheklangan mobil imkoniyatlar. LearningApps.org platformasida mobil qurilmalarda ishlash imkoniyatlari bor, lekin ba'zi mashqlarni yaratish va ishlatish jarayoni Wordwall.net bilan solishtirganda unchalik qulay bo'lmasligi mumkin.

Wordwall.net va LearningApps.org platformalarining farqlari:

Jadval	Wordwall.net	LearningApps.org
Mashqlar va o'yinlar turlari	18 ta turdagi o'yin va mashqlar (viktorina, match, fill-in-the-blanks va boshqalar)	30 dan ortiq turdagi mashqlar (to'g'ri/yo'q, pazzl, testlar va boshqalar)
Interfeys	Ko'proq vizual va qiziqarli dizayn	Oddiy, ammo samarali interfeys
Mobil qo'llab-quvvatlash	Ha, mobil qurilmalarda ishlaydi	Ha, lekin ba'zan kamroq qulay
Bepul foydalanish	Bepul versiya cheklangan, premium kerak	Bepul versiya ko'p imkoniyatlar beradi
Integratsiya	Ba'zi cheklovlar mavjud	Yaxshi integratsiya imkoniyatlari
Yaratish osonligi	Yaratish jarayoni oddiy, lekin premium hisob talab qilishi mumkin	Oddiy va tez mashqlar yaratish imkoniyati
Dars uchun moslashuvchanlik	Kengaytirilgan vizual imkoniyatlar	Ko'p turdagi mashqlar va o'yinlar yaratish imkoniyatlari

Xulosa

LearningApps.org platformasi informatika va axborot texnologiyalari fanida zamonaviy interaktiv o'yinlarni qo'llashda samarali vosita hisoblanadi. Bu platforma orqali o'qituvchilar o'quvchilarga murakkab mavzularni o'rganish uchun qiziqarli va interaktiv mashqlar yaratib, ularni yanada faol va samarali tarzda o'rganishga jalb qilishlari mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasini real vaqtda baholash imkoniyati ham mavjud. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Wordwall.net platformasi informatika va axborot texnologiyalari fanida zamonaviy interaktiv o'yinni qo'llashda juda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'quvchilarni motivatsiya qilish, ularning bilimlarini sinash va samarali tarzda o'rganishni tashkil etishda bu platforma juda foydali. Interaktiv o'yinlar, mashqlar va viktorinalar o'quvchilarning bilimlarini qiziqarli va amaliy tarzda mustahkamlashga yordam beradi, shu bilan birga o'qituvchilarga o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash imkoniyatini yaratadi.

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida zamonaviy interaktiv o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va faol qilish imkonini beradi. Bu metod nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshiradi, balki ularni yangi texnologiyalarni amalda qo'llashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'.Mirzaxonov. Axborot texnologiyalarining ta'limdagi roli. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. Toshkent. 2020
2. N.Yusupov. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent. 2019.
3. X.Murodov. Informatika va axborot texnologiyalari o'qitish metodikasi. X. Murodov. "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent. 2021
4. И.А.Иванова. Интерактивные технологии в обучении: опыт и перспективы. Вышэйшая школа. Москва. 2020.
5. С.С.Орлов. Информационные технологии в образовании. ЛКИ. Санкт-Петербург. 2018.



6. В.А.Петров. Модели и методы использования информационных технологий в школьном. обучении. Просвещение. Москва.2019.
- 7.H.M. Karmakar.The Role of Technology in the Future of Education: Proceedings of the 2015 International Conference on Educational Technologies. Springer. Berlin, Germany. 2015.
- 8.Buriyeva, F. (2024). Shawkat Rahman's Translation Skills. Miasto Przyszłości, 55, 522-524.
- 9.Buriyeva, F., & Jasmina, I. (2024). Ikkinchi Jahon Urushi Davri O'zbek Adabiyotini Tahlil Qilish. Miasto Przyszłości, 55, 225-229.
- 10.Buriyeva, F., & Narzulloyeva, P. (2024). MUHAMMAD ALI SHE'RIYATIDA TARIXNING POETIK TALQINI. Analytical Journal of Education and Development, 4(12), 164-167.
- 11.Buriyeva, F. (2024). THE GRADUAL DEVELOPMENT OF LITERARY TRADITION AND INNOVATION IN POETRY (From the Post-1960s Period). American Journal of Philological Sciences, 4(11), 86-89.
- 12.Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy She'riyatda Diniy-Tasavvufiy Mavzu Va Timsollar An'anaviyligi. Miasto Przyszłości, 53, 1347-1350.
- 13.BURIYEVA, F. (2024). FAXRIYOR IJODIY OLAMI: INDIVIDUAL USLUB VA POETIK MAHORATNING SHAKLLANISH TADRIJI. News of the NUUZ, 1(1.6. 1), 303-305.



Бешимова Дилафрўз Исломовна

*Тошкент тиббиёт академияси "Тиббий профилактика ва жамоат
саломатлиги" факультети 304 а гуруҳ талабаси*

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбекнинг мард аёли, шеърятнинг онаси Зулфияхоним ҳаёт йўли, серқирра ижоди ёритилган бўлиб, ўзбек адабиётидаги забардаст ўрни кенг талқин қилинган. Зулфиянинг ижодидаги муҳаббат, садоқат, маърифат ва инсонпарварлик каби сифатлари ёрқин очиб берилган.

Калит сўзлар: Зулфия Исроилова, ватанпарварлик, ўзбек адабиёти, шеърят, адабий мероси, адолат тимсоли, вафо ва садоқати

Зулфияхоним ҳаёти ва ижоди ҳақидаги қизиқарли маълумотлар билан танишган ҳар бир инсон ўзида чексиз мамнунликни ҳис этади. Зулфияхонимга атаб ёзилган шеърлар, улар шаънига айтилган эъзозли сўзлар, бадий - эстетик фикрларни баён этиш орқали олам қадар завқланиш мумкин. Зулфиянинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш орқали унинг ҳурмати, қадру - қимматини осмон қадар кенг ва бепаён эканлигини англаш лозим. таъкидлаб ўтилди.

Аёл борки олам мунаввар ёхуд олам гўзаллиги Зулфияхонимда мужассам. Унинг ўрни беминнат, фаолияти ҳамма жойда улуғланади. Зулфияхоним том маънода маънавиятли, баркамол комил инсондир. Унинг оилада фарзандларига сингдирган тарбиясида ибрат ва намунали мактаб мавжуд. Унда Ватанга, ота онага содиқлик, фидойилик, меҳр-муҳаббат, ўзаро ҳурмат, соғлом дунёқараш, хулқ-атвор, одоб-ахлоқ каби юксак инсоний фазилатлар мужассамланган. Шу жиҳатдан ҳам Зулфияхоним оилада тарбиячи, мураббий аёл бўлган. Фарзандларига тўғри тарбия бериш, уларни она юртига, Ватанига фидойилик руҳида тарбиялашдек муҳим ишлар кўпроқ уларнинг зиммасида бўлиб, болаларини ёшлигиданоқ меҳнатсевар, илмга чанқоқ шахс сифатида тарбиялаганлар. Бунда Зулфияхонимнинг ўзгача янгича фикрлаш, чуқур тафаккур қилишини жуда яхши ҳис этиш мумкин.

Дарҳақиқат, келажакни ўйлаган, нурли истиқболни кўзлаган Зулфияхоним доимо эъзозда. Унинг жамолидан таралган нур, гўзаллик ҳамиша оламни мунаввар этган. Юртимиз равнақига сайқал берган. Бу дунёда Зулфияхонимдек аёллар, оналар борки, улар яхшилик, эзгулик, меҳр-оқибат, тирикликнинг устун бўлаверадилар. Улар борки, хонадонимиз тинч-осоишта, саранжом-сарийшта, юртимизда файзу-барака ҳукмрондир. Зулфияхонимнинг ҳурмати, қадру-қиммати осмон қадар кенг ва бепаёндир. Ёшлар бахтини нақадар улуғ бўлиши аввало аёлларга боғлиқдир. Аёл доно бўлса оила тинч бўлади, оила тинч бўлса, жамиятимизда ҳам тинчлик, ҳамжиҳатлик, осойишталик ва барқарорлик ҳукм суради. Авлоди баркамол ўсган элнинг келажаги ёруғдир. Зулфияхонимнинг энг яхши фазилатларидан бири унинг сабр-тоқатлилигидир. Шунинг учун ҳам уни гўзаллик тимсоли дейиш ҳам мумкин.



Зулфияхонимни эъзозлаш, унга юксак эҳтиромлар кўрсатиш ўзбек халқига хос хусусиятдир. Оқила ва гўзал Зулфияхоним ўзининг ғамхўрлиги, меҳрибонлиги, қалби дарёлиги билан ойилада ва бутун жамиятдаги мувозанатни, поклик, ҳалоллик, самимият ва адолат муҳитини сақлаганлар. Ҳақиқатан ҳам Зулфия оламни гўзал, меҳрли ва адолатли қилиш учун яратилган. Зулфиянинг меҳр тўла кўзларига,зеҳн солинганда унинг мунис кўзларида илоҳий нурни илғаш мумкин. Ана ўша ёғду ҳаётни ғолиб ва мафтункор этгувчи қудратли гўзалликдир. Ана шу зиё фарзандлари, ёшлар зуваласида жасорат, муҳаббат, она тупроққа садоқат, ҳалоллик, Ватан тақдирига масъуллик ҳисси бўлиб қарор топади.

Ана шу меҳр нурида ёшлар ўз халқи, миллати умрини боқий этувчи даҳо фарзандлар бўлиб камолга етадилар. Илдизимизда қоядек бўлиб турган Аҳмад Фарғоний, имом Бухорий, АмирТемур, Алишер Навоий, Мирзо Улуғбек, Жалолиддин Мангубердилар зуваласида ўша нур бор. Довюрак Алпомиш, Гўрўғли Кунтуғмишлар ҳам Аёлнинг орзу-тилақларининг ўлмас рўёбидир. Дунёни лол қолдирган аждодлар шуъласи ҳамон йўлимизни ёритар экан, истиқболнинг, янги асрнинг буюқларини ҳам Зулфияхоним каби гўзал, кўркам, ақлли, аёллар тарбиялаганлар. Ибн Сино, Улуғбек, Жомий ва Саъдийни , Навоий ва Фирдавсийни, Бедил ва Хайёмни, Нодира ва Увайсийни дунёга келтирган аёл она бу муқаддас бир зотки, унинг билан олам мунаввар, унинг билан оила, ватан, хонадон ободдир. Аёл ўз дилбандига гўзал қўшиқлар, тоза ҳаёллар, ёрқин орзулар, келажак умидлари орқали ноёб фазилатларни сингдиради.

Оилани оила қиладиган зот бу Аёлдир. Зулфиядек оқила, гўзал аёллар ўзларининг ғамхўрлиги, меҳрибонлиги қалби дарёлиги билан оиладаги, қолаверса, бутун жамиятдаги мувозанатни, поклик, ҳалоллик, самимият ва адолат муҳитини сақлаб турадилар. Барчамиз учун азиз мўътабар бўлган шоира Зулфияхоним ҳақида сўз юритар эканмиз , бизни дунёга келтирган ва оқ сут бериб вояга етказган аёл-она сиймосини доимо улуғлаб, ардоқлаб яшаймиз. Аёлни эъзозлаш , аёлга эҳтиром кўрсатиш халқимизга хос олижаноб қадрият ҳисобланади. Шу жиҳатдан қалбимиз, юрагимиздаги жамики эзгу фазилатлар учун азиз ва меҳрибон Зулфияхонимнинг хизматларини ҳеч нарса билан қиёслаб, баҳолаб бўлмайди. Шоира Зулфиянинг меҳр-муҳаббат, вафо ва садоқати, фидойилиги ҳамиша яхшилик ва эзгуликга интилган ўзбек аёлларининг гўзаллик тимсоли бўлиб, уларнинг шаклу шамоийли сийрати, маънавий оламидаги ибо-ҳаё, андиша, сабр ва маътонати сифатида намоён бўлади. Ҳаётда бундай аёларнинг фарзандлари доно, ақлли бўлиб вояга етадилар. Биз жаҳон тарихида ўз номи, ўрни билан машҳўр бўлган жуда кўп аёллар; Тўмарис, Сарой Мулкхоним, Нодирбегим, Гулбаданбегим, Зебунисобегим, Жаҳон отин Увайсий, Анбар отин , Зулфия, Саида каби шоира-ю фозилаларимиздан фахрланамиз. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Зулфияхонимнинг мазмунли ҳаёти ва ижодидан баҳраманд бўлиб, яратиш ва бунёдкорлик ишлари билан шуғулланиш барча ёшларнинг муқаддас бурчидир. Бу борада жуда катта, улкан ва фойдали ишларни режалаштириш ва уларни муваффақиятли амалга ошириш борасида тинимсиз меҳнат



қилиш, ўқиш талаб этилади. Натижада барчамиз Зулфияхонимнинг миллий меросидан тўлиқ баҳраманд бўлиб, ундан эстетик завқланишга эришамиз. Аёл оламни гўзал, меҳрли ва адолатли қилиш учун яратилган, Аёлнинг меҳр тўла кўзларига, зеҳн солганмисиз? Мунис кўзларидаги илохий нурни илғаганмисиз? Ана ўша ёғду ҳаётни голиб ва мафтункор этгувчи қудратли гўзалликдир. Ана шу зиё фарзанд зуваласида жасорат, муҳаббат, она тупроққа садоқат, ҳалоллик, Ватан тақдирига масъуллик ҳисси бўлиб қарор топади. Ана шу меҳр нурида Аёл ўз халқи, миллати умрини боқий этувчи даҳо фарзандларини камолга етказди.

Хулоса шуки, Ҳақиқатан ҳам Зулфияхоним лутфу ҳимматга сазовордир. Зулфияхонимдек, барча аёлларимиз жамиятда ҳам уйда ҳам ўз ўрнига егадирлар. Улар барча соҳаларда хизмат қилиб келмоқда. Мамлакатимизда аёлларга ўзгача ҳурмат ва ғамхўрлик кўрсатилади. Аёллар гўзаллиги жозибали кучдир. Улар фидойилик наъмунасини кўрсатишга қодир бўлган зотлардир. Ҳаётимиз чироғи, умримиз мазмуни бўлган аёлларни ардоқлаб, мадҳ этайлик. Аёлни эъзозлаш ота-боболаримиздан мерос. Ўзбек халқининг ёрқин намоёниси ҳисобланган Зулфияхонимнинг ижоди, инсонийлик фазилатлари ҳамда ўзбек адабиётига қўшган ҳиссаси ҳақида қанча гапирсак ҳам кам.

Зулфияхоним Исроилова - таниқли ва иқтидорли ўзбек шоираси. Зулфияхоним истеъдод соҳибидир. Унинг шеърлари чуқур маънога эга. Зулфияхоним аёллик иффатини, нозикликни, ибодат-ҳаёни, илмни шунингдек барча яхши ҳислатларни ўзида мужассамлаштирган ўзбек аёлидир. Гўзалик тимсоли бўлган Зулфияхонимнинг ҳаракатлари яни ижодкорлиги, қалбнинг поклиги давримизнинг ҳаққоний ифодаси ҳисобланади. Биз ёшлар Зулфияхонимдан андоза олсак арзийди. Зулфияхонимнинг туғма ижодкорлиги, тиришқоқлиги ва меҳнатсеварлиги тақсинга лойиқ.

ФЎЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Зулфия (1965). Юрак. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт.
2. Каримова, Д. (2023). Зулфия ва ёш ижодкорлар. Тошкент: Маънавият нашриёти.
3. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси (2023). Зулфия номидаги мукофот совриндорлари ҳақида. Тошкент.
4. Абдуғафурова, Н. (2022). Ўзбек шеърлятида аёллар овози. Самарқанд: Илм зиё.
5. Раҳимова, М. (2021). Зулфия ижоди ва унинг ўрганилиши. Бухоро: Адабиётхунослик институти.



ЎЗБЕК ШОИРАСИ ЗУЛФИЯ ШЕЪРЛАРИДА ВАТАНПАРВАРЛИК
ҒОЯСИ

Бешимова Дилафрўз Исломовна

*Тошкент тиббиёт академияси "Тиббий профилактика ва жамоат
саломатлиги" факультети 304 а гуруҳ талабаси*

Аннотация: Ушбу мақолада Зулфияхоним ҳаёт йўли, серқирра ижоди ёритилган бўлиб, ўзбек адабиётидаги забардаст ўрни кенг талқин этилган ва ўрганилган. Зулфиянинг ижодидаги муҳаббат, садоқат, маърифат ва ватанпарварлик каби сифатлари ёрқин очиб берилган.

Калит сўзлар: Зулфия, ватанпарварлик, меҳр-оқибат, адолат, ватан туйғуси, баҳор, шеърият, хижрон, фидойилик, масъулият, шижоат.

Машаққатли меҳнат соҳиби Зулфиянинг шеърларида ватанпарварликнинг серғайрат овози жаранглайди, Ватани мустақиллиги учун қўлига қурол олиб курашаётганларга, ҳар кунлик чуқур кураш ортида машаққатли меҳнати ила фронтни барча керакли нарсалар билан таъминлаётганларга нисбатан лирик илиқлиги сезилади. "Уни Фарҳод дердилар" шеърида исёнкор фашистларга нисбатан нафрат, ғалабага ишонч ифодаланган. Ғанимга қарши курашга чорлов аскар-ўғил ҳақидаги она қўшиғи, хотини ва онасини соғинган жасур фронтчи, пахлавон ери учун қайғураётган аёлнинг қайғули хавотири билан боғланади.

Ватанига, она ерига бўлган муҳаббати - ватанпарварликнинг олий туйғуси бўлиб, ҳарбий жанглارнинг саодатли якунига ишонч билан бирлашади - бу шунчаки, Зулфиянинг шоирона қалбига хос ўйларгина емас, балки ўзбек халқининг табиатига хос миллий феъл-атвор қирралари бўлиб, шоиранинг шеърларида ёрқин ифодаланади.

Шоира Ватанидан ташқаридаги бахтни тан олмайди, хатто у ер яхшироқ бўлса ҳам: "Ахир, бахт она диёридагина тирикдир".

Уруш йилларидаги шеърлари юқори бадиий маҳорат, ёрқин шеърий тимсоллар ва оҳанглар ила қайд этилган, фолклор усуллар ва халқона нутқ ўзгариши, одми адабий луғат билан мужассамлиги сезилади. Қоидага кўра, насрий қаҳрамон фронт ҳодисалари, халқнинг урушдаги ҳаёти ва ундаги жангчиларга нисбатан кутилмаган ноодатий ёрқин ва аниқ муносабатини билдиради.

Уруш ниҳоясига етди, ғалабани қарши олишди, ғолиблар завқ ила кутиб олинди ва урушдан қайтмаганларга кўз ёш тўкилди, тинчлик осмони шоира қалбини егаллайди. Зулфиянинг уруш йилларидан кейинги шеърлари янги фалсафий мазмун билан тўйинган; унда урушдан яраланган ҳақиқат тасвири кенгрок кўламда ифодаланиб, халқнинг ғайратли меҳнати кутилмаган раванқ ила якун топиши билан фарқланади.

Унинг кўп шеърлари халқлар тинчлиги ва дўстлиги сари курашга бағишланган эди. Уруш йиллари у ватанпарварлик шеърларини ёзган. У томонидан, шунингдек,



Ўзбек бастакорларининг операларига либреттолар ҳам ёзилган, масалан, "Зайнаб ва Омон" операсига либретто. Шу билан бирга, турмуш ўртоғи Ҳамид Олимжон қаламига мансуб "Семурғ" достони мавзуси асосида, эртақ-сахна асарини ҳам ёзган.

Шоиранинг енг машҳур шеърлари: "Хулқар" (1947), "Мен тонгни куйлайман" (1950), "Юрагимга яқин кишилар" (1958), "Юрак йўлда" (1966), "Менинг баҳорим" (1967), "Шаршара" (1969) кабилардир.

Зулфиянинг бутун шеърий ижоди — Ўзбекистон диёрининг илҳом мадҳияси, инсон меҳнати мадҳияси, севги ва ердаги адолат учун мадҳиясидир.

Зулфиянинг қойил мақом ижод меҳнатига кўп йиллар бўлди, республика ҳаёти ва унинг халқи тақдирида катта ўзгаришлар содир бўлди, лекин "севгининг алангали кучи бугун ҳам ўқувчининг қалбини иситади, юрагини ва онгини ҳаяжонлантиради. Шоира аввало, Ватан ва миллат олдидаги бурч ва масъулиятни ҳис этиш мен учун энг муҳим масаладир дейдилар. Чунончи, Ватанпарварлик тарбияси замирида комил инсонни тарбиялаш вазифаси ётади. Ватанпарварлик — шу улуғ Ватанни севиш, халқ учун хизмат қилиш, жонини ҳам фидо этишдир. Қаерда бўлса ҳам Ватан, халқ манфаатлари учун фидокорона курашувчи кишигина ҳақиқий ватанпарвардир. Инсонийликнинг энг муҳим фазилати ҳам ватанпарварликдир. Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг "Ҳар қандай давлат сиёсатининг асосини ватанпарварлик тарбияси ташкил этади" деган сўзлари замирида чуқур маънолар мужассамдир. Ватанпарварликнинг ҳаракатлантирувчи кучи эса одамларнинг маънавий дунёси, интеллектуал салоҳияти билан ўлчанади. Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллигига 30 йил тўлиши муносабати билан "Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик!" деган эзгу ғоя асосида ўтказиладиган энг улуғ, муқаддас ва гўзал тантанали кундаги байрам шуқуҳи барчанинг қалбига эркин, обод ва фаровон ҳаётдан мамнунлик ҳиссини бахш этади. Мустақиллик бизга ўз тақдиримизнинг ҳақиқий эгаси бўлиб, юртимизда ҳуқуқий демократик давлат ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш имкониятини яратди. Истиқлол йилларида кўҳна тарихимиз, бой меросимиз, муқаддас динимиз, урф-одат ва анъаналаримиз қайта тикланди, меҳр-оқибат, бағрикенглик, ҳамжиҳатлик каби олижаноб фазилатлар, Ватан тақдири ва келажагига дахлдорлик туйғуси халқимиз юрагининг туб-тубидан ўрин олди. Мустақиллик – халқимиз учун эркин, бахтли ва фаровон ҳаёт кечириш имконини берди. Юртдошларимиз барча соҳаларда ўз истеъдод ва қобилиятини тўла намоён этиб, ҳуқуқ ва эркинликларини рўёбга чиқариш учун беқиёс имкониятларидан самарали фойдаланмоқда. Айтиш жоизки, соғлом ва баркамол авлодни вояга етказиш орзуси айнан мустақиллик билан боғлиқ эзгу интилишдир. Ҳар қандай жамият тараққиётида унинг келажагини таъминлайдиган ёш авлоднинг соғлом ва баркамол бўлиб вояга етиши ҳал қилувчи ўрин тутди. Шу сабабли биз ислохотларимиз кўлами ва самарасини янада оширишда ҳар томонлама етук, замонавий билим ва ҳунарларни пухта эгаллаган, азму шижоатли, ташаббускор ёшларимизга таянамиз. "Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобур,



Зулфияхонимларларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим. Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз олдига катта марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимиз халқимизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга айланади²³. Ўқитишнинг таълимий, ривожлантирувчи ва тарбиявий мақсадлар бирлигини кучайтириш орқали ёшларнинг ижодий қобилиятларини ўстириб бориш муҳим вазифадир. Уларнинг онги ва қалбига она-Ватанга муҳаббат, юртга садоқат ғояларини чуқур сингдириш лозим. Ёшларнинг миллий ғурур, ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш, бой маданий – тарихий меросимизнинг муносиб ворисларини вояга етказиш, миллат ва жамият тараққиёти учун аждодлар ҳаёт тажрибаси, билим ва тафаккури, яратган моддий ва маънавий бойликлари ишончли, мустаҳкам таянч бўлиб хизмат қилади. Комилликка элтувчи йўл эзгу фикрлар ва эзгу амалларга таяниш, илм – маърифатга интилиш орқали намоён бўлади. Барча фазилатлар манбаини ўқиш, ўрганиш ва маърифат ташкил этади. Бу борада ёшларнинг тафаккур мустақиллигини кучайтиришга доир турли топшириқлар бериш, машқлар бажаришнинг аҳамияти жуда каттадир. Масалан: “Мустақил Ўзбекистон” ҳақида фикр изҳор этиш мумкин. Она - ватанимиз Ўзбекистон заминида яшашимиздан биз ёшлар бахтлимиз. Танимиз қалбимизда шодлик ва рухий озодликдан яйрайди. Абдулла Авлонийнинг таъкидлашича, “Ватан туйғуси энг инсоний, энг мўътабар туйғулардан бири. Ватанни шунчаки севиш мумкин эмас. Унинг дарди билан яшамоқ, унинг бахтидан қувонмоқ, у билан фахрланиш керак. Ватан онадек муқаддас”²⁴. Истиклол куёши ўзининг заррин нурларини мустақил Ўзбекистоннинг гуллаган чаманзорларига таратмоқда. Мустақил заминда туғилган гўдак жонажон масканида яйраб, ғурур, ифтихор ила камол топмоқда. Биз бошимизни мағрур тутган ҳолда Ватан ишқида ёниб яшаймиз. Истиклол нурини авайлаб - асраб шу азиз Ватанга қалқон бўламиз. Боболаримиз орзу қилган ва кимгадир армонга айланган бу ҳур кунларда шодон бўлиб, мустақилликнинг қадрига етиб яшаймиз. Темур бобомиз руҳи бизни қўллағай. Аждодларимизнинг матонати ҳеч қачон ўлмайди. Биз уларга доимо содиқ ва вафодор қиз - ўғлонлар бўламиз. Ватан - бизга онадек азиз. Унинг боғларини яшнатиб гулзор этамиз. Метин кўрғон бўлиб, тинчлигини сақлаймиз ва ёвлардан ҳимоя қиламиз. Азамат халқимиз бир мақсад йўлида бўлиб, меҳнатда зафарларга эришадилар. Шу сабаб она - заминимизнинг бир кафт тупроғини кўзимизга суриб, элимизга мадакор бўламиз, юртимиз қадрига етамиз. Озод, обод Ватан, тинч фаровон ҳаёт қурмоқдамиз. Энди бутунлай озодмиз. Биз ҳеч кимдан ҳеч қачон кам

²³Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга

Мурожаатномаси 29.12.2020

²⁴.А.Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”. –Т.: “Ўқитувчи”, 1993. 17-бет.



эмасмиз ва кам бўлмаймиз энди ҳеч қачон ортга қайтиш йўқ. Ватанни асраш улуғ ишимиздир. "Ўзбекистон - ягона Ватан" деган юксак гўзал ҳис - туйғуни онгимиз ва қалбимиздан жонли ҳис этамиз. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев айтганидек: "Ҳеч қачон унутмайлик, гўзал ва бетакрор Ўзбекистон барчамизники экан, унинг тақдири ва келажаги учун барчамиз масъулмиз"²⁵.

Бу бизнинг келажақтаги эзгу - ниятларимизни рўёбга чиқаришга имкон беради. Ёшларнинг бу каби фикрлари уларнинг мустақилликни янада чуқурроқ ҳис этишига ёрдам беради. Бундан ташқари ҳарбий хизматчиларнинг мустақиллик туйғусини кучайтириш мақсадида "Фикрлаш харитаси"дан фойдаланишнинг аҳамияти каттадир. У ўз ичига асосий тушунча, савол ва белгиларни қамраб олган бўлакчалардан иборатдир. Бундай тушунчалар орасида йўналтирувчи ва аниқловчи саволлар орқали унга мос жавоблар тарзидаги белгилар қўйилади. "Фикрлаш харитаси" ғояларнинг зарурати ва аҳамиятини ихчам кўринишда тартибга келтиради. Бу ҳолат ёшларни чуқур фикрлашга ундайди. Масалан: "Мустақиллик туйғуси" тўғрисида фикр юритиш мумкин. Ватанни асраш улуғ ишдир. "Ўзбекистон- ягона Ватан" деган юксак гўзал ҳис туйғуни ёшларнинг онгли равишда қалбдан жонли ҳис этиши уларнинг келажақтаги эзгу ниятларини рўёбга чиқишига имкон беради. Ёшларнинг мустақиллик туйғуси, ишонч, эътиқодини кучайтириш мақсадида фикрлаш харитаси"дан фойдаланишнинг аҳамияти каттадир. У ўз ичига асосий тушунча, савол ва белгаларни қамраб олган бўлакчалардан иборатдир. Бундай тушунчалар орасида йўналтирувчи ва аниқловчи саволлар орқали унга мос жавоблар тарзидаги белгилар қўйилади. "Фикрлаш харитаси" ғояларнинг зарурати ва аҳамиятини ихчам кўринишда тартибга келтиради ва ёшларни чуқур фикрлашга ундайди. "Фикрлаш харитаси"Мустақиллик нима? Тенглараго тенг бўлиш, эркин ҳаёт кечириш, ҳеч кимга қарам бўлмаслик, ўз ҳуқуқига эга бўлиш.Мустақиллик нимани яратади? Миллий мафқурани. Мустақиллик нимага эга бўлади? Конституция, герб, байроқ, мадҳия, давлат тили, миллий пулига.Мустақилликда нима қарор топади? Адолат, диёнат, эркинлик, меҳр-муҳаббат, тенглик. Мустақилликдан нимани англайди? Ўзликни Мустақиллик нимани асрайди? Ер, ўсимлик, ҳайвонот дунёси, ер ости дунёси, миллий бойлигини. Мустақиллик нимани ташкил этади? Демократик давлат тизимини ва ҳоказо. Ёшларнинг мустақил фикр юритиши - уларнинг ўз-ўзини англаши, онги, тафаккурини шаклланиши асосида бутун ҳатти-ҳаракатининг тартибга келишида ва ижтимоий муносабатлар доирасига кириша олишида намоён бўлади. Бу жараёнда уларнинг онги ташқи оламга боғлиқликда, бир мақсадга қаратилган ҳолда шаклланади. Демак, ёшларда аввало, ҳиссий таъсирчанлик кучайса, сўнгра, идрок этишнинг такомиллашуви юзага келади. Аста-секин тафаккур, диққат, хотира ва нарсаларнинг ривожланиши қонуниятларини яхши тушунишига кенг йўл очилади.

3.Мирзиёев Ш.М. Юксак таърифларга муносиб замин Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз.-Т.: "Ўзбекистон", 2017.- Б.406.



Хулоса. Шоира Зулфиянинг ҳаёти, ижодини ўрганиш, ўзлаштириш асосида ёшларнинг амалий ҳаётда мустақиллик кўрсатиши, ўз олдига аниқ вазифаларни қўя олиши, уларни ички иштиёқ билан бажаришни англаши, ўз-ўзини тарбиялаши каби истагининг вужудга келиши кузатилади. Шу тариқа уларнинг мустақил фаолияти, ижодий фаоллигини юзага келтирувчи кўникмалари ҳосил бўлади. Натижада ҳар қандай фаолиятдаги вазифаларни мустақил ҳал этишга эришилади. Шунга кўра, ёшларнинг интилиши ва мустақил фаолиятини онгли ва аниқ мақсадни кўзлаб режалаштириш ва йўналтириш, бу борада уларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олиш ва турли фаолият юзасидан тушунча, кўрсатма, маслаҳатлар бериш мақсадга мувофиқ бўлади. Юртимизда ҳуқуқий-демократик давлат ва фуқаролик жамияти куриш халқимизнинг асосий мақсадидир. Бу борада ҳамкор, ҳамфикр, фаол, фидойи, ташаббускор, ижодкорлик ва ихтирочилик асосида инновацион фаолият юритиш ҳамда шоира Зулфияхоним шеъриятидан фахрланиш, завқланиш таъсирида ундан аниқ хулосалар чиқариш орқали юксак муваффақиятларга эришиш мумкин.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 29.12.2020
2. А.Авлоний "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ". –Т.: "Ўқитувчи", 1993. 17-бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Юксак таърифларга муносиб замин Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. –Т.: "Ўзбекистон", 2017. – Б.406.
4. Зулфия. Асарлар. 3-жилд. Камалак. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 125-126.
5. Зулфия. Адабий ўйлар. – Тошкент: Фаң, 1985. – Б. 4.
6. Зулфия. Хотирам синиқлари. Сайланма. Нашрга тайёрловчилар: Хулкар Олимжонова, Омон Олимжонов. – Тошкент: "Sharq" нашриёти, 2015.



Бешимова Дилафрўз Исломовна

*Тошкент Тиббиёт Академияси Тиббий профилактика ва жамоат саломатлиги,
экология ва атроф муҳит муҳофазаси ва кимё факултети 304-гуруҳ талабаси*

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек шоираси Зулфияхонимнинг ҳаёт йўли, серқирра ижоди ёритилган бўлиб, ўзбек адабиётидаги забардаст ўрни кенг талқин қилинган ва ўрганилган. Зулфиянинг ижодидаги муҳаббат, садоқат, маърифат ва инсонпарварлик каби сифатлари ёрқин очиб берилган.

Калит сўзлар: Зулфия, Ҳамид олимжон, шеърият, шеър, баҳор, адабиёт, меҳр, садоқат, муҳаббат, соғинч, маънавий қиёфа, гўзаллик, инсонийлик.

Зулфияхоним ҳаёти ва ижоди ҳақидаги қизиқарли маълумотлар билан танишган ҳар бир инсон ўзида чексиз мамнунликни ҳис этади. Зулфияхонимга атаб ёзилган шеърлар, улар шаънига айтилган эъзозли сўзлар, бадий - эстетик фикрларни баён этиш орқали олам қадар завқланиш мумкин. Зулфиянинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш орқали унинг ҳурмати, қадру - қимматини осмон қадар кенг ва бепаён эканлигини англаш лозим. Аёл борки олам мунаввар ёхуд олам гўзаллиги Зулфияхонимда мужассам. Унинг ўрни беминнат, фаолияти ҳамма жойда улуғланади. Зулфияхоним том маънода маънавиятли, баркамол комил инсондир. Унинг оилада фарзандларига сингдирган тарбиясида ибрат ва намунали мактаб мавжуд. Унда Ватанга, ота онага содиқлик, фидойилик, меҳр-муҳаббат, ўзаро ҳурмат, соғлом дунёқараш, хулқ-атвор, одоб-ахлоқ каби юксак инсоний фазилатлар мужассамланган. Шу жиҳатдан ҳам Зулфияхоним оилада тарбиячи, мураббий аёл бўлган. Фарзандларига тўғри тарбия бериш, уларни она юртига, Ватанига фидойилик руҳида тарбиялашдек муҳим ишлар кўпроқ уларнинг зиммасида бўлиб, болаларини ёшлигиданоқ меҳнатсевар, илмга чанқоқ шахс сифатида тарбиялаганлар. Бунда Зулфияхонимнинг ўзгача янгича фикрлаш, чуқур тафаккур қилишини жуда яхши ҳис этиш мумкин. Дарҳақиқат, келажакни ўйлаган, нурли истиқболни кўзлаган Зулфияхоним доимо эъзозда. Унинг жамолидан таралган нур, гўзаллик ҳамиша оламни мунаввар этган. Юртимиз равнақига сайқал берган. Бу дунёда Зулфияхонимдек аёллар, оналар борки, улар яхшилик, эзгулик, меҳр-оқибат, тирикликнинг устун бўлаверадилар. Улар борки, хонадонимиз тинч-осоишта, саранжом-саришта, юртимизда файзу-барака ҳукмрондир. Зулфияхонимнинг ҳурмати, қадру-қиммати осмон қадар кенг ва бепаёндир. Ёшлар бахтини нақадар улуғ бўлиши аввало аёлларга боғлиқдир. Аёл доно бўлса оила тинч бўлади, оила тинч бўлса, жамиятимизда ҳам тинчлик, ҳамжиҳатлик, осойишталик ва барқарорлик ҳукм суради. Авлоди баркамол ўсган элнинг келажаги ёруғдир. Зулфияхонимнинг энг яхши фазилатларидан бири унинг сабр-тоқатлилигидир. Шунинг учун ҳам уни гўзаллик тимсоли дейиш ҳам мумкин.



Унинг ижодини, инсонийлик фазилатларини, ўзбек адабиётига қўшган ҳиссаси ҳақида қанча гапирсак ҳам кам. Зулфияхоним лсроилова-таниқли ва иқтидорли ўзбек шоираси. Зулфияхоним шеърлари чуқур маънога эга бўлган истедод соҳибаси ҳисобланади. Зулфияхоним аёллик иффатини, нозикликни, ибо-ҳаёни, илмни шунингдек барча яхши ҳислатларни ўзида мужассамлаштирган ўзбек аёлидир. Гўзалик тимсоли деб Зулфияхонимни олсак муболаға бўлмайди, чунки унинг ҳаракатлари яни ижодкорлиги, қалбнинг поклиги давримизнинг ҳаққоний ифодаси ҳисобланади. Биз қизлар ва халқимиз аёллар Зулфияхонимдан андоза олсак арзийди. Зулфияхонимнинг туғма ижодкорлиги, тиришқоқлиги ва меҳнатсеварлиги тақсинга сазовор.

Зулфия — ижодий меҳнатга жуда жиддий қараган, ўзига нисбатан талабчан, ҳар бир асарини ўқувчига ҳавола этишдан аввал қайта-қайта ишлаб, тобига етказадиган ижодкорлардан. Бу деган сўз унинг шеърлари орасида тез, бир иафасда битилганлари йўқ деган сўз эмас. Баъзан шоирга ҳаяжон ва кечинмаларнинг мисраларга келиб куйилишига бир кичик туртки кифоядек туюлади.

Ўзбек аёлининг маънавий ва мукаммал киёфасини акс эттирган, садоқат, ҳалоллик ва вафо куйчисига айланган аёл, рафиқа, она ҳамда шоирадир. Зеро, у хотин-қизлар истикболи йўлида курашиб келган жамоат арбоби, неча неча қизнинг қўлидан тутиб, адабиёт даргоҳига бошла келган, уларга йўл-йўриқ кўрсатган меҳрибон, аммо талабчан устоз, нозиктаъб, зукко аёл, садоқатли ёр, меҳрибон она эди.

Қанча севар эдинг, бағрим, баҳорни,

Ўрик гулларининг эдинг мафтунни.

Ҳар уйғонган куртак ҳаёт берган каби

Кўзларингга суртиб ўпардинг уни.

Зулфияхонимнинг Ҳамид Олимжонга бўлган муҳаббати ва садоқати чексиз эди. Ўрик гулларига мафтун бўлиб, шаънига шеърлар битган, баҳорда уйғонган ҳар бир куртак гўё унга ҳаёт бергандай кўзларига суртиб ўпадиган одамнинг табиати, ҳиссиёт оламини сезгандай бўлади. Баҳорнинг уни излаб сарсари кезишини ҳам бу шахснинг қандайлигини кўрсатувчи белги дейиш мумкин. Шеърда баҳорнинг ҳолати: “Қишнинг ёқасидан тутиб сўради сени, Ул ҳам ёш тўқди-ю чекилди нари” мисралари орқали берилиши кўкламга муҳаббат қўйиб, уни ҳам ўзига шайдо қилган шахс табиати ҳақида муайян тасаввур уйғотади. Баҳорнинг қиш ёқасидан тутиши шоира кўнгил ҳолатини ифодалаш билан бирга яралиш фасли кўкламнинг йўқотиш фасли қишга муносабатини ҳам акс эттиради. Оламни рамзий идрок этишга одатланган халқимизнинг бадий тажрибаси бу ўринда “қиш” тимсоли ўлим рамзи сифатида келаётганлигини англатади. Қишнинг баҳор берган ҳақ саволга жавоб тополмай кўз ёши то‘киши, нари чекиниши билан лирик қаҳрамоннинг кўклам ели сўроқлари қошида лол қолиш ҳолатидаги уйғунлик тасвири шеърхонни ўзига ром этади. Ўқирман ўз хусну кўркини кўрсатмоқчи бўлиб шоир йигитни боғлардан, яшил қирғоқлардан кидирган шаббоданинг уни тополмагач, қаҳр билан бо‘ронга айланиб жарликларга бош олиб кетиши, аламдан тоғларнинг тошини сойларга қулатиши тасвирини табиий



акслантиради. Сезгир ўқирман лирик қаҳрамоннинг яноқлари, за'фаронлиги, сабаблари тўғрисида ҳам ўйга толади. Зулфиянинг "Сен қайдасан, юрагим" шеъри Ҳамид Олимжон вафотидан бир йил ўтгач ёзилган бо'либ унда ҳижрон ўтида қоврилаётган аламдийда аёлнинг чин туйғулари ёрқин акс эттирилган. Ўқувчини шеърнинг оҳанги ўзига жалб этади. Мазмуни ғамдан иборат шеърнинг оҳанги ҳам ғамгин. Бу оҳангда адоқсиз ғам оғушидаги шоиранинг шикаста овози, йўқсил руҳи акс этади. Ҳазин оҳанг ўқирман туйғулари кўзини очиб, шеър руҳи туйилишини осонлаштиради. Зулфия учун Ҳамид Олимжон ҳам севимли ёр, ҳам маслакдош дўст, ҳам устоз эди. Зулфияхоним шоир билан бирга кечган ана шу бахтли йилларда ҳар қандай истеъдод доимий меҳнат туфайли чархланиши, ҳақиқий санъаткор буюк меҳнат интизомига эга бўлиши лозимлигини кўрди. Ҳамид Олимжон ҳар қандай шароитда ҳам соат 6 дан 11 га қадар уйда ижод билан шуғулланар, сўнг ҳали сиёҳи қурмаган асарини овоз чиқариб ўқи ва унинг қандай жаранглашини текшиб кўрар эди. Зулфия ўзининг ҳар бир шеърини унинг назаридан ўтказар, аммо Ҳамид Олимжон бу шеърларга қалам урмас, балки улардаги кучли ва кучсиз сатрларни кўрсатар, тушунтирар эди. Улкан шоир, нодир инсоний фазилатлар соҳиби Ҳамид Олимжон Зулфияга ҳар томонлама ўрнатқан бўла олди биз издошлар учун. У ажойиб шоирдан фикрлашни, меҳнат қилишни ва шеър ёзишни ҳам, дўстларга меҳрибон, душманга шафқатсиз бўлишни ҳам ўрганди, унинг ижодий мактабида таълим лди. Ҳамид Олимжон шу маънода Зулфиянинг қалбига уйғун ҳамроҳи ва сезгир маслаҳатчиси. Барча бахтиёр кишилар бир-бирларига ўхшайдилар. Бахтиёр инсон дилнавоз ошиқ ёки маъшуқага ўз қалбининг биллур туйғуларини нисор этади. Зулфия ҳам Ҳамид Олимжон ҳам ўша чарағон йилларда қалб кўрини, меҳр-муҳаббат тафтини бир-бирларидан сира аямадилар. Бу, икки шоирнинг ўзаро ҳурмат ва муҳаббат асосланган иттифоқи эди. Бу даврда Зулфия ижоди баҳор чоғларидаги қорли чўққилардан эндигини пайдо бўлаётган кичик бир жилға эди. Кунлар, ойлар, йиллар ўтиб, бу жилғанинг улкан бир дарёга айланиши муқаррар эди.

Хулоса: Зулфия Исроилова деганда дафъатан кўз олдимизда турфа чечаклар билан зийнатланган бир чаманзор намоён бўлади. Унинг шеърляти бутун жаҳон минбарларидан янграган. Шоира чин ўзбек қизи, ўзбек онаси, матонатли аёл садоқат ва муҳаббат куйчиси, баҳор шабадаси бўлиб қалбларда мангу яшайди. Унинг ибратли ҳаёти, беътакрор истеъдоди биз издошлар учун юксак ўрнатқан бўла олади. Зулфия шеърлятида лирика билан публитсистик руҳ ўзаро чамбарчас боғланган. Унда ҳаётга, инсониятга, эзгуликка муҳаббат туйғуси уфуриб туради. «Мен шеърларимнинг бир мавзу атрофида чекланиб қолишини истамайман», деганди Зулфия. Унинг лирикаси чиндан ҳам кўп овозли. Бу оҳангларнинг энг муҳими ва жарангдорини бахтиёрлик ва ҳижрон, ғам-фожеийлик ташкил этади: Маъюси ҳам, ёрқини ҳам бор Тупрок, ҳаёт, юрак бу ахир—дейди у. Ижодида мана шундай фиғонли, жўшқин ва қалбни жумбушга келтирадиган гўзал сатрлар ифода этилган.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. Х.Сулаймонова "Зулфия ҳаёти ва ижоди" "Ўқитувчи"-Тошкент-1980 17-бет
2. Қаюмов Л. Шоира Зулфия. Тошкент, О'задабийнашр, 1965.
3. Зулфия Исроилова асарлари, китоблари- Китобхон.сом 3-б.
4. Зулфия (1965). Юрак. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт.
5. Каримова, Д. (2023). Зулфия ва ёш ижодкорлар. Тошкент: Маънавият
нашриёти.
6. Раҳимова, М. (2021). Зулфия ижоди ва унинг ўрганилиши. Бухоро:
Адабиётшунослик институти.



Бешимова Дилафрўз Исломовна

*Тошкент тиббиёт академияси "Тиббий профилактика ва жамоат саломатлиги"
факультети 304 а гуруҳ талабаси*

Аннотация: *Зулфия ижодининг янгича илмий қараилари таҳлил этилди. Шоира Зулфиянинг ижодига таъсир этувчи реал борлиқни ўзлаштириши жараёни ўрганилди. Сўзни илҳом, туйғуни завқ, фикрни дард бошқаришига хос имкониятлар аниқланди. Шунингдек, Зулфия шеърятининг таъсирчан жиҳатлари юзасидан илмий -амалий тавсиялар берилди.*

Калит сўзлар: *Ижодий фикр, тафаккур, иқтидор, табиийлик, меҳнатсеварлик, фаоллик, ҳаёт гўзаллиги, ижтимоий ҳаёт, самимийлик, садоқат.*

Зулфия Исроилова — таниқли ва иқтидорли ўзбек шоираси. У оддий инсон қалбини ўткир ҳис этган - меҳнатқаш, Шарқ аёлининг жамиятдаги тенг ҳуқуқи учун мардонавар курашган аёл. Зулфия шеърятининг нуфузи — бизнинг дабдабали мураккаб давримизнинг ҳаққоний ифодаси бўлиб, замондошларимизнинг қалби ва ҳаракатларининг ўзига хос ёрқин тасвиридадир.

Зулфия (1915 - 1996) ҳунарманд-дегресчи оиласида Тошкентда туғилган.

Ота-онаси юқори маданиятли одамлар бўлишган. Онам хотирамда сақланишича, оҳиста ва маъюс бўлганлар. Лекин уларда қуллик ҳорғинлиги бўлмаган... Улар қанчадан-қанча қўшиқ ва афсоналарни билганлар, уларни моҳирона айтиб, қуйлаб бера олганлар. Биз фарзандларини сеҳрли ертақлар билан қизиқтира олганлар, - дея эслайдилар.

Зулфия, онасини хотирлар экан. - Мўъжизаларга сабаб бўлувчи, дунёни фаш қилувчи, инсониятни ажойиботлар сари етакловчи "сўз" га бўлган меҳрни оддийгина аёл - онам уйғотганлар деб таъкидланганлар. Табиийки, онамлар фарзандлари ўқимишли, маданиятли инсонлар бўлишини истаганлар. Уларнинг орзуси рўёбга чиқди ҳам. Зулфия ўрта мактабни ва аёллар педагогика билим юртини тамомлаб, республика газета ва ойномалари нашриётида иш фаолиятини бошлади, шеърятга қизиқиб қолди ва шеърлар ёза бошлади. Унинг илк шеърлари "Янги йўл" ойномаси ва "Қизил Ўзбекистон" газеталарида чоп этила бошлаган.

1932 йил 17 ёшни қарши олганида, унинг "Ҳаёт саҳифалари" номли илк шеърый тўплами омма юзини кўрди. Булар — ёшлар, дўстлик, инсон қалбининг гўзаллиги ҳақидаги шеърлар еди. Сўнгра, шеърлари, достонлари ва ҳикоялари еътироф қилиниб, турли нашрларда алоҳида китоблар кўринишида чоп этила бошлади.

1938 йилдан у турли йирик нашриётларда ишлайди, республика ва республикалараро ҳар хил ташкилотлар аъзосига айланади.

Унинг шеърятда меҳнат мавзуси устунроқ ўрин егаллайди. У мамлакат саодати учун ўз кучини сарфлаётган пахтачиларни ва ишчиларни, муҳандис ва олимларни



тараннум этади. Зулфия одамларни, уларнинг бахтини бутун Ўзбекистон мамлакатидан ажратмайди.

Зулфия ижодида ўзбек аёлининг тақдири муҳим ўрин егаллайди, унинг мамлакат ҳаётидаги фаол ўрни муҳим аҳамият касб этади. Зулфия узоқ ўтмишда аёл ўрни уй-рўзгор юмушлари доирасида бўлганлигини, уйда ҳам бек, ҳам ҳукмдор бўлган ерига итоатли чўри бўлиб, бош егиши лозим бўлганлигини яширмайди.

Зулфия шеърияти табиатга ҳамда унинг ажралмас қисми ва юқори чўққиси бўлмиш одамзотга нисбатан ҳаяжонли севги билан бурканган. Унинг шеърларида табиат оч рангларда, ёрқин бўёқ ва тимсолларда гавдаланади.

Зулфиянинг олижаноблик, жасорат, ҳаққоний халқ ғурури, табиат ва инсонга нисбатан самимий туйғулар ва ҳурмат, бой ранглар ва кутилмаган янги тимсоллар билан бажарилган лирикаси, китобхон қалбини ларзага келтиради, инсониятнинг келажакка бўлган ишончини мустаҳкамлайди.

Иқтидорли шоира ва ёзувчи, инсон қалб тугёнларини ўткир билимдонлиги унинг турли жанрларда асарлар яратган: дostonлар, балладалар, элегиялар, насрий шеърлар, ҳикоялар, очерклар, публицистик мақолалар ва газета хабарларида ўз аксини топади.

Бу шеърларнинг барчаси ёшлик сурури, ҳалол меҳнат, келажакка доимо умид билан қараш кайфиятлари билан сугорилган эди. Шеърият оламидаги илк қадамларининг устозлар ва шеърият ихлосмандлари томонидан илиқ кутиб олиниши ёш шоирага катта далда бўлди. Бироқ, Зулфия мақтовлардан талтайиб кетмади, гангиб қолмади. Умуман, шоира ёшлик йиллариданоқ ўз ижодига талабчанлик билан, керак бўлса, танқидий ёндашишга одатланган эди.

“20-30 шеър ёзиб, газета-журналларда бостирган одам, – шоир бўлавермайди, албатта, – дейди Зулфия ўз таржимайи ҳолида. – Буни ёшликда англаш қийин. Мен ҳам кўп ёздим, шеърларимда маълум адабий ташбеҳлар такрорланаётганини пайқамасдим. Шу боис биринчи тўпламимни таваккал “Ҳаёт варақлари” деб атаганман” 2, 125-126].

Биринчи китобнинг муваффақияти ёш шоирани янада ишлашга ундади. У халқ қалбига, китобхонлар кўнглига йўл топиш учун ҳали анчагина бадиият сирларини ўрганиш кераклигини юракдан ҳис қила борди.

Таниқли рус шоираси Марина Светаева: “Шеърият – энг кам сўз билан ифодалаш санъатидир” деб ёзган эди. Бошқирд шоири Муса Ғали эса ўз шеърларининг бирида шеъриятни софлик, қудрат ва жасорат деб атаган. Зулфия қаламкаш дўстларининг шеърият ҳақидаги бу сўзларини шарҳлаб, “ҳақиқатан ҳам, жасорат йўқ жойда шеъриятни пайқамайдилар ҳам, қудрат йўқ жойда эса шеърият ҳам йўқдир. Шеъриятнинг ана шу фазилатлари ўзаро қаттиқ алоқадор, ўзаро боғланган, бир-бирини тақозо этади”, дейди. У шеъриятнинг мангу жозиба қудратини ана шу уч нарсада – софлик, қудрат ва жасоратда кўради.

Зулфия наздида лирика шоирдан жуда катта самимият ва меҳнатни талаб қилади. Ҳар бир шеърий асарнинг вужудга келишида юракнинг иштироки ниҳоятда фаол бўлиб, у – шоир юраги – асарнинг ҳар бир хужайрасига қон ва жон бағишлаб туради. Шу билан бирга бу юрак, айна пайтда, кўпчиликнинг орзу ва интилишларини, дард ва



изтиробларини ҳам ифодалай олиши, улар билан пайваста бўла олиши талаб этилади. Шундагина, ҳаётий туйғулар замирида воқе бўлган, чуқур фикр ва самимий ҳиссиётлар эвазига яратилган шеър китобхоннинг қалбидан жой олади, унга руҳий ва эстетик озиқ беради, унинг илҳом манбаига айланади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, Зулфия ижодида унинг янгича илмий қарашлари ва истеъдодини шаклланишида туғма гоё каби янги илмий атамалар билан ёндашганлиги маълум бўлади. Туғилган жойи, ўсиб – улғайган муҳити шоирнинг фақат тақдирига эмас, балки унинг ижодига ҳам таъсир ўтказади. Улар борлиқни интим тарзда ўзлаштириш ва ўзгартиришга ёрдам беради, тасаввур ва тафаккурга бир бутунлик бағишлайди. “Сўзни илҳом, туйғуни завқ, фикрни дард бошқаришига имконият яратилади. Демак, Зулфия ижоди борасида сўз кетганда, унинг шеъриятидаги сўзни ҳам, туйғуни ҳам, фикрни ҳам дард бошқарган десак, хато бўлмайди. Таъкидлаш жоизки, табиат асосидаги тўрт унсур – сув, ўт, ҳаво, тупроқ ҳақиқий ижодкорнинг тасаввур гормонларидир. Ушбу стихиялар онгда ўз динамик ҳаракатига эга бўлиб, улар образлар жамланмасини ҳаракатга солади. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Зулфия ижодининг илк даврида “ўт”, “олов”, “нур”, ижодининг иккинчи босқичида “ҳижрон ва айрилиқ”, “вафо ва садоқат”, ижодининг сўнгги даврида “озодлик”, “истиклол” тушунчалари тасаввур гормонларини ҳаракатга солган асослар сифатида кўзга ташланади. Таъкидлаш жоизки, табиат асосидаги тўрт унсур – сув, ўт, ҳаво, тупроқ ҳақиқий ижодкорнинг тасаввур гормонларидир. Ушбу стихиялар онгда ўз динамик ҳаракатига эга бўлиб, улар образлар жамланмасини ҳаракатга солади. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Зулфия ижодининг илк даврида “ўт”, “олов”, “нур”, ижодининг иккинчи босқичида “ҳижрон ва айрилиқ”, “вафо ва садоқат”, ижодининг сўнгги даврида “озодлик”, “истиклол” тушунчалари тасаввур гормонларини ҳаракатга солган асослар сифатида кўзга ташланади. Дарҳақиқат, “Зулфия шеърияти ўзи бир дунё. Унинг эшикларини очиб, кириб бораверсангиз, гуллар бағрида уйғонган бир гиламзор, ғам шамоллари кира олмаган бир кенгликлар, нурларга чайилган мўжизавий бир олам сизни бағрига олаётгандай бўлади. Бундан армоннинг кўнгли ситилиб кетади, кўнгил тинчийди, қалбингиз ором олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Х.Сулаймонова “Зулфия ҳаёти ва ижоди” “Ўқитувчи”-Тошкент-1980 17-бет
2. Қаюмов Л. Шоира Зулфия. Тошкент, О‘задабийнашр, 1965.
3. Зулфия Исроилова асарлари, китоблари- Китобхон.ком 3-б.
4. Зулфия (1965). Юрак. Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт.
5. Каримова, Д. (2023). Зулфия ва ёш ижодкорлар. Тошкент: Маънавият нашриёти.
6. Раҳимова, М. (2021). Зулфия ижоди ва унинг ўрганилиши. Бухоро: Адабиётшунослик институти.



YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JADID MUTAFAKKIRLARI QARASHLARINING IJTIMOY-FALSAFIY OMILLARI

Pulatov Baxodir Abduraupovich

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i

O'ktamov Yodgorbek Ulug'bek o'g'li

Raxmatullayev Azizbek Ulug'bek o'g'li

Harbiy ta'lim fakulteti talabalari

Annotatsiya: Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadid mutafakkirlari qarashlari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning ta'lim va ma'rifatga oid g'oyalari yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularda milliy o'zlikni anglashni kuchaytirgan. Jadidchilik harakati millatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarni ilm va ma'rifat orqali yuksaltirishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlarni tarbiyalash, vatanparvarlik, jadid mutafakkirlari, ma'rifat, milliy o'zlik, ta'lim.

Аннотация: В воспитании молодежи в духе патриотизма взгляды джадидских мыслителей играют важную роль. Их идеи в области образования и просвещения расширяли мировоззрение молодежи и усиливали осознание национальной идентичности. Джадидизм как движение имел большое значение для будущего нации и ставил целью повышение молодежи через знания и просвещение.

Ключевые слова: Воспитание молодежи, патриотизм, джадидские мыслители, просвещение, национальная идентичность, образование.

Annotation: In the upbringing of youth in the spirit of patriotism, the views of the Jadid thinkers play an important role. Their ideas in the fields of education and enlightenment broadened the worldview of the youth and strengthened their sense of national identity. The Jadid movement was of great significance for the future of the nation and aimed at uplifting the youth through knowledge and enlightenment.

Keywords: Upbringing of youth, patriotism, Jadid thinkers, enlightenment, national identity, education.

KIRISH

Jadid mutafakkirlari, o'z vaqtida zamon talablariga javob beradigan yangi ta'lim tizimini yaratish maqsadida, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, har bir insonning kelajagi uning bilim olishida va to'g'ri ma'rifat olishida yotadi. Ular yoshlarni faqatgina ilm bilan qurollantirishni emas, balki ularning milliy ruhda, vatanparvar bo'lib ulg'ayishiga ham katta ahamiyat berganlar. Jadid mutafakkirlari ta'limni faqat ilmiy bilimlar bilan chegaralab qo'ymasdan, shu bilan birga, yoshlarni ijtimoiy, axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashni ham maqsad qilganlar. Bu yondashuvning natijasida, yangi o'quv dasturlari, maktablarda o'rganiladigan fanlar, yoshlarning faolligini oshirishga, ularning milliy o'zligini anglashiga yordam bergan. Jadidchilik harakati o'zining ta'lim va ma'rifatga bo'lgan yondashuvi bilan nafaqat o'z davrining, balki kelajakning ham ta'lim tizimini shakllantirishda katta rol o'ynagan. Yoshlar



orasida vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, ilm-fan va ma'rifatga qiziqish uyg'otish, jadid mutafakkirlarining eng asosiy g'oyalaridan biri bo'lgan. Shu tariqa, ular yoshlarni yangi fikrlash tarziga, bilim olishga va o'z vataniga muhabbat bilan tarbiyalashga xizmat qilganlar. Jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ta'lim metodlari, ayniqsa, yoshlarni faqat ilm olishga emas, balki jamiyatda o'z o'rnini topishga, o'z millatiga xizmat qilishga ham yo'naltirgan. Bu esa kelajakda millatning mustahkam poydevori, rivojlanishining poydevori bo'lib, yoshlarning bilimga, ma'rifatga, vatanparvarlikka bo'lgan munosabatini shakllantirgan. Jadidchilik harakati yoshlarni ilm-fan va ma'rifat orqali yuksaltirishni, ularda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglashni, jamiyatga foydali va faol fuqarolar bo'lib ulg'ayishni maqsad qilgan. Bu esa o'z navbatida, millatning kelajagi va rivojlanishining poydevorini yaratishda juda muhim omil bo'lgan. Jadid mutafakkirlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, birinchi navbatda, ta'limning ahamiyatini tushunib, uni milliy manfaatlarga xizmat qiladigan tarzda shakllantirishga harakat qilishgan. Ular faqat ilm-fanni emas, balki yoshlarni axloqiy qadriyatlar, xalq an'analari va madaniyatga hurmat bilan qarashga ham undashgan.

Asosiy qism

Jadid mutafakkirlari, o'z davrining siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga javoban, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o'zlarining asosiy g'oyalaridan biri sifatida belgilashgan. Ular, yoshlarni ilm va ma'rifatga intilish, o'z millatining tarixini va madaniyatini hurmat qilish bilan birga, ularni zamonaviy dunyoqarash va ijtimoiy ongni shakllantirishga qaratganlar. Jadidchilik harakati ta'limni faqat ilmiy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy jihatlardan ham tarbiyalashni maqsad qilgan.

Jadid mutafakkirlari ta'lim jarayonini yangilashga intilib, zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etishga harakat qilishgan. Ular, yoshlarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularning tafakkurini kengaytirish, erkin fikrlashga undash va milliy o'zlikni anglashga yo'naltirishda o'z g'oyalarini ilgari surishgan. Jadidchilik harakati, ayniqsa, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarida yoshlarni ilg'or fikrlarni o'zlashtirishga, zamonaviy bilimlarni o'rganishga chaqirdi. Ta'lim tizimida ularga yangi bilimlar, yangicha fikrlash va mustaqil tafakkurni rivojlantirishni maqsad qilgan jadid mutafakkirlari, o'z o'quv dasturlarida, yoshlarning zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlaydigan metodlarni taklif etishgan.

Jadidchilik harakati yoshlarni nafaqat ilmga, balki ijtimoiy faollikka, milliy g'ururga, vatanparvarlikka va axloqiy tozalikka yo'naltirishga katta e'tibor bergan. Ta'limni milliy qadriyatlar bilan boyitish, yoshlarni o'z xalqining madaniy merosini anglashga, milliy madaniyatni asrab-avaylashga undash, jadid mutafakkirlarining g'oyalari orasida alohida o'rin tutgan. Ularning fikricha, faqat ilm-fan bilan qurollangan va mustaqil fikrlovchi yoshlar o'z millatining kelajagini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Jadidchilik harakati yoshlarni nafaqat bilim olishga, balki ularni jamiyatda faol ishtirok etishga, ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo'naltirib, ularni kelajakda millatni rivojlantirishga qodir fuqarolar sifatida shakllantirishni maqsad qilgan.

Ularning fikricha, yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, ularning o'z yurtiga va xalqiga muhabbatini oshirish, nafaqat milliy qadriyatlarni saqlash, balki

jamiyatda yangi ijtimoiy tizimni yaratishning poydevori bo'lgan. Jadid mutafakkirlari o'z g'oyalari bilan yoshlarni faqat ta'lim bilan qurollantirishni emas, balki ularda mustaqil fikrlash, yuksak axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ilmiy izlanishlar va yangiliklarga intilish ruhini ham rivojlantirishni maqsad qilganlar. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, yoshlarni faqat o'z manfaatlariga xizmat qilishga emas, balki jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga, millatni kelajagiga hissa qo'shishga undagan.

Jadid mutafakkirlari ta'lim tizimiga yangiliklar kiritishda milliy o'zlikni anglashni, ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishni, yoshlarni ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni his qilishga o'rgatishni maqsad qilganlar. Ular yoshlarni zamonaviy tafakkur va dunyoqarash bilan qurollantirib, shu bilan birga, milliy an'analarga hurmat ko'rsatish, o'z madaniyatini saqlash va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaganlar. Jadidchilik harakati yoshlar orasida faqat o'qish va bilim olishga qiziqishni shakllantiribgina qolmasdan, ularni ijtimoiy faoliyatlarga, jamiyatni yaxshilashga va millatning kelajagini qurishga undashni o'zining eng asosiy maqsadi deb bilgan.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida mustahkam milliy o'zlikni yaratish, o'z xalqining tarixini va madaniyatini hurmat qilish va shu bilan birga, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishni talab qilish, jadid mutafakkirlarining asosiy g'oyalaridan biri bo'lgan. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quvchilarni faqat o'z shaxsiy taraqqiyotiga intilish bilan cheklanmay, balki ular jamiyatning rivojlanishiga, millatning yuksalishiga hissa qo'shishlarini ta'minlagan. Jadidchilik harakati yoshlarni ta'lim va ilm-fan orqali millatning mustahkam poydevorini yaratishga, jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan barcha ijtimoiy, axloqiy va ilmiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu esa, o'z navbatida, kelajakda rivojlangan va barqaror jamiyatni yaratishga imkon yaratgan.

Xulosa

Jadid mutafakkirlari o'z davrining siyosiy va ijtimoiy sharoitlariga javoban yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni, milliy o'zlikni anglashni va ilm-fan sohasida yangiliklarni o'rganishni asosiy maqsadlari sifatida belgilashgan. Ularning ta'lim tizimiga bo'lgan yondashuvi faqat bilim olishga qaratilgan emas, balki yoshlarni ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar va milliy madaniyatni hurmat qilishga yo'naltirilgan edi. Jadidchilik harakati ta'limni faqat maktabdagi an'anaviy bilimlar bilan cheklashni maqsad qilmasdan, uning asosiy g'oyalaridan biri sifatida yoshlarni mustaqil fikrlashga, erkin tafakkurga va zamonaviy dunyoqarashni o'zlashtirishga intilishni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratgan.

Jadid mutafakkirlari yoshlarni ilm-fan, ma'rifat va axloqiy qadriyatlar bilan qurollantirish orqali ularda milliy g'urur, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va adolatni rivojlantirishni maqsad qilganlar. Ular ta'limni nafaqat akademik bilim olish, balki millatning kelajagini qurish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va axloqiy omillarni shakllantirish vositasi sifatida ko'rishgan.

Bundan tashqari, jadidchilik harakati o'z vaqtida ta'lim tizimini yangilashni maqsad qilgan va yoshlarni faqat ilm bilan qurollantirishga, balki ularni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faollik ko'rsatuvchi, o'z xalqiga xizmat qiluvchi fuqarolar sifatida tarbiyalashga harakat qilgan. Ular ta'lim tizimini faqat o'qish va yozishdan iborat emas, balki yoshlarni ijtimoiy faollikka, o'z xalqining qadriyatlariga hurmat ko'rsatishga, shu bilan birga, zamonaviy dunyoqarashni o'zlashtirishga undashda muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlaganlar.

Natijada, jadid mutafakkirlari ta'lim orqali yoshlarni millatning rivojlanishiga, uning yuksalishiga va global miqyosda raqobatbardosh bo'lishga tayyorlashga qaratilgan yangi pedagogik metodlar va yondashuvlarni joriy etishgan. Ularning g'oyalari bugungi kunda ham milliy ta'lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy o'quvchilarda milliy o'zlik, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun kuchli poydevor yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afurov, B. (2008). Madaniyat tarixi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Maxmudov, A. (2010). Jadidchilik va uning o'zbek ta'limidagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston universiteti nashriyoti.
3. Karimov, I. A. (1995). Yoshlar tarbiyasining mafkuraviy asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Mahmudov, X. (2007). O'zbek xalqining madaniy merosi va jadidchilik. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
5. Shamsutdinov, S. (2003). Jadidlar va ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Rahimov, M. (2011). Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy ta'siri. Toshkent: O'zbekiston ta'limi nashriyoti.
7. Iskandarov, M. (2012). Vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Milliy g'oya nashriyoti.



Qurbonov N.N.

Nizomiy nomidagi TDPUt.f.f.d.

Yerning butun geologik tarixida o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan tabiiy kuchlarga endilikda inson ham qo'shildi. Kishilar tabiatdan o'z ehtiyojlari yo'lida foydalanar ekanlar, yer shari qiyofasini o'zgarib borishiga sababchi bo'lib qolmoqdalar. Termoyadro qurollarining yaratilishi, yangi neft konlarining ochilishi va suv omborlarida ko'p miqdorda to'planayotgan suvlar zamin uchun ortiqcha yuk bo'lmoqda. Oqibatda yerning ichki qismida asrlar osha asta-sekin to'planib borgan kuch ba'zan birdan harakatga kirishi – zilzilalar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

XX asrda seysmik jarayonlarni o'rganishda amalga oshirilgan ulkan yutuqlardan biri – yer sayyorasi bo'ylab yer silkinishlari yuz beradigan hududlar xaritasini yaratilganidir. Unga ko'ra yer yuzida zilzilalar uchta seysmik kamarda ro'y beradi. Ulardan birinchisi Tinch okeani seysmik kamari hisoblanadi. Bu hududda dunyo bo'yicha yuz beradigan zilzilalarning 80 foizi sodir bo'ladi.

O'zbek tili, turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'ziga xos fonetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu tilning ajralmas qismi sifatida qo'sh unlilar, ya'ni ikki unli tovushlardan iborat bo'lgan tovushlar, muhim rol o'ynaydi. Qo'sh unlilar o'zbek tilining boyligini, ma'no va talaffuzdagi xilma-xilligini ko'rsatadi. Qo'sh unlilar — bu ikki unlidan iborat bo'lib, ular birga kelib, bitta tovush sifatida talaffuz qilinadi. O'zbek tilida qo'sh unlilar ko'plab so'zlarni tashkil etadi va ularning ma'nosini o'zgartirishda muhim ahamiyatga ega. Ular talaffuzda juda muhim rol o'ynaydi, chunki noto'g'ri talaffuz so'zning ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Masalan, "ko'k" (rang) va "kök" (osmon) so'zlari talaffuzdagi farq bilan bir-biridan ajralib turadi.

O'zbek tilida qo'sh unlilar asosan ikki turga bo'linadi:

- Diftonglar: Bu ikki unli tovushlar birgalikda talaffuz qilinadi. O'zbek tilida keng tarqalgan diftonglar quyidagilar: "ai": Masalan, "sai" (mashg'ulot) yoki "mai" (may); "au": "dau" (daryo) va "tau" (tog'); "oi": "boi" (chiroq) va "toi" (o'yin).

- Uzoq unli tovushlar: Bu, bir xil tovushni takrorlash orqali hosil bo'ladi va uzoqroq talaffuz qilinadi. Ularning misollari: "aa": "kala" (rang) va "sana" (sen); "ee": "besh" (besh) va "ko'r" (ko'rish).

Qo'sh unlilar o'zbek tilining boyligini ta'minlaydi. Ular so'zlarni yanada xilma-xil qiladi va yangi ma'nolar yaratishga imkon beradi. Misol uchun, "yurt" (mamlakat) so'ziga qo'shimcha kiritish orqali "yurtimiz" (bizning mamlakatimiz) shaklini olish mumkin. Bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ifodalovchi imkoniyatlarini kengaytiradi. Qo'sh unlilar so'zlar orasida muhim farqlarni yaratadi. Misol uchun, "ko'k" va "kök" so'zlari bir xil talaffuzda, lekin ma'nolari farq qiladi. Bunday holatlar o'zbek tilining boyligini ko'rsatadi. Ushbu ma'no farqlari, o'z navbatida, nutqning aniq va ravon bo'lishiga yordam beradi. Qo'sh unlilar yangi so'zlar va tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida so'zlarga turli qo'shimchalar va suffikslardir qo'shilishi mumkin. Misol uchun, "yurt" so'ziga "-imiz" qo'shimchasi qo'shilsa, "yurtimiz" (bizning yurtimiz) so'zi hosil bo'ladi. Bu esa o'zbek tilining dinamikligini ko'rsatadi. Qo'sh unlilarni o'rganish o'zbek tilini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ularni to'g'ri talaffuz qilish va tushunish tilni mukammal bilish uchun zarurdir. O'rganishda quyidagi usullarni qo'llash mumkin: Talaffuz amaliyoti, So'zlar bilan ishlash va Yozma mashqlar.

Qo'sh unlilarni to'g'ri talaffuz qilish uchun muntazam amaliyot zarur. Buning uchun o'zbek tilidagi audio manbalar yoki videolarni tinglash foydali bo'ladi. Shuningdek, native speakerlar bilan muloqot qilish, talaffuzni yaxshilashga yordam beradi. Qo'sh unlilar mavjud so'zlar bilan ishlash orqali ularning ma'nosini va foydalanilishini yaxshiroq o'rganish mumkin. Masalan, so'zlarni bir-biriga bog'lash, ularda qo'sh unlilarni aniqlash va o'zbek adabiyotidan misollar keltirish orqali o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish



mumkin. Qo'sh unlilarni o'z ichiga olgan so'zlarni yozish amaliyoti, ularning yozilishi va talaffuzini yaxshilaydi. O'zbek tilida qo'sh unlilar bilan bog'liq so'zlarni yozish va ularni qiziqarli kontekstlarda ishlatish, tilni o'rganish jarayonini osonlashtiradi.

Qo'sh unlilar so'zlarning ma'nosini aniqlashtirishda, grammatik funksiyalarni bajarishda va tilning musiqiyligini ta'minlashda muhim fonetik vazifalarni bajaradi.

Misollar: "Suvi" — "suv" so'zida "i" qo'sh unlisi bu so'zning tarkibini boyitadi. "Qayda" — "qay" va "da" bo'ladiki, "ai" qo'sh unlisi ma'noni aniqlashtirishda muhim.

Qo'sh unlilar gaplarda ko'pincha so'zlarning ma'nosini to'ldirib, ularni murakkablashtiradi. Misollar: "U qaysi kitobni o'qiyotganini bilmadi." (bu gapda "qaysi" so'zidagi "ai" qo'sh unlisi so'zning shakli va ma'nosini aniqlashtirishda muhim). "Bugun juda chiroyli manzara." ("juda" so'zida "u" va "a" unlilari qo'shilishi, gapning ifodasini yoqimli qilmoqda). "Suvi to'zib ketdi." ("suvi" so'zida "u" va "i" qo'sh unlisi, gapni aniqlashtiradi). "Siz qayda bormoqchisiz?" ("qayda" so'zidagi "a" va "i" qo'sh unlisi so'zning aniq ma'nosini bermoqda).

Xulosa qilib aytganda o'zbek tilidagi qo'sh unlilar — bu tilning ajralmas qismi bo'lib, ularning to'g'ri tushunilishi va talaffuz qilinishi muhimdir. Uzbek tilidagi qo'sh unlilar tilning fonetik va grammatik strukturasi boyitadi. Ular so'zlar va gaplarning ma'nosini chuqurlashtirish, shuningdek, tilning yoqimlilikini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qo'sh unlilarni o'rganish, nafaqat o'zbek tilini mukammal bilishga yordam beradi, balki o'zbek madaniyati va adabiyoti bilan chuqur tanishishga imkon yaratadi. O'zbek tilini o'rganayotganlar uchun qo'sh unlilarni bilish, ularni mustahkamlash va faol qo'llash zaruriy vazifadir. Tilning go'zalligi va boyligini his qilish uchun qo'sh unlilarni o'rganish juda muhimdir. O'zbek tili — bu nafaqat so'zlar, balki madaniyat va tarix hamdir. Qo'sh unlilar esa bu boylikni yanada ochib beradigan muhim bir qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.A Abduazizov "English Phonetics" – A Theoretical Course. Tashkent 2007
2. A.A Abduazizov. "Hozirgi ingliz tili nazariy fonetikasi" Toshkent 1986
3. Xasanboy Jamolxonov. "O'zbek tilining nazariy fonetikasi" Toshkent 2009



Артикуляция дифтонгов в узбекском и английском языках

Умаров Хамидилло Лютфуллаевич

*старший преподаватель, майор таможенной службы Таможенного института
Таможенного комитета при Министерстве экономики и финансов Республики
Узбекистан.*

Дифтонги — это звуки, которые представляют собой комбинацию двух гласных, произносимых в одном слоге. Артикуляция дифтонгов различается в зависимости от языка, что может влиять на произношение и восприятие речи. Рассмотрим, как дифтонги артикулируются в английском и узбекском языках.

В узбекском языке нет дифтонгов как особых фонем, которые могли бы быть противопоставлены простым гласным; однако в определенных случаях (о них ниже) встречаются фонемосочетания, произносимые в один слог, которые и рассматриваются как ложные, или комбинаторные, дифтонги; в таких дифтонгах слогообразующим является только один из элементов, стоящий в вершине слога; второй элемент по сравнению с первым — ненапряженный и не равноправен с ним, а является как бы дополнительным призвуком. Ложные дифтонги в зависимости от того, который из элементов — начальный или конечный — играет роль слогообразующего, делятся на нисходящие и восходящие. В узбекском литературном языке имеются только нисходящие дифтонги — дифтонги с первым слогообразующим элементом, характеризующиеся сильной напряженностью вначале, которая затем падает. В нисходящих дифтонгах слогообразующим элементом являются гласные: и, э, (е), а, о, у, ў, дополнительным призвуком в быстрой речи — среднеязычный звонкий спирант й (негубные дифтонги) или губной звонкий спирант в (губные дифтонги). Негубные нисходящие дифтонги: ий (iɪ): бий 'нарыв', киймоқ 'надевать', киймоқ 'разрезать на мелкие куски'; э(е)й (ei): эй 'эй', кейин 'после', 'потом'; ай (ai): бай-бай 'ой-ой' (междометие, выражающее сожаление, удивление, удовольствие); оғайни « оға + ини 'приятель', кайф 'приятное расположение духа'; ой(oi): бой 'бай', 'богач', той 'жеребенок'; уй(yi): уй 'дом', туйғу 'чувство'; ўй(ўi); ўй 'дума'; тўй 'свадьба'; Губные нисходящие дифтонги: ав (aw > au): авра 'лицевая сторона (пальто и т. п.)', гавда 'туловище'; ов (ow > ou): учов 'трое', 'втроем', совға 'дар'; уе (uw > uu): сув 'вода'; ўкув 'учение'; ср. еще: аёвсиз (aiəusiz) 'беспощадный', тиюв (tiūu) 'сдерживание'. Восходящие дифтонги — дифтонги со вторым словообразующим элементом; напряженность, слабая в начале, постепенно возрастает; восходящие дифтонги, состоящие из начального элемента й или у + гласный, встречаются только в некоторых узбекских диалектах.

Дифтонги в английском языке — это сочетания двух гласных звуков, произносимых в одном слоге, где первое звук плавно переходит во второй. Они играют



важную роль в фонетике и могут существенно влиять на смысл слов. Вот некоторые основные дифтонги в английском языке:

1. [aɪ] — как в словах "my", "fly"
2. [eɪ] — как в словах "day", "say"
3. [ɔɪ] — как в словах "boy", "toy"
4. [aʊ] — как в словах "how", "now"
5. [əʊ] — как в словах "go", "no"
6. [ju:] — как в словах "few", "cue"

Артикуляция дифтонгов в английском языке включает:

Начальную позицию: Каждому дифтонгу соответствует определенная начальная гласная. Например, [aɪ] начинается с открытой передней гласной, а [əʊ] — с нейтральной. Переход: Важно плавно переходить от одной гласной к другой, контролируя движения языка и губ. Завершение: Конечная гласная также влияет на звучание дифтонга, добавляя выразительность.

Сравнивая английские дифтонги с узбекскими можно сказать, что дифтонги в английском языке отличаются от узбекского числом, артикуляцией и влиянием на восприятие.

1. Число дифтонгов: Английский язык имеет больше дифтонгов, что делает его произношение более разнообразным. Узбекский язык использует меньше дифтонгов и фокусируется на четкости произношения.

2. Артикуляция: В английском языке дифтонги требуют более сложного движения органов речи, в то время как в узбекском акцент делается на четкости каждой гласной.

3. Влияние на восприятие: Различия в артикуляции дифтонгов могут приводить к трудностям в понимании между носителями этих языков, особенно для изучающих язык.

Некоторые примеры использования дифтонгов: [aɪ]: "I", "time", "high"; [eɪ]: "make", "place", "cake"; [ɔɪ]: "coin", "join", "voice"; [aʊ]: "house", "mouse", "now"; [əʊ]: "show", "no", "go"; [ju:]: "music", "universe", "cute"

В заключение можно сказать, что артикуляция дифтонгов в английском и узбекском языках демонстрирует разнообразие в фонетических системах. Понимание этих различий помогает не только в изучении языков, но и в улучшении навыков произношения. Практика и внимание к артикуляции дифтонгов могут значительно повысить уровень владения языком.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. М.И. Матусевич. Введение в общую фонетику. Л., 1948, стр. 60
2. А.Н. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка
3. Peter Roach. English Phonetics and Phonology



HARBIY JAMOADA PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING
DOLZARB MASALALARI

Nikitina Mariya Rusverovna

Urganch Davlat Universiteti Amaliy psixologiya yo 'nalishi 3-bosqich talabasi, Xorazm viloyati
Urganch shahar Mudofaa ishlari bo 'limi xodimi

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o'rganishda keng tarqalgan tadqiqot metodlarini qo'llashning nazariy jihatlarini yoritilgan. Harbiy qism va muassasalardagi psixologik faoliyat harbiy xizmat vazifalarini maromida bajarish maqsadida harbiy xizmatchilar va bo'linmalar faoliyatida vujudga keladigan turli ruhiy – emotsional muammolar diagnostikasini hamda profilaktikasini bajarish zarurati turli omillar bilan asoslangan.

Kalit so'zlar: shaxs, guruh, harbiy psixologiya, harbiy jamoa, harbiy psixolog, metodlar.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические аспекты применения исследовательских методик, распространенных в психологическом изучении военнослужащих и военного коллектива. Необходимость проведения диагностики и профилактики различных психических и эмоциональных проблем, возникающих в деятельности военнослужащих и подразделений, с целью проведения психологических мероприятий в воинской части и учреждениях в ритме выполнения задач военной службы обоснована различными факторами.

Ключевые слова: личность, группа, военная психология, военный коллектив, военный психолог, методы.

Abstract: The article discusses the theoretical aspects of the application of research techniques common in the psychological study of military personnel and military personnel. The need to diagnose and prevent various mental and emotional problems that arise in the activities of military personnel and units in order to carry out psychological measures in military units and institutions in the rhythm of performing military service tasks is justified by various factors.

Key words: personality, group, military psychology, military team, military psychologist, methods.

KIRISH

Jahonda ta'lim sohasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liq o'ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta'sir etish juda mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Shu nuqtai nazardan maxsus dasturlar asosida tashkil etilgan psixologik xizmat jarayoni harbiylar guruhlarida guruhiy munosabatlar dinamikasi, guruhiy faollik motivatsiyasining muayyan darajada shakllanishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz har bir ta'lim oluvchi shaxsiga, uning guruhdagi mavqeiga ta'sir

etuvchi ijtimoiy - psixologik omillarga jiddiy e'tiborni qaratish orqali o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni jamiyat istiqbollari uchun yetarli darajada fidoiy, vatanparvar va xalqparvar qilib tarbiyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Albatta, bu dolzarblik zahirida har bir o'quvchi shaxsining guruhdagi mavqei, guruhda o'z "menligi"ning ifodalanishi bilan bog'liq refleksiya va identifikatsiya jarayonlarining kechishi, o'ziga xos individual imkoniyatlarning namoyon etilishi kabi holatlarni tahlil qilish va shu tahlillarga tayanib har bir ta'lim oluvchi shaxsiga hamda uning guruhiga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonining nechog'lik muvaffaqiyatli tashkil etilishi yotadi. Ushbu jarayonda psixologik xizmat ko'rsatish orqali har bir ta'lim oluvchi shaxsining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etish mumkin

ASOSIY QISM

Harbiy xizmatchini va harbiy jamoani psixologik o'rganish ikki xil turda alohida harbiy xizmatchini (individual) va guruh (jamo) larga ajratgan holda o'rganiladi. Shunga ko'ra, harbiy xizmatchilarning alohida (individual) psixologik o'rganishning predmeti- harbiy xizmatchilarning shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hisoblansa, guruhlarga ajratib o'rganishning predmeti esa- harbiy jamoaning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlarni o'rganish hisoblanadi.

Ma'lumki, psixologiyada, nafaqat psixologiyada, balki umuman ijtimoiy- psixologik adabiyotlarda Shaxs tushunchasiga katta e'tibor qaratiladi.

Psixologiya nuqtai nazaridan shaxs quyidagi belgilarga ega:

- u aniq bir inson;
- muayyan jamiyatning a'zosi;
- muayyan jamoaga mansublik;
- muayyan bir faoliyat yoki faoliyatlar turi bilan shug'ullanadi; - atrof-muhit va voqelikka nisbatan o'zining munosabatiga ega; - o'ziga xos individual xususiyatlarga ega.

Bundan tashqari shaxs o'ziga xos quyidagi psixologik xususiyatlarga ham ega bo'ladi:

- o'z-o'zini anglash;
- individuallik - o'ziga xoslik;
- o'z-o'zini boshqara (alohida reja asosida) olish layoqati; - muayyan faoliyat turida namoyon qiladigan faolligi; - ijtimoiy aloqa tizimiga qo'shilganligi.

Shuni aytib o'tish kerakki, «inson» va «shaxs» tushuncha lari bir xil ma'noni anglatmaydi. Inson - bu yig'ma tushuncha bo'lib, har qanday shaxsiga nisbatan ham ishlatilaveradi. Shaxs esa o'zidagi jamiki individual xususiyatlar bilan birgalikda muayyan bir insonni anglatadi.

Individual xususiyatlarga insonni shaxsiga aylantiradi. Uning shaxslilik darajasi ushbu individual xususiyatlarning qanchalik rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Insondagi biologik omil uning shaxsiga shubhasiz ta'sir etadi. Undagi biologik omillarga quyidagilar kiradi:

- salomatligi;
- jismoniy rivojlanganlik darajasi;
- tana tuzilishi;
- bo'yi;
- og'irligi;



- muskul kuchli;
- o'pkasining hajmi va hokazo.

Bu omillar vositasida harbiy xizmatchi ko'tara oladigan jismoniy zo'riqishni aniqlab olishi mumkin. Harbiy xizmatchi salomatligi, jismoniy ahvoli uning ishlash layoqati va kayfiyatiga ta'sir etadi. Uning o'qish va xizmatdagi muvaffaqiyatlari, shuningdek, o'rtoqlari hamda komandirlari bilan bo'ladigan munosabatlari uning ishchanligiga va kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

Bularning hammasi qo'shilib undagi individual-psixologik xususiyatlarning rivojlanish darajasini belgilab beradi. Insonning nimani emas, balki, ushbu nimani qanday bajarishi ko'proq uning shaxs sifatidagi qiyofasini belgilaydi. Insonning xatti-harakatlari ma'lumki, sababsiz sodir bo'lmaydi – ular inson ruhiyatiga, uning fikrlari, ehti yojlari va hissiyotlariga asoslangan bo'ladi.

Biror bir narsa yoki hodisani tushunib yetish uchun, uni nimadan iborat ekanligini bilish katta ahamiyatga ega.

Shu ma'noda inson psixikasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- psixologik jarayonlar;
 - psixologik xususiyatlar;
 - psixologik holatlar; - psixologik tuzilmalar.
1. Psixologik jarayonlar:
 - bilish jarayonlari; - hissiyot; - iroda.
 2. Psixologik xususiyatlar:
 - Shaxs yo'nalishi (ehtiyotlari, qiziqishlari va hakoza);
 - temperament;
 - xarakter;
 - qobiliyatlar.
 3. Psixologik holatlar:
 - ko'tarinki kayfiyat;
 - ruhiy tushkunlik;
 - qoniqish hissi;
 - o'z-o'zidan qoniqmaslik.
 4. Psixologik tuzilmalar:
 - bilimlar;
 - ko'nikmalar; - malakalar; - odatlar.

Ushbu sanab o'tilgan komponentlar har bir harbiy xizmatchida har xil rivojlanish yoki shakllanish darajasida bo'ladi. Masalan, birgina psixologik bilish jarayonlarini (sezgilar, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va nutq) olib ko'radigan bo'lsak, ular ham har bir kishida o'ziga xos qiyofaga ega bo'ladi. Inson har xil sezgilarga ega, ammo u har kishida har xil; kimdadir ko'rish sezgisi kuchli rivojlangan, kimdadir zaifroq va hokazo.

Tafakkur ham har bir kishiga xos bo'lib, lekin o'zining namoyon bo'lishi jihatidan har kimda har xil bo'ladi. Kimningdir tafakkuri umumlashtiruvchi operatsiyalarni tezkorlik bilan bajarsa, boshqalarniki analitik (tahlil qilish) qobiliyati bilan ajralib turadi.



Ofitserning o'z qo'lostidagi harbiy xizmatchilardagi psixologik jarayonlarning xususiyatlarini to'g'ri baholay olish layoqati undagi kasbiy- pedagogik mahoratning muhim belgisi hisoblanadi.

Yo'nalganlik, temperament, xarakter, qobiliyat kabilar insonning psixologik xususiyatlari bo'lib, ularda insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mohiyati o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarni o'rganish ofitserga tarbiyaviy ishlarni va harbiy xizmatni to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi.

Shaxsdagi psixologik reaksiya va jarayonlarning qanchalik tez yoki sekin kechishi esa insonning psixologik holatini tashkil etadi. Psixologik holatlar qisqa vaqtli va barqaror turlarga bo'linadi. Ikkala holat ham bir-biri bilan o'zaro uyg'unlashib, doimo inson hayot faoliyatiga ta'sir etib turadi.

Harbiy xizmatchining faoliyatida qanchalik muvaffaqiyatga erishishi uning Shu paytdagi psixologik holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bu narsa harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham ofitser har bir harbiy xizmatchidagi ruhiy holatni sinchkovlik bilan kuzatib borishi va jamoa manfaatlariga bo'ysundira olishi lozim.

Ma'lum bir faoliyatlar bilan shug'ullanish natijasida insonda psixologik tuzilmalar shakllanadi. Bilim, ko'nikma, malaka va odatlar-psixologik tuzilmalar hisoblanadi. Ular insonning butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi.

Masalan, harbiy xizmatchi xizmat jarayonida o'zidagi siyosiy va harbiy bilimlarni, harbiy texnika va qurollarni ishlata olish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni, harbiy intizomga qat'iy bo'ysunish odatlarini o'zlashtiradi hamda rivojlantiradi. Ushbu sanab o'tilgan psixologik tuzilmalarni tashkil qiluvchilarning o'zaro birligi inson shaxsining mohiyatini tashkil etadi.

Ofitser amalga oshiradigan tarbiyaviy ishning obyekt muayyan inson, shaxs hisoblanadi. Intizomli, munosib askar qilib tarbiyalash uchun ofitser uni shaxs sifatida o'rganishi lozim. Ofitser o'z faoliyatini samarali olib borishi uchun nafaqat har bir harbiy xizmatchi psixologiyasini, balki, harbiy jamoa psixologiyasini ham bilishi maqsadga muvofiq.

Jamoa psixologiyasi – bu ma'lum bir insonlar guruhi yashaydigan muhit, ularning ma'naviy dunyosi. Harbiy xizmat sharoitida qism, batalon, vzvod, guruh, sektsiya, ekipaj kabilar jamoalarga misol bo'la oladi. Fikr, kayfiyat, o'zaro munosabatlar, an'ana, ehtiyoj va talablar jamoa psixologiyasini tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harbiy jamoa psixologiyasi juda katta tarbiyaviy va g'oyaviy ta'sir kuchiga ega. Agar jamoa bir ovozdin harbiy intizomni buzuvchi, vijdonsiz harbiy xizmatchini qoralaydigan bo'lsa, bu harbiy xizmatchi albatta o'zining xizmatga va o'z burchiga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Lekin, afsuski, ba'zan harbiy jamoada nosog'lom muhit, nosog'lom kayfiyat va o'zaro munosabatlar ustuvorlik qiladi. Komandir, ofitser jamoa psixologiyasini o'rganish orqali ushbu salbiy o'zgarishlarning oldini olishi mumkin.

Psixologik jarayonlar – psixik hodisalarning paydo bo'lishi, qonuniy ravishda izchil o'zgarishi va bir taraqqiyot bosqichidan navbatdagsiga o'tishi, ularda sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishidan iborat bo'lgan hodisa.

Psixologik xususiyatlar insonning shaxs sifatidagi asosiy tashkil qiluvchilari bo'lib, ularsiz u biron bir faoliyatni amalga oshira olmaydi. Inson hayot faoliyati jarayonida unda shakllanadigan nisbatan mustahkam sifatlarga psixologik tuzilmalar deyiladi.

Psixologik holatlar – bu shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ijobiy hamda salbiy emotsional kechinmalari.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarni yangi o'quv sharoitlariga moslashtirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, hozirgi kunda harbiy xizmatchilarda uchraydigan depressiya, stress, o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar tom ma'noda yangi muhitga moslashishning negativ oqibatlaridir. Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarga bu kabi salbiy holatlarni yengishda ularning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, harbiy xizmat jarayonidagi mahoratli pedagoglarning tavsiyalari, guruh jamoasidagi qo'llab-quvvatlashlar ham yordam beradi. Uchinchidan, shaxsning yangi madaniy muhitga moslashishi albatta, ma'lum qiyinchiliklarsiz o'tmasligi yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lum.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017,.
2. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. Toshkent. «Universitet» 2008 y. 31, 50-betlar.
3. O'R. Urunov. Harbiy psixologiya. Darslik. O'R QK Akademiyasi nashri, Toshkent 2018 y. 38 bet.
4. Hasanov H.R. "Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlar aro aloqadorlikni pedagogik asoslari" Monografiya .Buxoro: " Durdona", 2021.
5. Markaziy Osiyo mutafakkirlari talim-tarbiya va inson kamoloti haqida. "Moziydan sado", 1 (25) 2005 yil. 26-28-betlar.
6. Insoniylikning eng muhim fazilati – Vatanga bo'lgan muhabbatdir.
7. 140-сон 23.02.2018. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-3571158>.



Soyibova Dilobarxon Qobiljon qizi

Tadqiqotda oilaviy muammolarning ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liqligi haqida batafsil o'rganilgan [1].

INTRODUCTION (KIRISH)

Ijtimoiy ish oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda oilalarda yuzaga kelayotgan muammolar jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ushbu tadqiqot oilalar bilan ishlashda ijtimoiy ishning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Muammo dolzarbligi: - Oilaviy ajralishlar sonining ko'payishi.

- Moliyaviy qiyinchiliklar va stress darajasining ortishi.

- Oiladagi zo'ravonlik va bolalarga bo'lgan salbiy ta'sir.

Maqsad va vazifalar: 1. Oilalar bilan ishlashda samarali metodlarni aniqlash.

2. Muammolarni tahlil qilib, ularning yechimini taklif etish.

3. Jamiyatdagi ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini kuchaytirish.

Methods (Metodlar) Suhbat va kuzatish metodlari avvalgi tadqiqotlarda ham samarali natijalar berganligi qayd etilgan [2].

1. Tadqiqot uslubiyoti

- Suhbatlar: Oilalar bilan individual suhbatlar o'tkazilib, ularning muammolari to'g'risida ma'lumot olindi.

- Kuzatish: Tadqiqotchilar oilaviy hayotga kuzatuvchi sifatida kirib, muammolarni bevosita o'rgandilar.

- Savolnomalar: 100 dan ortiq oilalar orasida so'rovnoma o'tkazildi.

2. Respondentlar tanlovi

- Turli ijtimoiy qatlamdagi oilalar: yuqori daromadli, o'rtacha daromadli va kam ta'minlangan oilalar.

- Oiladagi muammolarning turli shakllarini o'rgangan holda, psixologik va iqtisodiy omillar tahlil qilindi.

3. Tahlil usullari

- Statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash.

- Kvalitativ tahlil: suhbat va kuzatishlar natijasidagi hissiy va ijtimoiy jarayonlarni aniqlash.

Results (Natijalar)

1. Oilalardagi asosiy muammolar tasnifi

- Moliyaviy muammolar: Oilalarning 60 foizida kredit qarzlari va daromad yetishmovchiligi aniqlangan.

- Psixologik muammolar: 40 foiz oilalarda stress va depressiya darajasi yuqori bo'lgan.

- Zo'ravonlik: 20 foiz oilalarda oiladagi zo'ravonlik alomatlari mavjud bo'lgan.

2. Ijtimoiy ishning samaradorligi



- Maslahat berish xizmatlari yordamida oilalarning 70 foizida muammolar kamaygani kuzatildi.

- Bolalar uchun maxsus treninglar orqali oilaviy muhitni yaxshilashga erishildi.

3. Misol sifatida olingan ishlar

- Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va psixologik maslahatlar natijasida ularning muammolarni hal qilish qobiliyati oshdi.

- Zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollarga reabilitatsiya dasturi qo'llanilib, ularning jamiyatga qaytishiga yordam berildi.

Discussion (Muhokama) Oilaviy zo'ravonlikning kamayishi haqida boshqa davlatlar tajribasida ham ijobiy natijalar qayd etilgan [3].

1. Natijalarning tahlili

- Ijtimoiy ishning oilalar hayotidagi ijobiy ta'siri.

- Muammolarning sabablarini tahlil qilishda madaniy va iqtisodiy omillarning roli.

- Tadqiqot natijalari boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi.

2. Tavsiyalar

- Oilaviy maslahat xizmatlarini kengaytirish.

- Davlat tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarga uchragan oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish.

- Ijtimoiy ish xodimlari uchun maxsus treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

3. Amaliyotda qo'llash

- Har bir mahallada ijtimoiy xizmat markazlarini tashkil qilish.

- Oilalarga qaratilgan ma'rifiy va psixologik treninglar o'tkazish.

Conclusion (Xulosa)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilalar bilan ishlashda ijtimoiy ishning samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish orqali oiladagi muammolarni hal qilishda katta yutuqlarga erishish mumkin. Tadqiqotning amaliy natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy maslahatlar va reabilitatsiya dasturlari jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar

Ijtimoiy ish, oilalar bilan ishlash, oilaviy muammolar, psixologik yordam, ijtimoiy xizmatlar, reabilitatsiya, maslahat xizmatlari.

MANBALAR:

1. Smith, J. (2020). Family Social Work: A Global Perspective. New York: Academic Press.

2. Brown, L. & Taylor, P. (2019). Qualitative Methods in Social Work. London: Sage Publications.

3. Johnson, R. (2021). Domestic Violence and Social Interventions. International Journal of Social Work, 34(3), 45-60.



Tursunmurotova Sarvinoz

Boyovut tumanidagi 23-maktab 7-"D" sinfo'quvchisi

Tabiat – bu insoniyatning eng katta boyligi. Biz nafas olayotgan havo, ichayotgan suvimiz, iste'mol qilayotgan oziq-ovqatimiz va hayot kechirayotgan muhitimiz tabiat ne'matlaridir. Biroq zamonaviy taraqqiyot, sanoat rivojlanishi va insonlarning ehtiyotsizligi sababli tabiatga jiddiy zarar yetmoqda. Atmosferaning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, suv resurslarining kamayishi, hayvonot va o'simlik dunyosining yo'qolib borishi – bular bugungi dunyo duch kelayotgan eng katta ekologik muammolar hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib sayyoramizda juda ko'p global muammolar yuzaga kelmoqda. Xo'sh, bu muammolar qanday paydo bo'lyabti? Bu muammolarning sababchisi kim? Albatta, biz odamlardir. Biz odamlar suvga turli xil chiqindilarni tashlashimiz, harakatlantirayotgan transport vositalarimiz, biz bunyod etgan zavod va fabrikalarimizdan chiqayotgan gazlar atrof-muhitni ifloslanishiga olib keladi.

O'zbekistonda ham tabiatni asrash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Davlat miqyosida ekologik qonunlar qabul qilinmoqda, yashil hududlarni kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda, chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida so'z yuritamiz.

Tabiatni muhofaza qilish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Agar insonlar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lsa, toza havo, sog'lom suv, hosildor tuproq va biologik xilma-xillik saqlanib qoladi.

Toza havo: Daraxtlar kislorod ishlab chiqaradi va karbonat angidridni yutadi. Agar o'rmonlar yo'q qilinsa, havo sifatining yomonlashishi turli kasalliklarga sabab bo'ladi.

Ichimlik suvi: Daryolar va yer osti suv manbalarining ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Qishloq xo'jaligi: Yer unumdorligi tabiatga bog'liq bo'lib, ekotizimning buzilishi oziq-ovqat yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin.

Hayvonot va o'simlik dunyosi: Har bir jonivor va o'simlik ekotizim muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Ekologik muammolar va ularning sabablari

Hozirgi vaqtda tabiatga zarar yetkazayotgan asosiy ekologik muammolar quyidagilardir:

1. Havo ifloslanishi: Zavodlar, avtomobillar va boshqa sanoat korxonalaridan chiqayotgan gazlar atmosferani ifloslantirib, global isish, ozon qatlamining yemirilishi, turli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

2. Suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi: Orol dengizining qurishi O'zbekiston ekologiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Daryolar, ko'llar va yer osti suvlarining kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi ichimlik suvining tanqisligiga olib kelmoqda.

3. O'rmonlarning kesilishi: Har yili millionlab daraxtlar kesilib, o'rniga yetarlicha yangi daraxt ekilmaydi. Bu esa iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfini oshiradi.



4. Chiqindilar muammosi: Plastik va boshqa chiqindilar atrof-muhitni ifloslantirib, tabiatga katta zarar yetkazmoqda. Ko'plab hududlarda chiqindilarni to'g'ri ajratish va qayta ishlash tizimi hali to'liq yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar

O'zbekiston Respublikasi hukumatining ekologiya sohasidagi sa'y-harakatlari quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

□ "Yashil makon" loyihasi

2021-yildan boshlab O'zbekistonda har yili 200 million tup daraxt ekish rejasi amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbus shaharlarda ekologik muhitni yaxshilash va havoni tozalashga qaratilgan.

□ Chiqindilarni boshqarish

Respublikada chiqindilarni ajratish va qayta ishlash tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Ayrim shaharlarda plastik chiqindilar alohida yig'ilib, qayta ishlash korxonalariga yuborilmoqda.

□ Suv resurslarini muhofaza qilish

Suv tejovchi texnologiyalar joriy etilib, qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish tizimi kengaytirilmoqda. Bundan tashqari, suvni tozalash inshootlari modernizatsiya qilinmoqda.

□ Muhofaza etiladigan hududlar

O'zbekistonning 5 ta hududi xalqaro "Ramsar" konventsiyasiga kiritilib, ularda maxsus ekologik muhofaza choralari ko'rilmogda.

□ Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha har birimiz nimalar qila olamiz?

Har bir inson quyidagi amaliy ishlarga o'z hissasini qo'shishi mumkin:

□ Keraksiz plastik mahsulotlardan voz kechish;

□ Chiqindilarni saralab tashlash va qayta ishlash;

□ Daraxt ekish va yashil hududlarni kengaytirish;

□ Suv va elektr energiyasidan tejab foydalanish;

□ Tabiatni asrash bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish.

Agar har bir fuqaro tabiatni himoya qilishga o'z hissasini qo'shsa, kelajak avlodlar uchun sof havo, toza suv va yashil muhitni saqlab qolish mumkin.

Xulosa qilib aytganda tabiatni asrash nafaqat davlat yoki ekolog mutaxassislarining ishi, balki har birimizning burchimiz. Agar biz bugun atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibor bermasak, ertaga sog'lig'imiz, oziq-ovqat xavfsizligimiz va umuman hayot sifatimizga katta zarar yetadi.

Shunday ekan, "Tabiat – bizning uyimiz" degan tamoyilga amal qilib, har birimiz uni himoya qilish uchun amaliy harakat boshlashimiz zarur!

Fikrimni o'zimning ijodimdan bo'lgan tabiat haqidagi ajoyib she'r bilan yakunlamoqchiman:

TABIATNI ASRASH!

Asraylik tabiatni,
Havo, suv va daraxtni.
Ular hayot manbai,
Asraylik do'stlar uni.
Daraxtlarni kesmaylik,
Yangi nihol ekaylik.

Suvni isrof qilsak gar,
Chanqog'imiz bosilmas.
Gul, ko'kat va giyohlar,
Bizga dorivor bo'lmas,
Chorlang hamma-hammani,
Asraylik tabiatni!



Ularini parvarishlab,
Tabiatni asraylik.

Gullab-yashnatib yurtni
Asraylik tabiatni!



G'ARB OLIMLARI TOMONIDAN XARAKTER AKSENTUATSIYASINING
O'RGANILISHI VA PSIXOLOGIYADAGI AHAMIYATI

Zarnigora Alisherova

NamDPI 2-bosqich magistranti

Turg'unboyeva A.

Ilmiy rahbar: NamDPI dotsenti v.b, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda avj olib borayotgan jinoyatlar va huquqbuzarlik, deviant xulq-atvorlarning tag zahirida yashiringan xarakter aksentuatsiyasi va uning G'arb olimlari tomonidan qay darajada o'rganilganligi va psixologiyada qanday ahamiyat kasb etishi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: xarakter, xarakter aksentuatsiyasi, introvert, ekstrovert, affektiv, gipertim, emotiv, pedantik, distim, qo'zg'aluvchan, demonstrativ

Аннотация: В статье отражены сведения об акцентуациях характера, скрытых в широко распространенных в настоящее время преступлениях и правонарушениях, девиантном поведении, о степени их изученности западными учеными и их значении в психологии.

Ключевые слова: характер, акцентуация характера, интроверт, экстраверт, аффективный, гипертимный, эмоциональный, педантичный, дистимичный, возбудимый, демонстративный

Abstract: This article reflects information about the character accentuation hidden in the current rampant crimes and delinquencies, deviant behavior, the extent to which it has been studied by Western scientists, and its importance in psychology.

Keywords: character, character accentuation, introvert, extrovert, affective, hyperthymic, emotional, pedantic, dysthymic, excitable, demonstrative

Avvalombor, "xarakter" so'zi yunonchadan tarjima qilinganda, "qalqiq chiziq" degan degan ma'noni anglatadi. Bu yerda tanga yuziga tushirilgan "tamg'a" nazarda tutiladi. Xarakter deganda, shaxsda ta'lim-tarbiya va tashqi muhit ostida tarkib topgan va uning ijtimoiy faolligiga, tevarak atrofdagi olamga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida paydo bo'ladigan individual xususiyatlar tushuniladi. Kishi xakteri tarkibiga kiradigan ayrim xislatlari ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotiga bog'liq holda vujudga kelgan va o'zgargan. Har bir jamiyatning, har bir xalqning o'ziga xos xakteri bo'ladi. Xalqlarning ijtimoiy yashash sharoiti, unda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi shu jamiyatda yashayotgan kishilar xakteriga ta'sir qiladi. Masalan: o'zbek xalqi mustaqillikka erishgandan so'ng uning ruxiy qiyofasi, xulq-atvori, milliy tuyg'usi ham o'zgara boshladi. Xalqimizning tarixiy an'analari, urf-odatlar, turmush tarzi, madaniy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlari bizning hayotiy, ma'naviy, ilmiy e'tiqodlarimiz uchun asos bo'lib qoldi. Milliy o'z-o'zini anglash odamning ijtimoiy etnik umumiylikka mansubligida,

ijtimoiy sohalaridagi munosabatlarda, o'z millatining egallagan mavqeyiga yaqqol tasavvur qilganligida, milliy manfaatdorligida yorqin ifodasini topadi.

Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasida aksentuatsiya so'zi lotincha "accentus"- "urg'u" degan ma'noni anglatib, xarakterning ayrim xususiyatlarini normadan oshib ketganini bildiradi. Ushbu tushuncha dastavval G'arb olimlari tomonidan o'rganilgan. Aniqroq qilib aytradigan bo'lsak, aksentuatsiya tushunchasi ilk bor 1964-yilda nemis psixiatri Karl Leongard tomonidan "Normal va patalogik shaxslar" asarida tilga olingan. U aksentuatsiya tushunchasini "aksentuatsiyalangan shaxs" va "shaxs aksentuatsiyalangan jihati" singari so'z birikmalarida ishlatadi. Karl Leongard aksentuatsiyalarni noqulay sharoitda patalogiyaga aylanuvchi shaxsning o'ziga xos individual jihati sifatida ta'riflaydi. Asarda olim "Berlinning 50%i - aksentuatsiyalangan shaxslar, 50% aholisi standart tipdagi insonlar" deya keltirib o'tadi. Karl Leongard xarakter aksentuatsiyasini o'rganishda bir qator metodologik yondashuvlarni qo'llagan. U xarakter aksentuatsiyasini shaxsiyatning ekstremal yoki yuqori darajada ifodalangan xususiyatlari sifatida belgilagan. Leongardning asosiy g'oyalaridan biri shundaki, aksentuatsiyalar odamlarning psixologik holatlari va ijtimoiy munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. Leongardning asosiy yondashuvlari quyidagilardan iborat:

-Tasniflash: Leongard xarakter aksentuatsiyalarini tasniflash uchun turli xil modellar ishlab chiqqan. U odamlarning xarakterini to'rt asosiy guruhga bo'lgan aksentuatsiyalar (masalan, emosional, intellektual, ijtimoiy va boshqa xususiyatlar) orqali tasniflashga harakat qilgan.

-Psixologik testlar: Leongard o'zining xarakter aksentuatsiyasi nazariyasini amaliyotda sinovdan o'tkazish uchun psixologik testlar ishlab chiqdi. Bu testlar odamlarning shaxsiyat xususiyatlarini baholashda yordam berdi.

- Klinik kuzatish: Leongard klinik muhitda bemorlar bilan ishlagan va ularning xarakter aksentuatsiyalarini o'rganish orqali psixologik muammolarni aniqlashga harakat qilgan. U bemorlarning xatti-harakatlarini va hissiyotlarini tahlil qilib, ularning xarakter aksentuatsiyalarini aniqlashga yordam beradigan ko'plab misollar keltirgan.

-Nazariy asoslar: Leongard shuningdek, xarakter aksentuatsiyasining rivojlanishi va uning turli omillarga ya'ni genetika, atrof-muhit, tarbiyaga bog'liqligini tahlil qilgan. U shaxsiyatning bu jihatlari tushunish orqali psixologik sog'liqni yaxshilash mumkinligini ta'kidlagan. Leongardning ishlari xarakter aksentuatsiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, psixologiya va psixiatrik amaliyotda keng qo'llaniladi. U o'zining nazariyalari va metodologiyalari bilan shaxsiyatni yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Xarakter aksentuatsiyasini o'rganishda uning bir necha xil tiplari farqlangan va uning ustida o'rganishlar olib borilgan. Dastlabki xarakter aksentuatsiyasiga oid tipologiya 1968-yilda Karl Leongard tomonidan yaratilgan bo'lib, u asosan 12 xil tipga bo'lingan. Ular quyidagilar:

- Affektiv- labil: gipertim va distim holatlarining davriy o'zgarishi
- Affektiv- ekzaltirlangan: ilhom, his-tuyg'ularning kuchli ekanligi
- Qo'zg'aluvchan- jahldor, og'irlik, instinktlarga e'tibor berish
- Demonstrativ: o'ziga ishonch, bema'nilik, maqtanish, yolg'onchilik, xushomadgo'ylik, o'zining "Men"iga e'tibor qaratish, artistlik



- Distim: jiddiy, vijdonli, passiv, sekin, pessimistik
- Pedantik: ziddiyatsiz, aniq, vijdonli, ishonchli, zerikarli, qa'iyatsiz, rasmiy
- Qoloq: shubha, xafagarchilik, bema'nilik, ko'tarilishdan umidsizlikka o'tish
- Introvert: cheklangan, prinsipial, ziddiyatsiz, aqlli, tashqaridan unchalik ta'sirlanmagan, yopiq, o'jar
- Xavotirli: do'stona, ijrochi, o'z- o'zini tanqid qiluvchi, qo'rqinchli, qo'rqoq, bo'ysinuvchi
- Ekstrovert: faol, chiqishuvchan, do'stona, beparvo, uzoqni ko'ra olmaydigan, tashqi tomondan ta'sirlangan
- Emotiv: mehribon, rahmdil, ko'z yoshlari haddan tashqari himoyasiz
- Gipertim: faoliyatga va tajribaha intilish, omadga e'tibor berish

1977-yilda A.Y. Lichko Leongard ishlari va P.B. Gannushkinning psixopatiyalar klassifikatsiyasi asosida aksentuatsiyani "shaxs" tushunchasidan ko'ra ko'proq "xarakter" tushunchasiga bog'lab o'rganish kerak ekanligini ta'kidlab o'tdi. Bunga sabab shaxsning juda ham ko'p qirrali ekanligi va aksentuatsiya boshqa qirralarda ham uchrashi, natijada uni ajratish qiyin bo'lishi bo'ldi. Y. Lichko aksentuatsiyaning 2 xil turini ajratib o'tgan:

Ochiq aksentuatsiya- normal holatning eng chekka darajasi hisoblanadi. Bu aksentuatsiya turi insonni butun hayoti davomida saqlanib qoladi va namoyon bo'ladi. Insonda shaxsga oid jarohatlar bo'lmaganda ham patalogiyaning o'rni to'ldirilmaydi.

Yopiq aksentuatsiya- normaning odatiy holatda namoyon bo'lishi. Xarakterning aksentuatsiyalangan jihatlari psixik jarohatlar sabab namoyon bo'lishi mumkin. Ammo u sotsial deadaptatsiyaga olib kelmaydi.

Keyinchalik 1977-yilda A.Y. Lichko ham o'zining aksentuatsiya tipologiyasini ishlab chiqdi. Lekin u ishlab chiqqan tipologiya o'ziga xos bo'lib, faqatgina o'smirlar uchun ishlab chiqilgan edi. Ular quyidagilardir:

- Epileptik
- Isterik
- Gipertim
- Sikloid
- Shizoid
- Psixoastenik
- Konform
- Psixonevrotik
- Beqaror
- Senzitiv

Undan tashqari Eyzenk ham xarakter aksentuatsiyasini o'rganishda o'zining psixologik nazariyalari va metodologiyalaridan foydalangan. U shaxsiyatni tahlil qilishda biologik va genetik omillarga e'tibor qaratgan. Eyzenk shaxsiyatni uch asosiy o'lchov bo'yicha tasniflagan:

- Eksrtoversiya va introversiya: ekstrovertlar ijtimoiy faol va energiyaga to'la bo'lsa, introvertlar ko'proq ichki dunyoga e'tibor berishadi va yolg'iz vaqt o'tkazishni afzal ko'rishadi.

- Nevrotizm: bu o'lchov shaxning hissiy barqarorligini, va stressga chidamliligini ko'rsatadi. Yuqori nevrotizm darajasi odamning hissiy jihatdan beqarorligini anglatadi.

- Psixotizm: bu o'lchov shaxsning agressivligi, yaratuvchanligi va antisotsial xususiyatlarini ifodalaydi. Psixotizm darajasi yuqori bo'lgan shaxslar ko'pincha tajovuzkor yoki oddiy qabul qilinmaydigan xatti-harakatlarga ega bo'lishi mumkin.

Eyzenkning xarakter aksentuatsiyasi nazariyasi psixologiya sohasida keng tarqalgan bo'lib, shaxsiyatni tushunish uchun butun bir asar sifatida qabul qilinadi. Uning yondashuvlari psixologik tadqiqotlar va amaliyotda keng qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchidan, xarakter aksentuatsiyasi shaxsga o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilish va aynan shu tomonlarini yaxshilash uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni beradi. Ikkinchidan, psixologlar xarakter aksentuatsiyasini o'rganish orqali mijozlarning muammolarini osonroq tushunishlari va shunga muvofiq ish ko'rishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy psixologiya M.E. Zufarova Toshkent.:2010.
2. Deviant xulq-atvor psixologiyasi I.M. Hakimova O'quv qo'llanma Toshkent.:2014.
3. Zokirova A. XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING TIPLARI. Journal of new century innovations, 19-23.
4. Z. Alisherova "Akademik litsey o'quvchilarida xarakter aksentuatsiyasi ta'sirining psixologik xususiyatlari" NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot jurnalining 6-soni
5. Zarnigora Alisherova, & Norquziyev Izzatillo. (2024). O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI BUZILISHLARNING NAMOYON BO'LISHI . Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 21(4), 44–47. Retrieved from <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/5258>



Mutabarova Mohinora Muntozjon qizi

Erkinova Gulnoza Xursanbek qizi

Ro'ziboyeva Oyimxon Jahongir qizi

Central Asian Medical University Davolash ishi yo'nalishi 14/23-guruh talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy tibbiyot so'nggi yillarda ulkan taraqqiyotga erishdi. Sun'iy intellekt, robotexnika, genetik muhandislik va nanotexnologiyalar bemorlarni davolash usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu maqolada biz kelajak tibbiyotining asosiy yo'nalishlari va ularning inson salomatligiga ta'siri haqida gaplashamiz.

Kalit so'zlar: robotexnika, nanorobot, sun'iy intellekt, genetik muhandislik nanotexnologiya, personalizatsiya.

KIRISH: SUN'IY INTELEKT VA ROBOTEXNIKA

Sun'iy intellekt (SI) va robotexnika tibbiyot sohasida ijobiy o'zgarishlar qilishda davom etmoqda. Ularning asosiy o'rinlari quyidagilar: Tashxis qo'yishda yordam: Sun'iy intellekt algoritmlari KT, MRT, rentgen kabi tibbiy tasvirlarni tahlil qilib, kasalliklarni erta aniqlashga yordam beradi. SI yordamida saraton, yurak kasalliklari va boshqa kasalliklarni aniqlash tezligi va aniqligi oshadi. Jarrohlik robotlari Da Vinci kabi robotlar murakkab operatsiyalarni aniqroq bajarishda jarrohlarga yordam beradi. Minimal invaziv operatsiyalar (kichik kesiklar orqali) yordamida bemorlarning tiklanish jarayoni tezlashadi. Tibbiyotda SI yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish. Bemorlarga tegishli katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali shaxsiylashtirilgan davolash usullarini tavsiya etish. Klinik tadqiqotlar va dorilar samaradorligini tahlil qilish. Robot hamshiralar va parvarish tizimlari Robot-assistentlar yotoqda yotgan bemorlarga dori berish, ularning ahvolini kuzatish va oddiy parvarish xizmatlarini bajarishi mumkin. Aqlli protezlar va nogironlar uchun SI texnologiyalari yordamida harakatlanish imkoniyatlarini yaxshilash. Virtual shifokor va chatbotlar SI asosidagi virtual yordamchilar bemorlarga maslahat berib, shifokor qabuliga yozilish yoki muhim tibbiy ma'lumotlarni taqdim eta oladi. Chatbotlar simptomlarni tahlil qilib, dastlabki tashxis qo'yish yoki qaysi mutaxassisga murojaat qilish kerakligini aniqlashda yordam beradi. Dori ishlab chiqishda sun'iy intellekt algoritmlari mavjud ma'lumotlarni tahlil qilib, yangi dorilar yaratish jarayonini tezlashtiradi. Klinik sinovlar natijalarini oldindan taxmin qilish va dori vositalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kelajak istiqbollari Genetik tahlillar asosida shaxsiy davolash usullari yaratish. Nano-robotlar yordamida tanadagi kasalliklarni aniq joyiga yetkazib davolash. To'liq avtomatlashtirilgan kasalxonalar, SI yordamida bemorlarni boshqarish va diagnostika qilish. Sun'iy intellekt va robotexnika tibbiyotda inson omiliga bog'liqlikni kamaytirib, xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi va ko'plab inson hayotini saqlab qolish imkonini beradi.

Genlar terapiyasi va personalizatsiyalangan tibbiyot.

Genlar terapiyasi va personalizatsiyalangan davolash zamonaviy tibbiyotning ilg'or yo'nalishlaridan bo'lib, kasalliklarni yanada aniq va samarali davolashga qaratilgan. Genlar



terapiyasi genetik kasalliklarni tuzatish yoki davolash maqsadida hujayralarga o'zgartirilgan yoki yangi genlar kiritish usulidir. Bu usul quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: Sog'lom genni kiritish – mutatsiyaga uchragan gen o'rniga to'g'ri ishlaydigan genni joylashtirish. Noto'g'ri ishlayotgan genni o'zgartirish – gen tahrirlash texnologiyalari (masalan, CRISPR) orqali nosog'lom genni tuzatish. Zararli genlarni bloklash – ba'zi kasalliklarni keltirib chiqaradigan genlar faolligini pasaytirish. Bu terapiya asosan quyidagi kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi: Irsiy kasalliklar (masalan, Morfan kasalliklar) Saraton Immunitet yetishmovchiligi. Neyrodegenerativ kasalliklar Personalizatsiyalangan tibbiyot – har bir bemorning genetik, biologik va hayot tarziga moslashtirilgan individual davolash strategiyasini yaratishdir. An'anaviy tibbiyot standart protokollarga asoslangan bo'lsa, personalizatsiyalangan yondashuv bemorning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Asosiy usullari: Farmakogenetika – bemorning genetik xususiyatiga qarab eng samarali va xavfsiz dori tanlash. Onkologiyada individual terapiya – o'sma hujayralarining genetik tahliliga asoslangan maxsus davolash usullari. Biomarkerlar orqali kasallikni oldindan aniqlash – bemorning genetik tahlillari orqali kasalliklarga moyilligini aniqlash va profilaktika choralari ishlab chiqish. Personalizatsiyalangan davolashning afzalliklari: Dori vositalarining samaradorligi oshadi. Nojo'ya ta'sirlar kamayadi. Kasalliklarni oldindan aniqlash va oldini olish imkoniyati kengayadi. Bu ikkala yondashuv ham zamonaviy tibbiyotda inqilobiy o'zgarishlar olib kelmoqda va kasalliklarni davolashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Genlar terapiyasi va personalizatsiyalangan davolash zamonaviy tibbiyotning ilg'or yo'nalishlaridan bo'lib, kasalliklarni yanada aniq va samarali davolashga qaratilgan. Nanotexnologiya tibbiyotdagi o'rni

Nanotexnologiya tibbiyotda inqilobiy o'zgarishlar qilmoqda. Ushbu texnologiya kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olish jarayonlarini ancha samarali qiladi. Quyida uning asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

1. Nano-dorilar va dorilarning yetkazib berish tizimi

Nanopartikulalar dorilarni organizmga aniq yo'naltirib yetkazishga yordam beradi. Bu usul dorilarning faqat zararlangan hujayralarga ta'sir qilishiga, yon ta'sirlarning kamayishiga va davolash samaradorligining oshishiga olib keladi. Masalan, saraton kasalligida kimyoterapiya dorilari faqat o'simta hujayralariga yetkazilishi mumkin.

2. Nano-senslar va erta diagnostika

Nanotexnologiya yordamida ishlab chiqilgan biosenslar organizmdagi o'zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. Bu kasalliklarni erta aniqlash va tezkor chora ko'rish uchun muhimdir. Masalan, nanochiplar qon tarkibini tahlil qilib, saraton yoki diabet kabi kasalliklarning dastlabki bosqichlarini aniqlashi mumkin.

3. Sun'iy organlar va to'qimalar

Nano-materiallar orqali biokompatibil implantlar va protezlar yaratish mumkin. Masalan, nano-hujayralar yordamida teri yoki suyak to'qimalarini qayta tiklash texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

4. Antibakterial qoplamalar va dezinfeksiya

Nanomateriallar, ayniqsa kumush nanoparchalari, antibakterial xususiyatga ega. Ular tibbiy asbob-uskunalar, jarrohlik asboblari va hatto yara bog'lovchi materiallar uchun ishlatiladi. Bu infeksiya xavfini kamaytiradi.

5. Nano-jarrohlik va robotlashtirilgan tizimlar

Nano-robotlar yordamida inson organizmida mikrojarrohlik amaliyotlari o'tkazilishi mumkin. Ular qon tomirlarida harakatlanib, tromblarni yo'q qilishi yoki zarar yetgan to'qimalarni tiklashi mumkin.

Xulosa:Kelajakda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kasalliklarni oldini olish va ularni ertaroq aniqlashga yordam beradi.Bu texnologiyalardan foydalanish orqali biz qon tomir darajasidagi kasalliklarni ham davolashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Краинюков, П. Е., & Столяр, В. П. (2017). Цифровая медицина: перспективы совершенствования госпитального дела. Информационные и телекоммуникационные технологии, (34), 12-18.
2. Дедов, И. И., Тюльпаков, А. Н., Чехонин, В. П., Баклаушев, В. П., Арчаков, А. И., & Мошковский, С. А. (2012). Персонализированная медицина: современное состояние и перспективы. Вестник Российской академии медицинских наук, 67(12), 4-12
3. <https://www.forbes.ru/tehnologii/346531-sozdat-nelzya-otkladyvat-vklyuchatsya-li-goskorporacii-v-innovacionnoe-razvitie>.



Kholmurodova M.A

Scientific supervisor: Uzbekistan World Languages University

Ne'matullayeva Mukhlisa Sherali kizi

English philology faculty, 1st year student

nematullayevam8@gmail.com

Abstract: This article explores the etymological roots and cultural significance of selected Uzbek words and idioms, analyzing their historical development and semantic transformations. The study examines words like *kundosh* (co-wife), *qitmir* (a mischievous person), *munchoq* (beads), *hakalak* (a traditional game), *sapcha* (an unripe melon), and the proverb *sheriklik oshni it yemaydi* (shared food isn't eaten by dogs). Drawing on linguistic sources, cultural practices, and historical contexts, the article highlights how these terms have evolved to reflect Uzbek societal norms, traditions, and linguistic features. The findings underscore the role of Uzbek as a repository of cultural memory, showcasing its dynamic interactions with other languages such as Arabic and Turkic languages.

Keywords: Uzbek language, etymology, linguistic history, cultural anthropology, traditional idioms, semantic evolution.

Аннотация: В статье рассматриваются этимологические корни и культурное значение некоторых узбекских слов и идиом, анализируются их историческое развитие и семантические преобразования. Исследуются такие слова, как *кундаш* (соперница), *китмир* (каверзный человек), *мунчоқ* (бусы), *хакалак* (традиционная игра), *сапча* (неспелая дыня) и пословица *шериклик ошни ит емайди* (собаки не едят совместно делённую еду). Основываясь на лингвистических источниках, культурных практиках и историческом контексте, в статье показывается, как эти термины отражают узбекские нормы, традиции и языковые особенности. Результаты подчёркивают значение узбекского языка как хранилища культурной памяти, демонстрируя его динамическое взаимодействие с другими языками, такими как арабский и тюркские языки.

Ключевые слова: Узбекский язык, этимология, история языка, культурная антропология, традиционные идиомы, семантическая эволюция.

The Uzbek language, part of the Turkic language family, is rich in linguistic diversity and cultural depth. Over centuries, it has absorbed influences from Persian, Arabic, and Russian, resulting in a unique linguistic identity. Words and idioms in Uzbek often encapsulate historical, cultural, and social narratives, making the language a significant medium for understanding Uzbek heritage. This paper examines the origins and meanings of some Uzbek words and idioms, shedding light on their linguistic and cultural importance.

In this scientific article, I wanted to explain in a simple way the origin of some Uzbek words and phrases

The term kundosh, meaning "co-wife," originates from the word kunilash, which signifies jealousy or rivalry. Historical usage in regions like Surkhandarya links kundosh to kunilash, emphasizing emotional tension in polygamous marriages. Early Turkic languages used "kuni" to mean jealousy, reinforcing this connection.

Qitmir (Mischievous Person). Derived from Arabic, qitmir originally referred to the thin membrane of a date seed. Over time, its meaning evolved metaphorically to describe someone with a subtle yet irritating disposition. Additionally, qitmir is the name of the dog accompanying the "Seven Sleepers" in Islamic and Christian traditions, further adding a religious layer to its connotations.

Munchoq (Beads). The word munchoq, often pronounced mo'nchoq in dialects, is derived from bonchuq in older Turkic languages, meaning "necklace." Linguistic transformations, such as the interchangeability of "b" and "m" sounds, contributed to its modern form. The term reflects the significance of jewelry in Uzbek culture, symbolizing beauty and status.

Hakalak (A Traditional Game). Hakalak refers to a childhood game played by hopping on one foot through squares drawn on the ground. The idiom hakalak otmoq (to hop around) metaphorically describes erratic or unsteady behavior. The word's playful origins tie it closely to Uzbek childhood traditions.

Sapcha (Unripe Melon). Sapcha denotes an immature melon, often used metaphorically to imply inexperience or lack of maturity. In the idiom boshingni sapchadek uzib tashlayman (I'll tear off your head like a sapcha), the imagery of easily breaking the fruit from its stem conveys the threat's intensity and belittlement.

Sheriklik Oshni It Yemaydi (Shared Food Isn't Eaten by Dogs). This proverb emphasizes the value of communal sharing in Uzbek culture. The comparison to dogs, which hoard food, highlights the distinction between human generosity and animal selfishness. The idiom underscores the social expectation of harmony and cooperation.

The analysis reveals how Uzbek words and idioms serve as cultural markers, reflecting societal values and historical influences. The etymology of these terms showcases the dynamic interplay between language and culture, with external linguistic influences enriching the Uzbek lexicon. Furthermore, these expressions often carry moral or philosophical lessons, embodying the collective wisdom of the Uzbek people. Uzbek words and idioms encapsulate centuries of cultural and historical evolution, acting as a bridge between past traditions and contemporary life. Their study not only enhances our understanding of the Uzbek language but also provides insight into the cultural and moral fabric of Uzbek society.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Eshqobil Shukur. (2023). O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent: O'zbekiston Milliy Noshriyoti.

2. Karimov I. (2001). O'zbek madaniyati va milliy qadriyatlari. Toshkent: Ma'naviyat Nashriyoti.
3. Ona tili 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.



DIDAKTIK O'YINLARNING OLIY TA'LIM TALABALARILARNING BILIMINI
SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

Meyliyeva Shoxista Rustamovna

Assistant

Yodgorova Gulnora Isroil qizi

Assistent

Ulug'murodov Murodilla Bektemirovich

Talaba Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim berishda metodlar va texnologiyalar xususida fikr yuritiladi. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.*

Kalit so'zlar: *didaktika, ta'lim, tarbiya, didaktik o'yinlar*

KIRISH

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi. Ta'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o'zining boshlang'ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo'lgan talabini qondirgan. Ijtimoiy taraqqiyot ta'limning madaniyatshunoslik funktsiyasini yuzaga keltirdi. Ta'limning rivojlanishiga boshqa ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatdi, natijada hukmron sinflar umummadaniy va takomillashib boruvchi bilimga o'z monopoliyasini o'rnatib boshladilar, aholining asosiy qatlamlari esa kundalik turmushda zarur bo'ladigan amaliy bilimlarnigina egalladilar. Ta'lim mazmunining asosiy nazariyalari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Pedagogika fani ta'lim mazmunining material va formal nazariyasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining material nazariyasi ayrim manbaalarda didaktik materializm yoki qomusiylik (ensiklopedizm) deb yuritildi. Bu nazariyaning asosiy maqsadi fanning turli sohalaridan mumkin qadar ko'p miqdorda bilim berishdir. Bunday qarashni Ya.A. Komenskiy ham yoqlagan va o'zining darsligida o'quvchilarga zarur bo'lgan barcha bilimlarni joylashtirishga ko'p yillik hayotini bag'ishladi. Formal nazariya yoki didaktik formalizm ta'lim mazmunini qobiliyatlar va bilishga bo'lgan qiziqishni o'stirish vositasi sifatida tushuntiradi. Didaktik formalizmning nazariy asosini bir faoliyat sohasida olingan bilim va ko'nikmalarni ikkinchisiga ko'chirish holati tashkil etadi.

Didaktik o'yin vositasida talabalarining bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, talabalarda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin vositasida talabaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. Psixologiyada talaba psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina talabada shaxsning hamma

tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yindagina talaba psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turidan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratadi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U talabalar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi talabalarda ma'naviy va aqliy qoniqlik hissi shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin talabaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikda o'yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. Didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar, o'yin mashg'ulotlari, mashq o'yinlar. Didaktik o'yinlar uchun o'yin g'oyasi va o'yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmuni amalga oshadi. Qoidaning mavjudligi o'yin ta'sirini amalga oshirish va o'yin vazifasini qo'llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi. Didaktik o'yinda talaba qoidalarga rioya qilishga o'rganadi Chunki qoidalarga rioya qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'yinda qatnashish jarayonida ijodiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi. Didaktik o'yinda talaba yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda talabaning ma'lum bir imkoniyatlari namoyon bo'ladi.

Syujetli-rolli:

Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob'yektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallash

Ijodiy o'yin:

Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda, muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish, ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish

Xulosa

Shuni aytish joizki hozirgi zamon talablariga mos holda dars o'tish yangi ped texnologiyalarni joriy etish lozim. Biz bilamizki XXI asr texnika asri hisoblanib shunday ekan bizga texnik asbob-uskunalaridan programalardan keng unimli foydalanib turli xil slaydlar orqali turli xil didaktik o'yinli texnologiyalarni tashkil etib dars jarayonini samarali o'tishiga harkat qilish kerak, albatta. Talaba o'quvchilarni bilim saviyasini oshirish uchun didaktik o'yinli texnologiyalar yordamida dars jarayonda qo'llash uning samarasiga erishish hamda mavzuni o'zlashtirib olganligi haqida bilib olishimiz mumkin. Shu o'yinlar orqali talabani qanday bilimlarga ega ekanligi haqida ularning fazoviy tasavvurlarini oshiribgina qolmay endiki uni shu fanga qiziqishlarini rivojlantirishga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеев А.А. Взаимодействие образных и символических структур в развивающемся интеллекте ребёнка. С-Пб.: Питер, 2001. 89 с.
2. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - СПб.: Питер, 2004. - 192 с.
3. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Ozodova Madina. "Technology Of Training." Aimed At Developing Creative Working Skills In The Training Of Primary School TeachersThe American Journal of Social Science and Education Innovations2021/3/31: 546-550.
4. Zikiryayev A. va boshqalar. O'quvchilar bilimini tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // —Xalq ta'limi jurnali, 2001, 6-son. –19-b. 3. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o'yinlarning ahamiyati. // —Ma'rifat, 2002, 6-son. – 16-b.
5. Yusupova A, Qurbonniyozov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammolari. // —Pedagogik ta'lim jurnali, 2000, 3-son. –18-b. 5. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // —Pedagogik ta'lim jurnali, 2000, 3-son. –11-b.
6. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Safarova Nilufar Vohidovna, Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li OLIY TA'LIM TALABALARINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH. INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE British International Science Conference. 2024. – 255
7. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Pirimova Shaxlo Jo'rayevna, Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL. 2024-yil . 44-son. 66-69 b.
8. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li TALABALARINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH. PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. Part 16 November 29 th COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS. MADRID 2024. 74-78 b.



TERMIZ SHAHRINING IQLIMIY VA BIOMETEOROLOGIK SHAROITLARI

Karimov I.A.

Toshkent gidrometeorologiya texnikumi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada Termiz meteorologiya stansiyasida 2012-2021 yy. davrida olib borilgan muddatli kuzatuv ma'lumotlarini statistik qayta ishlash asosida Termiz shahrining iqlimiy sharoitlari baholangan. Havo qurg'oqchiligining termogigrometrik koeffitsiyenti (TGK) asosida shaharda yuzaga keladigan biometeorologik sharoitlarining vaqt bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: havo harorati va namligi, bulutli va quyoshli kunlar, atmosfera yog'inlari, iqlimiy sharoitlar, havo qurg'oqchiligining termogigrometrik koeffitsiyenti.

КЛИМАТИЧЕСКИЕ И БИOMETEОРОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ГОРОДА
ТЕРМЕЗ

Каримов И.А

Ташкентский гидрометеорологический техникум, г. Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье, на основе статистической обработки срочных наблюдений метеорологической станции Термез за период 2012-2021 гг., оценены климатические условия города Термез. На основе термогигрометрического коэффициента сухости воздуха (ТГК) определены особенности временного распределения биометеорологических условий, возникающих в городе.

Ключевые слова: температура и влажность воздуха, облачные и солнечные дни, атмосферные осадки, климатические условия, термогигрометрический коэффициент сухости.

CLIMATIC AND BIOMETEOROLOGICAL CONDITIONS OF TERMEZ CITY

Karimov I.A

Tashkent Hydrometeorological Technical School, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: In the article, on the basis of statistical processing of term observations of Termez meteorological station for the period 2012-2021, the climatic conditions of Termez city are estimated. On the basis of the thermohygrometric coefficient of air dryness (THC) the features of temporal distribution of biometeorological conditions in the city were determined.

Keywords: air temperature and humidity, cloudy and sunny days, precipitation, climatic conditions, thermo-hygrometric coefficient of air dryness.

Bugungi kunga kelib jahon miqyosida bioiqlimiy sharoitlarni tadqiq etishga bag'ishlangan ko'p sonli ilmiy ishlar e'lon qilingan. MDH mamlakatlarida bajarilgan ilmiy ishlarda turizm, tibbiyot, shaharsozlik va boshqa bir qator sohalarda qo'llaniladigan ko'plab biometeorologik indekslarni tahlil qilish asosida turli hududlarning bioiqlimiy sharoitlari baholangan [3, 7]. Mazkur adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, MDH mamlakatlarida qo'llaniladigan bioiqlimiy sharoitlarni baholash usullari biometeorologik indekslarning katta majmuasiga asoslangan bo'lib, ularning soni 30 dan ortiq. [3].

O'zbekistonda o'tgan asrning 60-80-yillarida B.A. Ayzenshtat rahbarligida amalga oshirilgan qator tadqiqotlar ma'lum [1, 2]. Bu tadqiqotlarda klassik biometeorologik indekslar asosida nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo hududida bioiqlimiy sharoitlar o'rganilgan va kartalashtirilgan. Davom etayotgan global iqlim o'zgarishi hamda yangi baholash usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston hududlarining bioiqlimiy sharoitlarini tadqiq qilishga obyektiv zaruriyat mavjud [5, 6, 8, 9].

Turizm sanoatida foydalanish uchun Termiz shahrining iqlimiy va biometeorologik sharoitlarini aniqlash tadqiqotning maqsadi, iqlimiy kattaliklar va havo qurg'oqchiligi termogigrometrik koeffitsiyentining vaqt davomidagi taqsimotini baholash tadqiqotning vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqot ishini bajarishda O'zgidrometning Gidrometeorologiya fondida saqlanayotgan Termiz meteorologiya stansiyasida 2012-2021 yillar mobaynida qayd etilgan muddatli kuzatuv ma'lumotlaridan hamda, issiqlik komforti sharoitlarini baholash uchun Y.V.Petrov va A.Q.Abdullayevlar tomonidan taklif etilgan birliksiz biometeorologik indeks – TGKdan foydalanildi:

$$K = \frac{T - t_d}{T} = \frac{\Delta}{T} \quad (1)$$

bu yerda, T – havo harorati (Kelvin), (t_d) – shudring nuqtasi harorati, Δ – shudring nuqtasi defitsiti.

Indeks ham havoning harorati, ham undagi namlik miqdoriga bog'liq bo'lib, muayyan havo haroratida havodagi suv bug'ining to'yinish holatidan qanchalik uzoqda ekanligini ko'rsatadi. O'zgarmas namlik sharoitida haroratning ortishi havo quruqligining ortishiga, o'zgarmas havo harorati sharoitida namlikning ortishi, aksincha, quruqlikning kamayishiga olib keladi. Indeks qabul qiladigan qiymatlar ko'plab meteorologik omillarga bog'liq: yog'ingarchilik miqdori va turi, to'shalgan sirt holati va turi, bulutlilik miqdori va shakli va hokazo. Shunday qilib, u muayyan hudud ob-havo va iqlimining obyektiv xarakteristikasi hisoblanadi. Real sharoitlarda, sovuq qutbiy kengliklarda va issiq cho'l hududlarida, indeksning qiymati 0 dan 150%o gacha chegaralarda o'zgarishi mumkin [5].

Inson organizmi issiqlik komforti sharoitlarining havo harorati va TGK ga bog'liqligi asosida 6 ta hissiyot zonolari ajratiladi: 1 – o'ta sovuq, 2 – sovuq, 3 – komfort, 4 – nisbiy komfort, 5 – issiq, 6 – o'ta issiq [6, 8, 9].


Termiz shahrining yil davomidagi iqlimiy sharoitlari meteorologik kattaliklarning oylik, dekadalik va sutkalik qiymatlari taqsimoti ko'rinishida havola qilindi. TGK ko'p yillik o'rtacha qiymatlarining taqsimoti tadqiq etilib, issiqlik komforti sharoitlarining sutka va yil davomidagi o'zgarishlari aniqlandi.


Termiz meteorologiya stansiyasida 2012-2021 yillarda qayd etilgan havo harorati va namligi, bulutli va quyoshli kunlar, atmosfera yog'inlari miqdori, shamol tezligi va yo'nalishi to'g'risidagi muddatli kuzatuv ma'lumotlarini statistik qayta ishlash asosida Termiz shahrining iqlimiy sharoitlari baholandi.

Ko'p yillik o'rtacha oylik havo harorati va atmosfera yog'inlari miqdorining yil ichidagi taqsimoti tahlili, Termizda eng issiq oy iyul ($31,6^{\circ}\text{S}$), eng sovuq oy yanvar ($5,0^{\circ}\text{S}$) ekanligini ko'rsatdi. Tadqiq etilayotgan davrda Termiz shahrining ko'p yillik o'rtacha yillik harorati $18,0^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etgan. Termizda ko'p yillik o'rtacha yillik atmosfera yog'inlari miqdori 165,0 mm ni tashkil etib, ularning asosiy qismi oktabrdan maygacha bo'lgan davrda kuzatiladi. Shu bilan birga fevral, mart, aprel va noyabr eng seryog'in oylar bo'lib, ko'p yillik o'rtacha hisobda mos ravishda 34,8; 31,7; 28,4 va 22,8 mm miqdorda atmosfera yog'inlari qayd etilgan (1a-rasm).

Ko'p yillik o'rtacha yog'inli kunlar soni va atmosfera yog'inlari miqdorining yil ichidagi o'zgarishini dekadalik ma'lumotlar asosida tahlil qilamiz. Termiz shahrida yog'inlar kuzatilgan kunlar soni katta o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, yanvarning birinchi dekadasi dan mayning so'nggi dekadasi oralig'ida hamda noyabr va dekabrning birinchi va uchinchi dekadalarida bunday kunlar soni 1 va undan ortiqni tashkil etadi. Iyundan oktabrgacha bo'lgan davrda yog'inli kunlar deyarli kuzatilmaydi. Dekada davomida 10 mm, ya'ni sutkada o'rtacha 1 mm dan ko'p yog'inlar kuzatiladigan davr (fevralning birinchi va ikkinchi dekadasi hamda martning ikkinchi dekadasi) yilning sovuq yarim yilligiga mos keladi. Qolgan davrlarda 5 mm dan kam yog'inlar qayd etiladi. Iyul-sentabr oralig'idagi davrda esa yog'inlar kuzatilmaydi (1b-rasm).

Inson organizmida dimiqish holatining yuzaga kelishi ob-havo sharoitlarining fizikaviy tashkil etuvchilari qatoriga kiruvchi suv bug'ining bosimi bilan tavsiflanadi. Termiz shahrida ko'p yillik o'rtacha suv bug'i bosimining eng kichik qiymatlari (6,2-6,4 gPa) qish oylarida, eng katta qiymatlari (12,4-12,7 gPa) esa may va iyul oylarida qayd etiladi. Estetik tashkil etuvchi bo'lgan nisbiy namlikning yil davomidagi minimal qiymatlari (29,6-30,4%) yoz oylarida, maksimal qiymatlari esa (70,7-71,9%) qish oylarida kuzatiladi. Shunday qilib, ko'p yillik o'rtacha hisobda yil davomida Termiz shahrida inson organizmida dimiqish holatlari va tuman hosil bo'lishiga olib keluvchi sharoitlar kuzatilmaydi (1v-rasm).






1-rasm. Termiz meteorologiya stansiyasida a) ko'p yillik o'rtacha oylik havo harorati (T) va atmosfera yog'inlari miqdorining (R) yil ichidagi taqsimoti, b) ko'p yillik o'rtacha yog'inli kunlar soni va atmosfera yog'inlari miqdorining (R) yil ichidagi o'zgarishi, v) ko'p yillik o'rtacha oylik suv bug'i bosimi (ye) va nisbiy namlikning (f) yil ichidagi taqsimoti, g) ko'p yillik o'rtacha bulutli va quyoshli kunlar sonining yil ichidagi o'zgarishi (2012-2021 yy.)

Ko'p yillik o'rtacha bulutli va quyoshli kunlar sonining yil ichidagi o'zgarishi diagrammasi 1g-rasmda keltirilgan. Noyabrning ikkinchi o'n kunligidan boshlab bulutlilik 5 balldan yuqori bo'lgan kunlar soni dekananing yarmidan kamroq kunlarni tashkil etadi. Bu holat mayning ikkinchi o'n kunligigacha davom etib, eng ko'p bulutli kunlar soni (3 va undan ko'p) yanvar-mart oralig'iga to'g'ri keladi. Iyundan oktabrning birinchi o'n kunligigacha bo'lgan davrda bulutli kunlar soni deyarli kuzatilmaydi. Quyoshli kunlar soni (bulutlilik 0 ball) yanvar-may oralig'ida o'rtacha 4 kun davomiylikka ega bo'lib, mayning uchinchi o'n kunligidan boshlab keskin ortib boradi va avgust-sentabrda dekadada 9-10 kungacha qiymatni tashkil etadi. Oktabrning uchinchi o'n kunligidan boshlab quyoshli kunlar soni asta-sekin kamayib, dekabrda bunday kunlar soni 5-6 kun atrofida bo'ladi (1g-rasm).

Biometeorologik indeks bo'lgan TGKning yilning muayyan kunlari va kuzatish muddatlari uchun ko'p yillik kuzatuv ma'lumotlarini o'rtachalash orqali olingan taqsimoti natijalari issiqlik komforti sharoitlarining sutka va yil ichidagi o'zgarishlarining umumiy qonuniyatlarini tahlil qilishga imkon bersada, yuzaga keluvchi issiqlik komforti sharoitlarining real taqsimotini miqdoriy baholashga yetarli emas. Issiqlik sharoitlarining taqsimotini miqdoriy baholash maqsadida har bir kuzatish muddatlarida tadqiqot davri mobaynida qayd etilgan barcha komfort sharoitlarining foizlarda ifodalangan takrorlanuvchanligi har bir oyning dekadalari kesimida hisoblandi (2-rasm).

Hisoblash natijalarining ko'rsatishicha, Termiz shahrida qish oylarida 1 va 2-zona sharoitlari ustuvorlik qilsada, 3-zona (komfort) sharoitlari ham kuzatilib, sutka davomida 20% (soat 08.00, yanvarning birinchi ikkinchi dekadalari) dan 30% (soat 05.00, fevralning uchinchi dekadasida) gacha takrorlanuvchanlikka ega.

Martdan boshlab 1 va 2-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi kamayib borsada, kunduzgi kuzatuv muddatlarida ularning takrorlanuvchanligi biroz saqlanib qoladi. Shu bilan birga martning birinchi dekadasidan boshlab 4-zona (nisbiy komfort) sharoitlari ham kichik takrorlanuvchanlik bilan qayd etiladi. Martning uchinchi dekadasiga kelib 3-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi sezilarli ortib, 70% gacha takrorlanuvchanlikka ega bo'ladi.



2-rasm. Termizda issiqlik komforti sharoitlarining ko'p yillik o'rtacha dekadalik takrorlanuvchanligi, % (2012-2021 yy.)

1 – o'ta sovuq, 2 – sovuq, 3 – komfort, 4 – nisbiy komfort, 5 – issiq, 6 – o'ta issiq

Aprelning birinchi dekadasida 1 va 2-zona sharoitlari sutka davomida o'rtacha 7% takrorlanuvchanlikka ega bo'lib, bu oyning keyingi dekadalarida ularning takrorlanuvchanligi keskin kamayadi. 3-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi mos ravishda birinchi dekada 50-60% ni tashkil etib, keyingi dekadalarda ham saqlanib qoladi. Shu bilan birga aprelda 4 va 5-zona sharoitlari ham qayd etila boshlaydi. Oyning uchinchi dekadasida 4-zonaning eng katta takrorlanuvchanligi 60% dan ortiq holatlarda qayd etilgan (soat 17.00). 5-zona sharoitlari esa 8% gacha (uchinchi dekada, soat 05.00) takrorlanuvchanlik bilan asosan kechki muddatlarda kuzatiladi.

May oyida kechki, tungi va ertalabki muddatlarda 4-zona (nisbiy komfort) sharoitlari ustuvorlik qilsa (80-90%), kunduzgi muddatlarda 5-zona sharoitlari 22% gacha takrorlanuvchanlikka ega.

Yoz oylarida Termizda 4 va 5-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi eng katta qiymatlarga ega bo'lib, harorat eng yuqori bo'lgan iyul oyida soat 14.00 va 17.00 da 5-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi 75% gacha holatlarda kuzatiladi. Shu bilan birga iyulning ikkinchi va uchinchi dekadalarida 6-zona (o'ta issiq) sharoitlari ham kichik takrorlanuvchanlik bilan (10-15%) qayd etiladi. Tungi soat 02.00 da 3 va 4-zona, tonggi 05.00 esa 3-zona sharoitlari ustuvorlik qiladi.

Sentyabrdan boshlab, havo haroratining pasayishi bilan, issiqlik komforti zonalarining taqsimotida 4-zona takrorlanuvchanligining kamayishi, 3 va 2-zona takrorlanuvchanligining esa ortishi kuzatiladi. Bu o'zgarishlar sutka davomida notekis taqsimotga ega bo'ladi. Kunduzgi va kechki kuzatuv muddatlarida (soat 11.00 dan 20.00 gacha) bu oyda 3-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi 55-65% ni, 4-zona sharoitlarining takrorlanuvchanligi 30-40% ni tashkil etadi. Tungi va ertalabki soatlarda 3 va 2-zonalar sharoitlari ustuvorlik qiladi. Oktabr-noyabr davri 3-zona takrorlanuvchanligining kamayishi va 2 va 1-zona sharoitlari takrorlanuvchanligining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Noyabrning uchinchi dekadasi kelib sutka davomida 3-zonaning takrorlanuvchanligi 20-40%, 2-zonaning takrorlanuvchanligi 40%, 1-zoning takrorlanuvchanligi esa 45-60% oralig'ida o'zgaradi.

Olingan natijalarni tahlil qilish asosida Termiz meteorologik stansiyasida 2012-2021 yy. davrida ko'p yillik o'rtacha yillik havo harorati 18,0°S ni, ko'p yillik o'rtacha atmosfera yog'inlari 165,0 mm ni tashkil etishi aniqlandi. Yilning eng issiq oyi – iyulda ko'p yillik o'rtacha oylik havo harorati 31,6°S, eng sovuq oyi – yanvarda esa 5,0°S ga teng. Ko'p yillik o'rtacha atmosfera yog'inlari maksimumi fevralda (34,8 mm), minimumi esa iyun, iyul, avgust va sentabr oylaridada (0.4 mm dan kam) kuzatiladi. Yilning sovuq davrida ko'p yillik o'rtacha yog'inli kunlar soni dekadada 1 kunni tashkil etadi. Fevral va mart oylarida bunday kunlar soni 2 kungacha ortadi.

Termiz meteorologiya stansiyasida ko'p yillik o'rtacha bulutli va quyoshli kunlar sonining yil ichidagi o'zgarishi tahlili noyabrning ikkinchi dekadasi dan mayning ikkinchi dekadasi gacha bo'lgan davrda bulutli kunlar dekadada 2 kundan ortiq, iyul-sentabr davrida quyoshli kunlar soni dekadada 8 kundan ortiq bo'lishini ko'rsatdi.

Biometeorologik indeks hisoblangan TGK qiymatlarining tahlili uning ko'p yillik o'rtacha qiymatlari yaqqol ifodalangan sutkalik va yillik o'zgarishlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Biroq, olingan natijalar issiqlik komforti sharoitlarining sutka va yil ichidagi o'zgarishlarining umumiy qonuniyatlarini tahlil qilishga imkon bersada, yuzaga keluvchi issiqlik komforti sharoitlarining real taqsimotini miqdoriy baholashga yetarli emasligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айзенштат Б.А. Биоклиматический атлас Средней Азии. – М.: 1973. – 156 с.

2. Айзенштат Б.А., Лукина Л.П. Биоклимат и микроклимат Ташкента. – Л.: Гидрометеиздат, 1982. – 128 с.

3. Андреев С.С. Интегральная оценка климатической комфортности на примере территории Южного Федерального округа России. Монография. - С.-Пб.: изд. РГГМУ, 2011. – 304 с.

4. Переведенцев Ю.П., Шумихина А.В. Динамика биоклиматических показателей комфортности природной среды в Удмуртской Республике // Ученые записки Казанского университета. Серия Естественные науки. - Казань, 2016, Т. 158, кн. 4. – С. 531-547.

5. Петров Ю.В., Абдуллаев А.К. К вопросу оценки сухости воздуха // Метеорология и гидрология. – М.: НИЦ «Планета», 2010. – № 10, – С. 90-95.

6. Петров Ю.В., Ахмедова М.Ш. Биоклиматические условия Узбекистана // Известия Географического общества Узбекистана, 2019. 55-том, – С. 206-209.

7. Троян П. Экологическая биоклиматология. – М.: Высшая школа, 1988. – 205 с.

8. Холматжанов Б.М., Петров Ю.В., Абдикулов Ф.И., Абдикулова М.Р., Сайпиддинов З.Ф., Махмудов М.М., Халматжанов Ф.М. Условия теплового комфорта города Ташкент // Илм-фан ва инновацион ривожланиш. №2. 2020. - Б. 74-82.

9. Kholmatjanov B.M., Petrov Yu.V., Abdikulov F.I., Abdikulova M.R., Saypiddinov Z.F., Makhmudov M.M., Khalmatjanov F.M., Safarov F.B. Bioclimatic Resources and Their Consideration for Tourism Development in Selected Destinations of Uzbekistan // Indonesian Journal of Law and Economics Review IJLER 7 (0). doi: 10.21070/ijler.2020.V7.481.



УДК:336.76

ТИЖОРАТ БАНКЛАРДА МОЛИЯВИЙ ХИЗМАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Розиқов Бехзод Баҳром ўғли

*Тошкент давлат иқтисодий университетини мустақил изланувчиси. Graf-
6512@mail.ru ORCID:0009-0009-7693-3288*

Анотация: *Тижорат банклар томонидан кўрсатиладиган молиявий хизматлар ва уларнинг аҳамиятига баҳо берилади. Банклар фуқаролар ва корхоналарга омонатлар, кредитлар, пул ўтказмалари, пластик карталар, депозитлар ва инвестиция хизматлари каби турли хил молиявий хизматларни тақдим этиши орқали иқтисодий фаолиятни осонлаштиради. Шунингдек, банклар миқдорларга молиявий маслаҳатлар ва кўрсатмалар бериши орқали уларнинг молиявий хавфсизлигини таъминлайди. Мақолада банклар иқтисодий жараёнлардаги роли ва уларнинг аҳолининг турмуш шароитини яхшилашдаги муҳимлиги ҳақида тўхталилади.*

Калит сўзлар: *тижорат, банклар, молия, хизматлар, рақамли трансформация, таклифлар, миқдорлар, тажриба, хатарлар, бошқариш, ривожлантириш, молиялаштириш, инновациялар.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Розиқов Бехзод Баҳром ўғли

Независимый студент Ташкентского государственного экономического университета.

В данной статье рассматриваются Торгово-банковская система оценивает качество предоставляемых финансовых услуг и их важность. Банковские предприятия предоставляют, кредиты, денежные средства, пластиковые карты, депозиты и инвестиционные услуги для облегчения экономической деятельности. Еще банки предоставляет финансовые услуги и услуги, позволяющие снизить финансовые риски. Банки играют важную роль в развитии экономики и развитии населения.

Ключевые слова: *коммерческие банки, финансовые услуги, цифровая трансформация, продуктовые предложения, качество обслуживания клиентов, финансовая доступность, управление рисками, развитие талантов, устойчивое финансирование, инновации.*



SCIENTIFIC AND THEORETICAL DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT
OF FINANCIAL SERVICES IN COMMERCIAL BANKS.

Rozikov Bekhzod Bakhrom ogli

Independent student of Tashkent State University of Economics.

The financial services provided by commercial banks and their importance are assessed. Banks facilitate economic activity by providing citizens and businesses with various financial services such as deposits, loans, transfers, plastic cards, deposits and investment services. Banks also ensure their financial security by providing financial advice and guidance to customers. In Makola, it is mentioned about the role of banks in economic processes and their importance in improving the living conditions of the population.

Keyword: commercial banks, financial services, digital transformation, product offerings, customer experience, financial inclusion, risk management, talent development, sustainable finance, innovation.

КИРИШ:

Банкдаги молиявий хизматлар кенг соҳани қамраб олади ва турли хил хизматларни ўз ичига олади. Ушбу хизматлар фуқаролар ва корхоналарнинг молиявий эҳтиёжларини қондиришга қаратилган. Қуйида банклар томонидан тақдим этиладиган баъзи молиявий хизматларга умумий маълумот:

1. Ҳисоб рақамлари:

- Топлаш ҳисоблари (счёт) ва жорий ҳисоблар: Муаммо ва депозитлар учун ёзилган, улар орқали пуллар ўтказиш, нақд пул олиш ва бошқа операциялар амалга оширилади.

- Сберегательный (ощадный) счёт: Пулларни жамғариш ва вақтинча сақлаш учун ҳисоб.

2. Кредитлар:

- Потребительский кредит: Шахсларга шахсий эҳтиёжлар учун бериш мумкин бўлган кредитлар.

- Автокредит: Машина ёки транспорт воситаси сотиб олиш учун қарз.

- Ипотека: Жойлашиш учун хона ёки кўчмас мулк олиш учун бериладиган кредит.

- Бизнес кредитлар: Корхоналарга ишлаб чиқариш ва бошқа эҳтиёжлар учун кредитлар.

3. Депозитлар:

- Ҳар ойдаги фоизларнинг ошиши: Банкқа пул солиш ва улардан фоиз олиш орқали табиш қилиш.

- Шартли депозитлар: Муддатли депозитлар, кўпинча юқори фоиз билан.

4. Пул ўтказмалари ва пластик карталар:

- Пул ўтказмалари: Бир банкдан бошқа банкқа ёки мамлакатдан мамлакатга пулларни юбориш хизмати.



- Пластик карталар: Дебет ва кредит карталари орқали савдоларни амалга ошириш ва банкоматлардан нақд пул олиш имконияти.

5. Инвестиция хизматлари:

- Фонд бозорлари: Банклар орқали акциялар, облигациялар ёки бошқа молия инструментларига сармоя киритиш.

- Сармоявий портфель яратиш: Мутасаддилар ва ишончли ташкилотлар томонидан сармоялар учун хизмат кўрсатилади.

6. Суғурталар:

- Автомобиль, ҳаёт, тиббий ва молиявий суғурталар: Банклар молиявий хатарига қарши туриш учун турли хил суғурта хизматларини таклиф қилишади.

7. Таъминотли хизматлар:

- Молиявий маслаҳат: Банклар ўз мижозларига молиявий пландошлар, инвестициялар ва камчиликларни бартараф этиш бўйича маслаҳатлар беришади.

Бу хизматлар ҳар бир банкда турлича бўлиши мумкин, шунинг учун мижозлар банкни танлашда уларнинг эҳтиёжларига мос келадиган хизматларни кўриб чиқишлари керак.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Барқарор ривожланиш стратегияларига эътибор қаратган ҳолда тижорат банкларида молиявий хизматлар сифатини оширишга бағишланган адабиётларни таҳлил қилиш бир нечта асосий мавзулар ва хулосаларни очиб беради. Такдим етилган адабиёт ҳаволаларига асосланган қисқача таҳлил.

Бир нечта тадқиқотлар (Hamidi & Nourani, 2020; Dempsey & Goyal, 2021) атроф-муҳитни ҳисобга олишни банк операцияларига бирлаштиришга қаратилган "яшил" банк амалиётининг пайдо бўлиши ҳақида гапиради. Ушбу амалиётлар "яшил" молиявий маҳсулотларни таклиф қилиш, атроф-муҳит хавфини бошқариш тизимини жорий этиш ва барқарор инвестиция ташаббусларини илгари суришни ўз ичига олади. Адабиётда, агар банк фаолияти барқарор ривожланишнинг global мақсадларига мос келадиган бўлса, "яшил" banking ҳам экологик барқарорликка, ҳам молиявий кўрсаткичларга ҳисса қўшиши мумкинлиги тахмин қилинмоқда.

Рискларни бошқариш ва молиявий барқарорлик тадқиқотлар (Vithessonthi & Tongurai, 2018) форс кўрфази ҳамкорлик Кенгаши (GCC) мамлакатларида молиявий бозорларнинг ривожланиши, бизнес сикллари ва банк хатарлари ўртасидаги боғлиқликни кўриб чиқади. Топилмалар шуни кўрсатадики, молиявий бозорларнинг ривожланиши капиталга киришни кенгайтириши ва иқтисодиётни диверсификациялашга ёрдам бериши мумкин бўлса-да, у тизимли хавф ва молиявий беқарорликни ҳам ошириши мумкин. Хатарларни бошқаришнинг самарали усуллари, шу жумладан ишончли тартибга солиш назорати ва оқилона кредитлаш стандартлари молиявий барқарорликни сақлаш ва тижорат банкларининг барқарорлигини таъминлаш учун зарурди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили Б.Кингнинг "Bank 4.0. Banking фақат банкларда эмас, барча жойда" номли китобида глобал беқарор муҳит шароитида банклар тўлиқ



қайта ташкил етилиши, истеъмолчининг рақамли ҳаётига кириб бориши, фаолиятни кўп каналли хизматлардан бир каналли хизматлар тамойили асосида ташкил етиши муқаррар жараён эканлигига урғу берилган.

А.Азларованинг фикрича, Ўзбекистон банк тизимида сўнгги йилларда банк хизматларини сифатини ва кўламини ошириш бўйича қатор ишлар амалга оширилди. Лекин, жаҳонда бўлаётган ўзгаришлар, глобаллашув жараёни, рақобатбардошликни ҳаддан зиёд ривожланиши, тижорат банкларининг трансформация жараёнини янада фаоллаштириш, мижаозларга кўрсатилаётган банк хизматларини янги босқичга олиб чиқиш заруратини юзага келтиради.

Бугунги кунда анъанавий банк хизмат турларининг ўрнини рақамли banking хизмат турлари егалламоқда. Чунки банклар хизмат турларини такомиллаштириб бормас экан, улар даромадини ва мијозлар сонини кескин ошириб бориш имкониятидан маҳрум бўлиши мумкин. Молиявий хизматлар саноатининг ривожланиши боис жадаллашмоқда. Биз юқорида муҳоама қилган Финтех тенденциялари мијозлар талабига жавобан пайдо бўлди. Улар аслида провайдерларга молиявий маълумотлардан фойдаланиш имкониятларини ошириш, шаффофликни ошириш, транзакцияларни тезкор қайта ишлаш, масофадан хизматларни кўрсатиш, идентификация қилишнинг ишончли усуллари ва мијоз ҳаётининг айланиш жараёнини яхшироқ қўллабқувватлашга имкон берадиган янада сифатли хизматларни тақдим етишга ёрдам беради.

Умуман олганда, адабиёт таҳлили тижорат банкларида барқарор ривожланиш кўринишларининг аҳамияти ортиб бораётганидан далолат беради: банклар тобора кўпроқ яшил банк амалиётидан фойдаланмоқда. Келгусида ушбу стратегияларнинг барқарор ривожланиш натижаларига еришиш ва тез ўзгарувчан global ландшафт шароитида тижорат банкларининг барқарорлиги ва рақобатбардошлигини оширишда самарадорлигини ўрганиш учун кўшимча тадқиқотлар талаб этилади.

Тадқиқот методологияси

Ушбу тадқиқотда банклар томонидан кўрсатиладиган молиявий хизматларнинг аҳамияти ва уларнинг иқтисодий фаолиятга таъсири ўрганилади. Тадқиқотда қуйидаги методологик ёндошувлардан фойдаланилади:

1. Теориявий таҳлил:

Тадқиқотнинг биринчи босқичида банклардаги молиявий хизматлар соҳасига доир мавжуд адабиётлар ва илмий манбалар таҳлил қилинади. Бу метод фуқаролар ва корхоналар учун банкларнинг таклиф этган хизматларининг принципиал ўрни ва ролига тўхталиб, мавжуд тизимни аниқлашга ёрдам беради.

2. Кўпсатилган маълумотларни таҳлил қилиш:

Тадқиқот учун статистик маълумотлар, банклар ҳисоботлари ва молиявий хизматлардан фойдаланиш динамикаси йиғилади. Ушбу маълумотлар орқали банк хизматларининг ижобий ва салбий тафсилотлари ўрганилади. Яхши амалга оширилган статистик таҳлил, ушбу хизматларнинг самарадорлиги ва уларнинг аҳоли ва корхоналар учун имкониятларини аниқлашга имкон беради.



3. Қўлланма таҳлил (Кейс-стади):

Банклар билан боғлиқ ҳақиқий ишлаб чиқариш ва молиявий фаолиятга оид ҳолис ва мавжуд ҳолатлар (кейсли тадқиқотлар) тадқиқ этилади. Бу усул банка ва мижозлар ўртасидаги муносабатлар, хизматлардан фойдаланиш тартиби ва натижалари тўғрисидаги практик маълумотларни йиғишга ёрдам беради.

4. Сўровлар ва интервьюлар:

Банклар мижозлари ва банкирлар билан интервьюлар олиб бориш, уларнинг молиявий хизматларга бўлган муносабати, қизиқишлари ва эҳтиёжларини аниқлаш мақсадида сўровлар ташкил этилади. Бу метод мижозлар нуктаи назаридан банк хизматларининг ривожланишига ёрдам берадиган омилларни аниқлашга имкон беради.

5. Таҳлил ва натижалар:

Жамланган маълумотлар ва таҳлиллар асосида банклар томонидан кўрсатиладиган молиявий хизматларнинг иқтисодий аҳамияти ва уларнинг мижозлар ва корхоналарга тўғри келадиган фойдаси ёки камчиликлари батафсил кўриб чиқилади.

Ушбу тадқиқот методологияси банк хизматларининг тизимли таҳлилини ва амалий аҳамиятини аниқлашга қаратилган. Банклар ва молиявий хизматлар бозоридаги жараёнларни ва динамикани тушунишга ёрдам беради.

Таҳлил натижалари

Банклардаги молиявий хизматлар: Замонавий имкониятлар ва афзалликлар шундаки ҳозирги кунда банклар нафақат омонатларни сақлаш ёки пул ўтказиш учун жой, балки турли хил молиявий хизматларни тақдим этиш орқали фуқаролар ва корхоналарнинг иқтисодий фаолиятида муҳим роль ўйнайди. Банклар томонидан кўрсатиладиган молиявий хизматлар кенг соҳани қамраб олади ва улардан ҳар бир киши ёки ташкилот ўзининг эҳтиёжларига мувофиқ фойдаланиш мумкин. Ушбу мақолада банклардаги молиявий хизматларнинг асосий турлари ва уларнинг аҳамиятига тўхталиб ўтамиз.

1. Ҳисоб рақамлари ва жорий операциялар

Банклар фуқаролар ва юридик шахсларга турли хил ҳисоб рақамларини очиш ва улар орқали операциялар олиб бориш имкониятини яратишади. Жорий ҳисоблар, депозитлар ва омонатлар пулларни сақлаш ва кундалик молиявий операцияларни амалга ошириш учун хизмат қилади. Мижозлар бу ҳисоблар орқали ўзларининг маошларини олишлари, тўловлар қилишлари ва ўтказмаларни амалга оширишлари мумкин.

2. Кредитлар ва қарзлар

Банклар томонидан тақдим этиладиган кредитлар турли хил иқтисодий эҳтиёжларни қондиришга қаратилган. Ушбу хизматлар фуқароларга шахсий истакларига кўра, масалан, автомобил ёки уй харид қилиш учун, шунингдек, бизнеслар учун ишлаб чиқариш ва инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш учун зарур ҳисобланади. Ипотека, автокредитлар, потребительский кредитлар ва бизнес



кредитлари банклардан фойдаланиш учун кенг тарқалган имкониятлардан ҳисобланади.

3. Депозитлар: Фоиз олиш имконияти

Депозитлар банклар томонидан мижозларга ўз маблағларини вақтинча сақлаш ва ундан фоиз олиш имконини беради. Ҳар бир банк томонидан таклиф этиладиган депозитлар турлича бўлиб, фоиз ставкалари ҳам турли хил бўлиши мумкин. Муддатли депозитлар ёки шартли депозитлар кўпинча юқори фоиз билан келади ва уларнинг мавжудлиги мижозларга пулларини кам бўлса ҳам, бирор бир даромад олиш имконини яратишади.

4. Пул ўтказмалари ва пластик карталар

Дунё бўйлаб банклардан пул ўтказмалари амалга ошириш, савдо қилиш ва нақд пул олиш учун пластик карталардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Банклар дебет ва кредит карталарини чиқариш орқали мижозларга харажатларнинг ўзига хос усулларини тақдим этмоқда. Бундан ташқари, банклар пул ўтказмаларини жонли амалга оширишга ёрдам беради, бунинг орқали пуллар бир мамлакатдан бошқа мамлакатга ўтказилиши мумкин.

Хулоса:

1. Axborot manipulyatsiyasining kuchayishi Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali soxta axborotning tarqalishi aholi orasida noto'g'ri qarashlar shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni buzish, milliy birlikka putur yetkazish va aholi o'rtasida xavotir kayfiyatini oshirishga olib keladi. Neyropsixologik mexanizmlar asosida yaratilgan manipulyatsiya vositalari odamlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir o'tkazishi ilmiy asoslangan haqiqatdir.

2. Madaniy assimilyatsiya xavfi Axborot oqimining biryoqlamaligi natijasida milliy va mahalliy madaniyatlarning global madaniyat fonida yo'qolib borishi xavfi kuzatilmoqda. Madaniy xilma-xillikni saqlab qolish masalasi xalqaro miqyosda dolzarb muammoga aylangan bo'lsa-da, ayrim rivojlangan davlatlar o'z axborot texnologiyalari orqali global madaniy ustuvorlikni targ'ib qilmoqda.

3. Axborot xavfsizligi infratuzilmasining zaifligi Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina mamlakatlarda kiberxavfsizlik tizimlari va axborot resurslarini himoyalash mexanizmlari hali yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa xorijiy ta'sirlarni kuchaytirib, davlatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga xavf tug'diradi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashni kompleks yondashuv talab qiladi, ya'ni axborot texnologiyalari, psixologiya, huquqshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarining integratsiyasini kuchaytirish zarur.

2. Aholi o'rtasida axborot savodxonligini oshirish zarur, chunki tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish soxta ma'lumotlarga nisbatan immunitetni shakllantiradi.

3. Milliy axborot platformalarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish davlatlarning axborot mustaqilligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.

4. Texnologik asimmetriyani kamaytirish uchun milliy va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim. Ayniqsa, kibertahdidlarga qarshi kurashda birgalikdagi harakatlar samarali natijalar beradi.

Shunday qilib, axborot-psixologik xavfsizlik nafaqat ilmiy nazariy masala, balki ijtimoiy barqarorlik va milliy suverenitetni ta'minlashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida

qaralishi lozim. Bu borada har bir davlat va jamiyatning o'zaro integratsiyalashgan hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqishi zamon talabidir.

Tarixdan ma'lumki, axborotning maxfiylik darajasi juda muhim hisoblanadi va axborot uchun kata e'tibor va ahamiyat qaratib kelinadi. Shu sababli ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at - sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixona rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi.

Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'iraydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi. Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi. Tarixdan ma'lumki, ilgari xavf faqatgina maxfiy xabarlar va xujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. "Bulardan tashqari, bu xarakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi". Bunday jarayonlarda albatta axborot muhofazaasi tashkil etilishi kerak bo'ladi. "Axborotning himoyasi" deb boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi". Axborotning egasiga, foydalanuvchisiga va boshqa shaxsga Zarar yetkazmoqchi bo'lgan nohuquqiy muomaladan xar qanday xujjatlashtirilgan, ya'ni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan xolda moddiy jismda qayd etilgan axborot himoyalaniishi kerak. Axborotni himoyalashning maqsadlariquyidagilardan iborat hisoblanadi: Axborot xavfsizligini ta'minlash - bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga qo'yilgan me'yor va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir. Login tushunchasi. Login - shaxsning, o'zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo'lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lish uchun foydalaniluvchining maxfiy bo'lmagan qayd yozuvi hisoblanadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash muntazam va kompleks xarakterga ega ko'p qirrali faoliyatni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Uni amalga oshirishda axborot xavfsizligidan manfaatdor taraflar oldida qo'yiladigan vazifalarga alohida e'tibor berish zarur. Ushbu turli-tuman vazifalarni bir necha quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:



1. Axborotdan foydalanishni ta'minlash, ya'ni maqbul vaqt mobaynida axborot xizmatini olish hamda axborotni olishda ruhsatsiz taqiqlanishni bartaraf etish;
2. Axborot yaxlitligini ta'minlash, ya'ni axborotning ruhsatsiz modifikatsiyalanishini yoki buzilishini bartaraf etish;
3. Axborot konfidensialligini ta'minlash, ya'ni axborotdan ruhsatsiz tanishishni bartaraf etish.

Axborot xavfsizligi - mamlakat madaniy mulkining, xo'jalik sub'ektlari va fuqorolar intellektual mulkining, davlat va kasbiy sirga maxsus ma'lumotlarning ishonchli himoyalanganligi holati.

Odatda, bir-biridan axborot xavfsizligining huquqiy, texnik, moliyaviy, tashkiliy va boshqa resursli ta'minot bilan farqlanuvchi axborot xavfsizligi sub'ektlarining quyidagi to'rtta kategoriyasi ajratiladi:

- butun bir davlat;
- davlat tashkilotlari;
- tijorat tuzilmalari;
- alohida fuqoralar.

Yuqorida keltirilgan axborot xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy vazifalar qamrab olgan quyidagi keng spektrli masalalarni ko'rib chiqish joiz hisoblanadi:

- konfidensiallik;
- yaxlitlik;
- indentifikatsiya;
- autentifikatsiya;
- vakolat berish;
- foydalanishni nozoratlash;
- mulklik huquqi;
- sertifikatsiya;
- imzo;
- voz kechmaslik;
- sanasini yozish;
- olganligiga tilxat berish;
- bekor qilish;
- anonimlik.

Yuqorida keltirilgan vazifalar mavjud axborot dunyosi ehtiyojiga asosan tavsiflangan. Vaqt o'tishi bilan ba'zi vazifalar o'z dolzarbligini yo'qotishi va aksincha, yechimini kutuvchi yangi vazifalar paydo bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Bundan buyon har bir davlat organi kundalik faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarurligini yanada teranrok, anglab olishi shart"². Ommaviy axborot vositalarini jamiyatimizdagi o'rnini huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar"³



deb belgilangan. Mamlakatda OAVlarning doimiy faoliyati 2007-yil 16-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"⁴, 1997-yil 26-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"⁵ gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁶gi, qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabr "Ommaviy axborot va kommunikatsiyalar sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"⁷gi 1017-son qarorlari va boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinib boriladi.

Ommaviy axborot sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar, ularning sifati, mehnat faoliyatining samaradorligi ham bu sohani rivojlanishiga xizmat qildi. Ommaviy axborot vositalari doirasida faoliyat yuritadigan jurnalist turli xil manbalardan ma'lumot olishi va insonlarni ongiga foydali, dolzarb, ishonchli ma'lumotlarni yetkazib berishi mumkin. Shuningdek, ular ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligini bilishi kerak, agar ma'lumot qonunga xilof bo'lsa, uni rad etishi, fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilishi kerak. U yoki bu qonunbuzarlik uchun jurnalist jinoiy va boshqa jazolarga tortiladi

XULOSA

Ushbu maqola globalizatsiya jarayonida axborot xavfsizligining dolzarb muammo sifatida o'rganilishini tahlil qildi. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va internetning keng tarqalishi bilan birga, axborot xavfsizligi sohasida yuzaga kelayotgan yangi tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rish zarurati oshdi. Kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni o'g'irlash, kiberhujumlar va dezinformatsiya kabi xavf-xatarlar jahon miqyosida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Maqola global axborot xavfsizligini ta'minlash uchun nafaqat milliy, balki xalqaro darajadagi hamkorlikni va samarali huquqiy bazani yaratishni talab qiladi. Bu borada ilg'or texnologiyalarni qo'llash, global miqyosda axborot xavfsizligi sohasidagi normativ huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va mamlakatlar o'rtasidagi axborot almashishni xavfsiz tarzda tashkil etish muhimdir. Xususan, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, global axborot muhitining barqarorligini ta'minlash uchun zarurdir.

Shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat texnologik yondashuvlarni talab qiladi, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qiladi. Globalizatsiya jarayonida axborot xavfsizligi bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar va qonunlar barcha davlatlar manfaatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, axborot xavfsizligi global miqyosda yuzaga kelgan yangi tahdidlarga qarshi kurashish uchun ta'minlanishi zarur bo'lgan eng muhim omillardan biridir. Bu borada davlatlar, xalqaro tashkilotlar va barcha manfaatdor tomonlar o'rtasidagi

hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or xavfsizlik chora-tadbirlarini qo'llash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. K. Ganiyev, M. M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi. T. , 2017 yil.
2. S. S. Qosimov. Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qollanilishi.
3. M. Aripov, B. Begalov, U. Begimqulov, M. Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. T. 2009 yil.
4. Алтухов, В. Н. Информационная безопасность: теория и практика. Москва: Юрайт, 2019.
5. Баев, О. И. Психологические аспекты информационной безопасности. Москва: Наука, 2020
6. Castells, M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
7. Егоров, А. В. Манипуляции массовым сознанием в условиях глобализации. Санкт-Петербург: Питер, 2021.
8. Жумаев, Ш. Р. Ахборот хавфсизлигининг ҳуқуқий асослари ва миллий истиқболлари. Тошкент: Адолат, 2022.
9. Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. New York: PublicAffairs, 2019.



РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ АРГУМЕНТАЦИИ И ДИСКУССИИ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Каюмов Шохаббос

Студент 4 курса факультета русского языка и литературы ДжГПУ,

Очилдиева Дилфуза Шодиевна

Научный руководитель: преподаватель кафедры русского языка и методики его преподавания ДжГПУ, .

Аннотация: *Актуальной задачей современного высшего образования являются раскрытие способностей каждого учащегося, формирование и воспитание личности, готовой к жизни в высокотехнологичном, конкурентном мире. Современному обществу и государству необходима свободная, творческая личность, обладающая критическим мышлением.*

Ключевые слова: *Концепция преподавания, критическое мышление, учебный процесс, дискуссия, речевая культура.*

Annotation: *The current task of modern higher education is to reveal the abilities of each student, to form and educate a personality ready for life in a high-tech, competitive world. Modern society and the state need a free, creative personality with critical thinking.*

Key words: *Teaching concept, critical thinking, educational process, discussion, speech culture.*

Критическая направленность мышления ориентирована на творческую и конструктивную деятельность, поэтому критическое мышление является характеристикой мышления свободной личности.

Согласно концепции преподавания предметной области "Русский язык как иностранный язык", учебным планам и программам можно выявить растущую значимость развития критического мышления учащихся в период обучения. Формирование критического мышления учащихся позволяет в будущем гибко адаптироваться в современном информационном пространстве. Изучение русского языка, умение понимать и анализировать информацию на русском языке, способствует формированию критического мышления[1].

Процесс обучения русскому языку становится эффективнее при использовании, так называемых проблемных ситуаций. Проблемное обучение является относительно новой тенденцией учебного процесса. Под проблемным обучением обычно понимается такая организация учебных занятий, которая предполагает создание под руководством учителя проблемных ситуаций и активную самостоятельную деятельность учащихся по их разрешению. Проблемный подход в обучении должен стать приоритетным направлением личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку и должен реализовываться на всех уровнях организации учебного материала. Проблемные ситуации повышают эффективность процесса обучения, стимулируют мыслительную деятельность, самостоятельный поиск информации,



заставляют учащихся анализировать и обобщать. Одним из проблемных методов является дискуссия[2], [3].

Путем создания проблемных ситуаций во время дискуссии активизируется мышление, формируется познавательный интерес, вырабатываются навыки поискового, исследовательского подхода к решению теоретических или практических проблем[4]. Метод дискуссий является основным на занятиях по иностранному языку в школе, так как он позволяет органично интегрировать знания учащихся из разных областей при решении какой-то проблемы.

Дискуссия подразумевает применение языковых знаний и навыков на практике. Дискуссия в целом, включает в себя различные виды речевой и мыслительной деятельности, способствует формированию способности критически воспринимать информацию, выделять в ней главную мысль и находить средства и аргументы для ее подтверждения и обоснования, а, следовательно, облегчает понимание любого теоретического материала. Во время дискуссии учащиеся осваивают нормы рационального речевого общения, формируется ответственное отношение к речи.

Дискуссия обычно понимается как обсуждение спорного вопроса, основанное на искусстве рассуждать и излагать свои мысли соответственно законам разума, а также форма научного общения и получения нового знания[5]. Дискуссия является формой совместной деятельности и направлена на принятия решений в группе посредством обсуждения какого-либо вопроса или проблемы. Существуют разные формы дискуссий: диспут, дебаты, полемика, спор. В дискуссии всегда присутствует противопоставление мнений, однако в отличие от спора, она характеризуется своей целенаправленностью и стремлением к компромиссу. Она рассматривается, как созидательная деятельность и направлена на выявление истины и положительный результат.

С помощью дискуссии, учащиеся включаются в разнообразные жизненные ситуации, возникает естественное желание говорить и общаться, высказать свою точку зрения, свое понимание обсуждаемой проблемы.

Формированию коммуникативной и социокультурной компетенций способствует умение вести дискуссию, отстаивать свою точку зрения, подкрепленную аргументами, лаконично излагать свою мысль, умение слушать и слышать оппонента. Дискуссия имеет и воспитательную сторону, она предполагает, прежде всего, хорошую нравственную атмосферу понимания, умение с уважением относиться к чужому мнению, подвергать идеи конструктивной критике, объединять и видоизменять другие идеи[6].

Для того чтобы вызвать у учащихся желание говорить необходимо тщательно выбирать темы наиболее интересные учащимся, которые будут вызывать желание общаться, ситуации близкие современным школьникам. Такую быденную тему как «Школа» можно разнообразить обсуждением проблем, связанные не только с учебой и предметами, но и взаимоотношения с учителями, сверстниками, родителями, вопросы, связанные с уверенностью в себе и своих силах, и другие проблемы, с которыми



сталкиваются учащиеся на протяжении всего своего обучения в школе. Необходимо создать определенную дружелюбную, доверительную атмосферу, для того чтобы учащиеся смогли раскрыть свои проблемы, переживания, выразить все это на иностранном языке. Такие дискуссии способны не только формировать критическое мышление учащихся, но и сближать ребят, помогают раскрыться, может быть, найти поддержку. Русский язык в данных ситуациях является средством общения, которым учащиеся активно пользуются для выражения своих мыслей и чувств. Следовательно, и мотивация к изучению иностранного языка тоже повышается.

Особенно успешно проходят дискуссии на темы, выбранные учителем совместно с учащимися. Особый интерес у учащихся вызывают следующие темы: «Интернет - это зло», «Шестой школьный день должен быть отменен». Для успешной дискуссии необходимо научить учащихся умению вести беседу, выбирать убедительные аргументы. На предварительном этапе используется метод «мозгового штурма», при котором все идеи по данной проблеме выписываются на доску, а затем обсуждаются всей группой. Если аргументация кажется достаточно убедительной, то аргумент принимается для дальнейшего обсуждения, если нет - то вычеркивается. Ключевым моментом любой дискуссии является подведение итогов. Итоги подводят сами учащиеся, анализируя все сказанное, делая выводы по поводу того, чьи аргументы были более весомыми[7].

Подводя итоги, следует заключить, что дискуссия на уроках русского языка подчинена главной цели - формированию критического мышления учащихся, достижению их всестороннего развития. В целом дискуссия направлена на развитие личности учащихся. Она дает большие перспективы для самореализации и раскрытия творческого потенциала учащихся посредством русского языка. В отличие от общения на родном языке, когда мы говорим относительно свободно, многословно и, поддаваясь эмоциям, можем отвлечься от темы, то общение на иностранном языке, в рамках учебного процесса, предполагает самоконтроль, необходимость строить фразы в соответствии с четкими правилами. Метод дискуссий не только позволяет воспитывать речевую культуру, но и побуждает учащихся искать самостоятельные решения обсуждаемых проблем, что, в свою очередь, является стимулом, движущей силой познавательной деятельности[8]. Использование данного метода при обучении русскому языку развивает у учащихся культуру критического мышления, создает условия для использования личного жизненного опыта и полученных ранее знаний для усвоения новых, вырабатывается умение работать в группах, уважительное отношение к собеседникам, интерес к другим точкам зрения, уважение мнения других, что способствует формированию коллектива.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Биболетова М.З. Концепция предметной области «Иностранные языки» как стратегия развития иноязычного образования в школе - 2017 г.



2. Андреасян И.М. Инновационные технологии овладения иноязычным общением - 2006. - №2. - С. 18-22.
3. Андреасян, И.М. Учение в сотрудничестве как приоритетная технология обучения школьников английскому языку - 2008. - №3. - С. 23-29.
4. Бабинская П.К. Коммуникативно-ориентированное обучение иностранному языку - Минск, 2010. - №4. - С. 3-7.
5. Баклашкина М.В. Обучение иноязычному межличностному общению на занятиях по иностранному языку в школе и вузе. - 2009. - №1. - С.8; №3. - С. 9-17.
6. Мильруд Р.П. Современные концептуальные принципы коммуникативного обучения иностранным языкам. - 2000. - №4. - С. 9-15; №5. - С. 17-22.
7. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения: опыт теорет. и экспер. псих.исслед; АПН СССР. - М.: Педагогика, 1986. - 239 с.
8. Загвязинский В.И. Развитие творческих способностей учащихся на основе самостоятельного проблемного анализа учебного материала. - М., 1984. - С.129-134.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHDA ART-TERAPIYANING TA'SIRI

Xo'jamberdiyeva Moxira Irkinovna

Surxandaryo viloyati Termiz tumani 4-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Art-terapiyada ekspressiv art-terapiya badiiy ijod va ifoda orqali bir nechta san'at turlarining uyg'unligiga urg'u beradi.

Kalit so'z: Art terapiya, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, san'at, yaratish, salomatlik, zamonaviy, imkoniyat, psixologik diagnostika.

Абстрактный: В арт-терапии экспрессивная арт-терапия подчеркивает интеграцию нескольких форм искусства посредством художественного творчества и выражения.

Ключевое слово: Арт-терапия, дошкольное образование, творчество, искусство, созидание, здоровье, современность, возможности, психологическая диагностика.

Abstract: In art therapy, expressive art therapy emphasizes the integration of several art forms through artistic creation and expression.

Key word: Art therapy, preschool education, creativity, art, creation, health, modern, opportunity, psychological diagnostics.

Darhaqiqat, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'ladi. Shu sababli hozirda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini ekanligi 1992-yilda Yunesko tomonidan tan olindi.

Art-terapiya nima ekanligini bilmagan odamlar ko'p bo'lishi mumkinmi? Art-terapiya, ya'ni badiiy psixoterapiya deb ham ataladi, psixoterapiya usullaridan biri. Keng ma'noda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Uning shakllariga quyidagilar kiradi: raqs, musiqa, haykaltaroshlik, kulolchilik. Psixologik diagnostika va davolash tugallangan. stikerlar, she'riyat, rasm, tasviriy san'at va drama kabi ommaviy axborot vositalari orqali. Tor ma'noda rassomlik san'ati asosan vizual shaklga asoslanadi va terapiyada vosita bo'lib xizmat qiladi. Art-terapiya san'at ijodining boshidanoq bemorlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. San'at yaratish jarayoni va mijozning yaratilgan san'at asariga munosabati shaxsiy rivojlanish, qobiliyatlar, shaxsiyat, qiziqishlar, ichki tashvishlar va ziddiyatlarni aks ettirishga imkon beruvchi xizmatlardir. Art-terapiyada ekspressiv art-terapiya badiiy ijod va ifoda orqali bir nechta san'at turlarining uyg'unligiga urg'u beradi. Chiziqli rasm, rangli rasm, haykaltaroshlik kabi tasviriy san'at turlari terapevtik ta'sirga ega bo'lib, bemorlarga qulay muhitda bo'lish va o'zini o'zgartirish imkonini beradi. Har bir bola bebaho

marvariddir va biz bolalarga tananing yashirin imkoniyatlarini bo'shatishga va ularning har birining mukammalligi va o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam bera olamizmi, bu biz tarbiyachi pedagoglarga bog'liq. Har bir insonning o'ziga xosligi shubhasizdir, lekin bolalarda o'ziga xosligini taqdim etish qobiliyati hali rivojlanmagan va ko'pincha uyatchanlik, aloqa yetishmasligi, bolalikdagi tajovuzkorlik, nizolar va tashvishlar bolaning ochilishiga to'sqinlik qiladi. Bu holat bolaning ichki tajribalaridan kelib chiqadi. Xalqaro salomatlik assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, salomatlik - bu to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati. O'ylaymanki, salomatlikning asosiy mezonlari insonning o'zi va atrof-muhit bilan uyg'unligi, shuningdek, nafaqat boshqa odamlarning, balki o'zinikini ham tushunish qobiliyatidir, degan bayonotga hech kim qarshi chiqmaydi. Agar zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qiladigan bo'lsak, aql va ilmiy bilimlarning ijtimoiy nufuzi keskin oshganini ko'ramiz. Bu bilan bog'liq bo'lgan ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari ota-onalarning buyurtmalarini bajarish, bolalarga ko'proq bilim berish, ularni o'qish, yozish va hisoblashni o'rgatish istagi hamisha ishning ustivor qismi bo'lib kelmoqda. Ammo intellektual rivojlanishga haddan tashqari qiziqish bolaga katta yuk bo'lishi bilan bog'liq va bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi yomonlashishining sabablaridan biridir. Bundan tashqari, ko'pincha tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik e'tibor bolaning hissiy, ma'naviy va axloqiy mohiyatini ikkinchi darajali qadriyatga aylantiradi. Natijada, zamonaviy bolalar 10-15 yil oldingi tengdoshlariga qaraganda ancha ko'p narsani bilishadi, lekin hayratlanish va hamdardlik zaif va kasallarga yordam berishga intilish ehtimoli kamroq. Art-terapiya va tengdoshlar bilan munosabatlarni yaxshilash Art terapiya - san'at faoliyati orqali psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan odamlarning psixologiyasini tashxislash va davolash uchun san'atdan vosita sifatida foydalanadigan psixoterapiya sohasi. Art-terapiyaning kichik sohasi bo'lgan guruh art-terapiyasi guruhlarining o'zaro munosabatlarining roli asosida ishonchli va qabul qiluvchi muhitda individual munosabatlar va xatti-harakatlar, individual o'sish va rivojlanish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatlaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Art-terapiya usullari dinamik guruh maslahatining xususiyatlariga kiritildi. Hamdardlik va muloqot uchun tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshi o'zaro ta'sirga erishish uchun o'zaro ta'sirning turli texnik jihatlari talab qilinadi va odamlar boshqalar bilan munosabatlarni qanday shakllantirishi va boshqalarning turli ehtiyojlariga qanday javob berishni o'rganish hamma narsadan muhimroqdir. Guruh terapiyasida chizmalar insonning ichki dunyosidagi his-tuyg'ularini erkin ochib beradi va ayni paytda til orqali duch keladigan hissiy inqirozlarga qarshi bufer bo'lib xizmat qiladi. Aksariyat maktabgacha yoshdagi bolalar tengdoshlari va kattalar bilan qanday muloqot qilishni bilishmaydi. Amaliyotda ushbu muammoga duch kelganda, biz tarbiyachilar sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradigan yangi samarali usullar va usullarni izlash bilan bolaning hissiy sohasini rivojlantirish bilan bog'lab borishimiz lozim. Sharq donoligiga ko'ra, «minglab so'z bilan ifoda eta olmaydigan narsani rasm ifodalaydi». V.S. Muxina va boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalar uchun rasm chizish - bu san'at emas, balki nutq. Har bir chiziq va har bir rangning o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos kayfiyati bor, ularning yordami bilan bola ichidagi hamma narsani



yetkazadi. Bularning barchasi art-terapiya bolaning hissiy sohasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqligini va uni takomillashtirish turlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Chizish orqali Bola o'zini quvonch, o'zaro tushunish va muvaffaqiyatga to'la ertakda topadi, ushbu masalani o'rganish jarayonida biz art-terapiya usullaridan foydalanish bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilish imkonini berishini payqaymiz: 1.Emosional sohani barqarorlashtirish orqali bolaning ruhiy salomatligini mustahkamlash. 2.Irodani, his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish. 3.Bolaning ichki salohiyati va ijodiy faoliyatini rivojlantirish. Biz uzoq muddatli rejani ishlab chiqdim, uning mashg'ulotlarini badiiy terapevtik elementlar, ya'ni mashqlar, o'yinlar, ertaklar bilan to'ldiramiz, bu bizga psixologik qulaylik muhitini va hissiy-sensual munosabatni yaratishga imkon beradi. bola atrofidagi dunyoni yadachiroyliroq tasavvur qila boshlaydi bu esa art terapevtik metodning samara bera boshlaganligining yaqqol misoli bo'la oladi. Ushbu usul tasviriy san'an va chizishning o'z-o'zidan paydo bo'lishini ta'minlaydi va bolalarga badiiy material va texnikani tanlash erkinligini his qilish imkonini beradi. Biz bolalarni g'ayrioddiy rasm chizish va applikatsiya usullariga qiziqtirishga harakat qilamiz bu ijodkorlikning namoyon bo'lishini rag'batlantiradi, o'ziga ishonchni his qilish va muvaffaqiyatga erishish uchun vaziyatni yaratish imkonini beradi. Biz bolalar bilan olib boradigan har bir mashg'ulotda badiiy terapevtik mashqlar, vazifalari va texnikalari mavjud. Masalan, ranglar bilan o'yinlar: biz bolaga yoqadigan ranglar bilan chizamiz; Biz yoqtirmaydigan ranglar bilan bo'yashamiz. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan narsalarni, bu rangda nimani ko'rishlarini chizishadi.

Chiziqlar bilan o'yinlar, shuningdek, bolaning ichki holatini ifodalash va kayfiyatini ko'rsatishga yordam beradi, o'z qarashlari va sodir bo'layotgan narsalarga munosabatini tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy faoliyat uchun belgilar yoki ob'ektlarning kesilgan shakllaridan foydalangan holda, bolalarga ularni «jonlantirish» uchun to'liq erkinlik beriladi. Bundan tashqari, art-terapiya munosabatlarni o'rnatish usulidir. San'at vositalari orqali inson nafaqat o'zini namoyon qilishi, balki o'zi va boshqa odamlar haqida ham ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Ijodkorlikda inson hayotda qo'llashi mumkin bo'lgan yangi tajribaga ega bo'lib, uning boshqa odamlar bilan muloqotini osonlashtiradi. Mashg'ulotlardan tashqari, art-terapiya elementlari boshqa mashg'ulotlarda ham qo'llaniladi va har bir bola atrofdagi dunyoning rang-barangligi va voqealarini qanday zavq bilan va qanchalik boshqacha qabul qiladi.

Bolaning ruhiyatida o'zgarishlar kuzatiladi qanday g'ayrioddiy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Bu sehrli o'lka art-terapiya deb ataladi. U yerda bola o'zi bo'lishni o'rganadi, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishni boshlaydi va hissiyotlarni aloqa vositasi sifatida ishlatadi.

Ertaklarda yashovchi yaxshilik va yomonlikka adolatli munosabat, musiqaning jozibali va hayratlanarli ohanglari, shuningdek, buyuk rassomlar va bolalarning o'z asarlarining boy tasvirlari va ranglari qiyinchiliklarni yengishimizga yordam beradi. Har bir bolaning qalbiga maxsus kalitlarni topish muhim.

Bolaning ichki dunyosini yorqin taassurotlar bilan to'ldirish, unga turli texnika va chizish usullarini o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. Barcha bolalar chizishni yaxshi

ko'radilar, o'zlarining kichik asarlarida ular atrofdagi dunyoga bo'lgan munosabatini bildiradilar va o'zlarining «men» ni ifodalash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М.В. Киселева (2006) Арт-терапия в работе с детьми: руководство для детских психологов, педагогов, врачей и специалистов, работающих с детьми. СанктПетербург.
2. Art terapiya - yangi ufqlar / Ed. A.I. Kopitin. - M.: Kogito-Markaz, 2009. - 336 b. 3. Art terapiya // Psixoterapevtik entsiklopediya / Ed. B.D. Karvasarskiy. - SanktPeterburg: Pyotr, 2012. - S.52 - 58.
4. Aytbaeva A.B., Qasen G.A. Art-metodi v obrazovanii. - Almaty: Qazaq universiteti, 2016 - 100 s.
5. Lebedeva L.D. «Praktika art – terapii: podходы, diagnostika, sistema zanyatii», SPb – 2007.
6. Psixolog v detskom doskolnom uchrejdении: Metodicheskie rekomendatsii k prakticheskoy
7. deyatel'nosti/ pod red. T.V. Lavrentevoy.— M.: Novaya shkola, 1996g.— 144s.
8. Dyachenko O. M. «Razvitie voobrajeniya doskolnika», M. – 2008 9. To'raqulovich, Jumayev Umedjon, and Hakimova Nargiza Supxonovna. «Ways to shape a healthy lifestyle in the family of preschool children.» Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).



Abdullajonova Husnidabonu

University of business and science

Annotatsiya: Har bir xalqning o'ziga xos adabiyoti bo'lgani kabi Amerikaning ham takrorlanmas, o'zga xalqlar va mamlakatlar badiiy ijodi bilan solishtirib bo'lmaydigan so'z bo'stoni bor. Amerika adabiyoti, ob'ektiv sabablarga ko'ra, qorishiq madaniyatlarning mumtoz xazinasiga o'xshaydi.

Kalit so'zlar: Amerika adabiyoti, realism, sotsial tengsizlik, mumtoz adabiyoti, tanqidiy realism, mo'jizaviy realism, adabiyotshunoslik lug'ati.

Abstract: Just as every nation has its own literature, America has its unique vocabulary that cannot be compared with the artistic creations of other nations and countries. American literature, for objective reasons, looks like a classic treasure of mixed cultures.

Key words: American literature, realism, social inequality, classical literature, critical realism, miraculous realism, dictionary of literary studies.

Tarixan olib qaraganda, o'ziga xos shakllanish va rivojlanish tadrijiga ega bu mamlakat badiiy adabiyoti ham mahalliy aboriginlar, ispanlar va inglizlar, shuningdek, fransuz, rus, yapon va boshqa xalqlar madaniyati ta'sirida paydo bo'lgan va taraqqiy etgan.

Amerika adabiyoti, ob'ektiv sabablarga ko'ra, qorishiq madaniyatlarning mumtoz xazinasiga o'xshaydi. U sobiq sho'ro mafkurasi tazyiqi ostida shakllangan sovet adabiyoti yoki odamkushlik yoxud harbiy salohiyatni ko'z-ko'z etayotgan adabiyotdan insoniy tuyg'ular (mehr-oqibat, sevgi-muhabbat, shafqat)ni targ'ib qiluvchi yangi adabiyot sifatida paydo bo'ldi. Negaki, siyosiy buhronlar, ruhiy inqirozlardan zerikkan ommaga hayotsevarlik nashidasini singdiruvchi mafkuraviy taskin kerak edi.

Amerika adabiyoti rang-barangligi va ijtimoiy muammolarni yuzaga chiqarishga qaratilgani bilan ahamiyatli, – deydi amerika adabiyoti ixlosmandi, o'qituvchi Zarif Quvonov. – Unda hech bir adabiy asar yo'qki, o'z-o'zidan mashhur bo'lib ketmaydi va keng ommaga tarqalmaydi. Bunga asosiy sabab, asarda ko'tarilgan milliy ruh, xalq dardi va ijtimoiy adolatsizlikka qaratilgan g'oyadir. Ta'sir kuchi esa so'z qudratining o'quvchi ongi va shuuriga kirib kelish bilan o'lchanadi. Asar ta'sirida butun xalq va jamiyat uyg'onadi. Biz ko'p eshitganmiz, qaysidir kitob irqchilikka qarshi kurashgani uchun eng yaxshi asar sifatida qaralib, Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Badiiy adabiyotda faqat haqiqatlar yashiringan bo'lishi kerak. U shunday kuchki, hatto hukumatga ham hisob bermaydi. Shuning uchun ayrim amerikalik adiblarni dastlab o'z yurti tan olmaydi. Biroq badiiy saviya yuqoriligi va dunyo e'tirof etgani bois o'zlari ham tan olgan. Amerika adabiyoti shu kabilardan xulosa chiqarib, badiiy so'z va adabiy qarashlarga yuqori nazar bilan boqadi. Shuning uchun ham amerikalik mualliflar adabiyot ixlosmandlari uchun sevimli ijodkorlar bo'lib qoladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQShda yirik monopoliyalar paydo bo'ldi. Bu davrda adabiyotdagi realistlar ijodida sosial tengsizlik, zulm va haqsizlikni fosh etish bosh

maqsad qilib qo'yilgan. Qashshoqlik va ochlik uchun kurashishda adabiyot birinchi o'ringa ko'tariladi.

Asarlarida o'z "men"i emas, xalq dardini ilgari surgan va haqiqiy adabiyot kuchini ko'rsata olgan ijodkor sifatida uchta zabardast ijodkorlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bular Jek London, Teodor Drayzer va Ernest Xemingueydir. Xalqni asarlari ortidan ergashtirgan, huquq va erkinliklarini talab qilishni o'rgatgan demokratik adabiyotning yirik namoyandasi Jek London hisoblanadi. 1876-1916 yillarda yashab o'tgan yozuvchi realistlik ruhdagi asarlari bilan mashhur bo'lgan. O'zi ham kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelgan. Shuning uchun xalq dardini his qilish va qalamga olishga qiynalmagan.

Qisqa umri davomida u bir-biridan o'tkir asarlar yozib qoldirdi. "Yo'ldagilar sharafiga uchun", "Oq sukunat", "Qirq mil narida", "Bo'rivachcha" hikoyalari shimol hayoti tasvirlanadi. "Otalar xudosi", "Sovuq bolalar" hikoyalari unga juda katta shuhrat keltiradi. Uning deyarli barcha asarlari uzoq Shimoldagi insonlarning mashaqqatli turmush tarziga bag'ishlanadi. Ayniqsa, matonatli, jasoratli va latofatli negr ayoli haqidagi "Ayol jasorati" hikoyasi orqali adibning irqchilikka norozilik kayfiyati yaqqol seziladi. "Temir tovon" asarida oddiy ishchi oilasidan kelib chiqqan inqilobchi haqida so'z yuritilgan, "Martin Iden" romanida xalq ichidan chiqqan yozuvchining burjua jamiyatidagi og'ir ahvoli va fojiasini yorqin aks ettiradi. Mazkur asar dunyo adabiyotida hozir ham eng ko'p o'qiladigan kitoblardan.

Teodor Drayzer 1871-1945 yillarda yashab o'tgan. U amerika adabiyotida tanqidiy realizmning yuqori pog'onaga ko'tarilishida o'z hissasini qo'shgan. Bunga asosiy sabab o'zi ham ezilgan xalq orasidan chiqqan ijodkor edi. U "Baxtiqaro Kerri", "Jenni Gerxardt", "Moliyachi", "Titan", "Daho" romanlari orqali xalq dardini aks ettirdi. Ezilgan xalqni himoya qilib, korxonalarda og'ir yumushlarni bajarayotgan ayollar mehnatini qoralaydi, boy va manfur kimsalarni qattiq tanqid ostiga oladi. Tanqidiy realistlik adabiyotning mashhur asari hisoblangan "Amerika fojiasi" romani bilan yozuvchi sifatida dunyoga taniladi. Ikki tomlik bu roman birinchi jahon urushidan so'ng yozilgan. Asarning bosh qahramoni burjua oilasidan chiqqan Klayd Grifits ismli yigit bo'lib, u xudbinligi, sevgidan boylikni ustun qo'yishi tufayli fojiali o'lim topadi. Bor aybi oshkor bo'ladi. Birgina manfur kishining qismati tufayli asar "Amerika fojiasi" deb nomlanadi.

Aslida roman voqeaga chuqur tanqidiy yondashilgani, badiiy mahorat yuksakligi tufayli yaxshi asarlar qatoridan joy oldi. Asarning qudrati yana shundaki, qariyb yuz yildan buyon sevib o'qilmoqda.

Amerikaning yana bir buyuk yozuvchisi Ernest Xeminguey 1899-1961 yillarda yashab o'tgan. Hayoti bevosita urush yillariga to'g'ri kelgani uchun asarlarida ham aynan ana shu jarayonlar tasvirlanadi. O'z personajlari orqali dahshatli va sovuq urushga qarshiligi, adolatsizlik va qonli to'qnashuvlarga nafratini bayon etadi. "Bizning zamondoshlar" kitobidagi hikoyalarda bular og'ir-vazminlik bilan oshkor qilingan bo'lsa, "Alvido, qurol" romanida urush jarayonlari ifoda etiladi. Asarda Avstriya-Italiya frontida ro'y bergan voqealar yoritiladi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida deyarli barcha sohada birinchilikni qo'ldan boy bermay kelayotgan AQSh badiiy adabiyoti bilan ham ibrat olarli qiyofaga ega. Avvalo, mamlakatda ijodkorlarning qadri balandligi, so'z san'ati namunalari yuqori darajada

ehtiom ko'rsatilishi bu soha taraqqiyotini ta'minladi. Eng yuksak insoniy qadriyatlarni ulug'lagan ushbu mamlakat adabiyoti ko'p jihatlari bilan dunyo badiiy adabiyoti kelajagini belgilamoqda.

Jahon adabiyotida mo'jizaviy realizm an'analari bugungi kunda keng yoyilib borayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mo'jizaviy realizm asosan Lotin Amerika adabiyotiga xos an'ana bo'lib, mazkur xalqning urf-odatlar, qadriyatlari va marosimlarida o'z aksini topadi. Bunday an'analari amerika yozuvchilari ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi va adiblar ijodida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Mo'jizaviy realizm atamasining kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak so'z tuzilishiga World Literature (2024) 78 ko'ra oksymoron hisoblangan "mo'jizaviy realizm" atamasi bir biriga qarama qarshi ma'no ifodalagan "realizm" (lotincha realis – moddiy, haqiqiy) - adabiyot va san'atda voqelikni, hayotni ifoda vositalari orqali, badiiy obrazlarda butun to'laligi bilan o'ziga o'xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish usulini anglatadi, mo'jiza – karomat, hayratga soladigan narsa; ajoyibot yoki har qanday, odatdan tashqari, kishini hayron qoldiruvchi hodisa, ish yoki narsa ma'nolarini ifodalaydi. Adabiyotshunoslik lug'atida keltirilgan ta'rifga ko'ra esa "realizm" (lot. realis – mavjud, haqiqiy) – adabiyotshunoslikda tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda realizm terminining ma'nosi badiiy asar bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi. Ya'ni bu holda realizm umumestetik tushuncha bo'lib, hayotni haqiqatga muvofiq tasvirlashni, hayot haqiqatini bildiradi. Tor ma'noda esa, realizm hayotni haqiqatda mavjud faktlarini tipiklashtirish asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga asoslanuvchi ijodiy metod va ongli ravishda shu metodga tayangan adabiy yo'nalishni bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chanady A. Magical Realism and the Fantastic: Resolved Versus Unresolved Antinomy. New York: Garland, 1985.
2. Geraldine Heng, Empire of Magic: Medieval Romance and the Politics of Cultural Fantasy, New York: Columbia UP, 2003, pp. 2–3.
3. Magical Realism, Theory, History Community, eds. Lois Parkinson, Zamora and Wendy B. Faris,, Durham & London: Duke University Press, 1995. p.138
4. Mariano Siskind, 'The Genres of World Literature: The Case of Magical Realism', in Theo D'haen, David Damrosch and Djelal Kadir (eds.), The Routledge Companion to World Literature (London and New York: Routledge, 2012), pp. 345–55.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tahriri ostida. (2006-2008 y). 365 b, 670 b.
6. Prosser J. Updike, Race, and the Postcolonial Project / J. Prosser // Cambridge Companion to John Updike. - Cambridge: Cambridge University Press, 2006. - 214 p.



TRADITION AS A RESOURCE OF SOCIO-CULTURAL IDENTITY OF AN
INDIVIDUAL IN MODERN SOCIETY

Sanam Ostonova Nematovna

Teacher (PhD) of English linguistics department of Bukhara state university

Ismatova Dilshoda Shavkat qizi

A student of the faculty of foreign languages, philology, language teaching, English.

Annotation: *This research highlights the role of traditions as a pivotal resource for shaping the socio-cultural identity of individuals in modern society. It delves into the ways traditions provide continuity, foster belonging, and enable adaptation in a rapidly changing world. Examples from Uzbek culture, such as Navro'z, oshi nahor, and milliy kiyimlar, are explored to illustrate the resilience and adaptability of traditions in maintaining cultural heritage amidst globalization and modernization.*

Keywords: *Tradition, socio-cultural identity, modernization, globalization, Navro'z, Uzbek culture, cultural continuity, adaptation, collective identity.*

Kalit so'zlar: *An'ana, ijtimoiy-madaniy identifikatsiya, modernizatsiya, globallashuv, Navro'z, o'zbek madaniyati, madaniy davomiylik, moslashuvchanlik, jamoaviy identifikatsiya.*

Traditions form an essential component of socio-cultural identity, providing individuals and communities with a sense of belonging, continuity, and connection to their heritage. As societies modernize and globalization intensifies, traditions face both challenges and opportunities. They serve as cultural anchors, preserving collective memory while adapting to contemporary contexts.

In Uzbekistan, traditions such as Navro'z, dasturxon rituals, and milliy kuy-qo'shiqlar (national melodies) exemplify the enduring relevance of cultural practices. These practices bridge the past and the present, fostering identity and unity in an increasingly interconnected world.

Traditions act as repositories of collective memory, connecting individuals to their ancestors and cultural heritage. Rituals like Qurbon hayiti are not only religious events but also communal acts of charity and solidarity, emphasizing shared values of compassion and unit. Traditional symbols such as the Uzbek do'ppi (skullcap) or fabrics like atlas and adras serve as markers of cultural pride. These items, often modernized to appeal to younger generations, reflect the adaptability of cultural symbols in preserving identity. Oral traditions, including proverbs (maqollar) and epic stories such as Alpomish, transmit values like perseverance, honesty, and hospitality. These narratives provide individuals with ethical guidelines while fostering a sense of belonging to a shared cultural framework. The dominance of global consumer culture poses significant challenges to local traditions. For example, traditional Uzbek attire is increasingly replaced by Western-style clothing. However, efforts to integrate traditional elements into contemporary designs have helped preserve cultural identity. Younger generations often view traditional practices as outdated. For instance, the elaborate nature of mehmondorchilik (hospitality) is sometimes perceived as burdensome in urban settings. Reinterpreting traditions in ways that align with modern

lifestyles is crucial to bridging this divide. Cultural events like Navro'z are at risk of losing their authenticity when tailored for tourism. While commercialization can provide economic benefits, it often dilutes the cultural and symbolic essence of traditions.

Globalization brings both opportunities and challenges for traditions. On one hand, it promotes the sharing of cultural practices across borders, such as the global popularity of Indian yoga or Korean kimchi. On the other hand, it risks cultural homogenization, where unique traditions may lose their distinctiveness in favor of more universal, market-driven practices. Traditional Uzbek attire such as atlas (silk fabric) and do'ppi (embroidered caps) have faced declining everyday use. However, initiatives to integrate these elements into modern fashion have revived their appeal, especially among younger generations. The rise of digital platforms has transformed how traditions are preserved and shared. Social media platforms like Instagram, YouTube, and TikTok allow individuals to document and promote cultural practices, from cooking traditional dishes to performing dances. For example, young Uzbeks have popularized milliy kuy-qo'shiqlar (national melodies) and Navro'z celebrations globally through viral videos, attracting international interest and preserving traditions in digital archives. Migration has led to the spread of traditions across borders, allowing diaspora communities to maintain their cultural roots while adapting to new environments. Uzbek communities in the United States or Russia celebrate Navro'z and organize cultural festivals, creating spaces to pass on traditions to younger generations abroad. These efforts help preserve identity in multicultural settings.

